

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

**UO‘K: 368.1.025.66(575.1)**

**MIRZOYEV SAYFULLO FAYZULLOYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY  
BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ANDERRAYTING XIZMATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini  
olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari  
doktori, prof. H.I.Boyev**

**Toshkent - 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		<b>3</b>
<b>I bob</b>	<b>SUG‘URTA FAOLIYATIDA ANDERRAYTING XIZMATINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.</b>	
1.1-§.	Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmatini zarurligi, mohiyati va vazifalari.	14
1.2-§.	Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmatining shakllanish bosqichlari.	24
1.3-§.	Sug‘urtaga xavf-xatarni qabul qilishda anderrayting xizmatida ning o‘rni.	34
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa	42
<b>II bob.</b>	<b>O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA ANDERRAYTING XIZMATINI JORIY HOLATI TAHLILI.</b>	
2.1-§.	O‘zbekiston Sug‘urta bozorida anderrayting xizmatining joriy holati.	44
2.2-§.	“O‘zbekinvest” EISK AJ ko‘rsatkichlarini (ARDL) modeli asosida tahlil qilish.	51
2.3-§.	Sug‘urtada risklarni qabul qilish bo‘yicha qaror hamda Sug‘urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati	65
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	80
<b>III bob.</b>	<b>SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA ANDERRAYTING XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI</b>	
3.1-§.	Anderrayting xizmati samaradorligini oshirishning konseptual asoslari.	82
3.2-§.	Anderrayting xizmatini qo‘llashni xorij tajribasidan foydalanish.	90
3.3-§.	Sug‘urta anderrayterlari xizmatining ARIMA modeli asosida prognozlash va rejalashtirish	104
3.4-§.	Anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali Sug‘urta mukofoti va to‘lovlarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish.	119
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	127
	<b>TAKLIF VA XULOSA</b>	<b>129</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>132</b>

## KIRISH

**Disertatsiya mavzusining dolzabligi va zarurati.** Dunyodagi iqtisodiy rivojlanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kishilarning kundalik hayotiga kirib borayotganligi tufayli jahondagi ko‘plab mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot tizimini joriy etilayotganligi natijasida fuqarolarning ijtimoiy farovonligi yuksalib bormoqda.

Aholining tadbirkorlik va xususiy biznes bilan shug‘ullanishida moddiy imkoniyatlarning vujudga kelishi insonlarni turli riskli faoliyatlar bilan ham shug‘ullanishga hayotning o‘zi majbur qilmoqda. Jumladan tavakkalchilik tufayli barqarorlikni ta’minlash uchun har bir riskni sug‘urtalash obyektiv hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Yevropa mamlakatlari sug‘urtachilar uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy global sug‘urta bozorining umumiy aylanmasi 2022-yilda AQShda 2,7 trln., Buyuk Britaniyada – 399 mlrd., Fransiyada – 296 mlrd., Germaniyada – 276 mlrd., Italiyada – 192 mlrd., Gollandiyada – 93 mlrd., Ispaniyada – 74 mlrd., Irlandiyada – 65 mlrd., Shveysariyada – 58 mlrd. va Luksemburgda – 48 mlrd., AQSh dollarini tashkil etgan”<sup>1</sup>.

Jahondagi globalashuv darajasi yuksalib borayotgan bir davrda, jahon iqtisodiy hamkorligiga kirib borayotgan O‘zbekistonda tadbirkorlikni ommaviy ravishda rivojlantirish davlat siyosatiga aylandi, shu bilan birga ularni turli risklardan himoya qilishda sug‘urta xizmatlariga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Buning uchun har bir Sug‘urta riskini o‘rganish va bu risklarni sug‘urta kompaniyalariga keltirishi mumkin bo‘lgan foydasi yoki zararini o‘rganuvchi risklarni baholashga ixtisoslashgan xizmatlar bo‘lishi talab etilmoqda.

Ilg‘or xorijiy mamlakatlarda asrlar davomida faoliyat yuritib kelayotgan sug‘urtalashdagi andarrayting tizimidan samarali foydalanish orqali sug‘urtadagi risklar shaffofligini oshirish zarurati tug‘ilganligi bugungi kun iqtisodiy talabiga aylandi.

---

<sup>1</sup> <https://prodengi.kz/post/20-stran-s-samym-bolsim-obemom-straxovyx-premii>

Mamlakatimizdagi sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda andarrayting xizmatlarini yanada takomillashtirish, uning rolini oshirish uchun xalqaro ilg'or sug'urta tajribasini amaliyotga qo'llash zarurati mavjud. Qolaversa, risklarni baholashda sug'urtalashda risklarni baholashdagi, sug'urta, ssuda, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar sohasidagi andarrayting turlaridan foydalanib faoliyat yuritish zarur.

Milliy sug'urta tashkilotlari tomonidan 2021-yil yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 2020-yilga nisbatan 68 %ga oshgan va 3,7 trln. so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan hamda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0,5 foizni tashkil etmoqda. Rivojlangan dunyo mamlakatlarida bu ko'rsatkich 10-12 foiz bo'lib, sug'urta mukofotlari summasi aholi jon boshiga rivojlangan mamlakatlarda 300 yevroni, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 2 000 yevroni, O'zbekiston da esa 7-8 yevroni tashkil etmoqda<sup>2</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi milliy sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, aholining sug'urtaga talab va ehtiyoji ham oshmoqda. Sug'urtaning mohiyati va afzalliklarini keng ko'lamda targ'ib etish ishlarini tashkil etish bugungi kun talabidir. Biroq tabiat hodisalari va texnogen ofatlar natijasida zarar ko'rishning oldini olish va oqibatlarini yengillashtirish bo'yicha aholiga sug'urtaning afzalliklari yuzasidan tashviqot ishlari yetarli deb bo'lmaydi.

Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda sug'urta faoliyatini takomillashtirish, sug'urtada andarrayting xizmatini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi loyihasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-

---

<sup>2</sup> <https://prodengi.kz/post/20-stran-s-samym-bolsim-obemom-straxovyx-premii>

yil 3-oktyabrdagi PQ-5265-sonli “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 780-sonli “Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish asos bo‘ldi hamda bu hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash uchun mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ITD-2 “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” loyihasi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda sug‘urtada anderrayting xizmatlarini ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo‘lib, tadqiqot ishi davomida MDH olim va mutaxassislaridan A.P.Arhipov<sup>3</sup>, O.N.Kozlova<sup>4</sup>, V.V.Shaxov<sup>5</sup>, O.N.Yefimov<sup>6</sup>, A.Siganov<sup>7</sup>, N.S.Yaroshenko<sup>8</sup> va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, xorijiy olim va mutaxassislardan

---

<sup>3</sup> Архипов А. Андеррайтинг в страховании. Теоретический курс и практикум. – Litres, 2022.

<sup>4</sup> Козлова О. Н., Калачева Е. А., Калачева И. В. Инвестиционная деятельность страховых организаций: возможности, перспективы и направления развития // Финансы и кредит. – 2018. – Т. 24. – №. 9 (777). – С. 2056-2074.

<sup>5</sup> Шахов А. М. Финансовые методы обеспечения конкурентоспособности страховых продуктов и организаций // ФЭС: Финансы. Экономика. – 2011. – №. 4. – С. 19а-24.

<sup>6</sup> Ефимов О.Н. Некоторые правовые и экономические аспекты соотношения понятий «страхование», «страховое дело» и «страховой бизнес». // Страховое дело. – 2015. – №. 3. – С. 18-22.

<sup>7</sup> Циганов А. Страховая статистика. // Страховое ревю. – 2005. – №. 3.

<sup>8</sup> Ярошенко М.Ф. Разработка анкеты для маркетингового исследования в страховой компании: экономика, бизнес, инновации. – 2019. – С. 34-37.

Devid Cummins <sup>9</sup>, Daen Jan <sup>10</sup>, Dicke va A. Arnoldlar <sup>11</sup>, Gene C. Lai <sup>12</sup>, Mishel Denuit <sup>13</sup>, Andres, Christian, Andre Betzerlar va Peter Limbach kabilarning bu boradagi ilmiy ishlari o'rganilgan va tahlil qilingan<sup>14</sup>.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Dayen Jan va Mishel Denuit sug'urta tizimida anderrayting sohasida muhim ahamiyatga ega aktuar uslubi bo'yicha risklarni modellashtirish va sug'urta matematikasiga doir keng qamrovli tadqiqotlar o'tqazganlar.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida aktuariylar, risklarni modellashtirish, sug'urta matematikasiga doir anderrayting risklari, statistik moliyadan olingan fanlararo yondashuvlar sug'urta sohasining moliyaviy barqarorligi hamda sug'urta kompaniyalarining anderrayting amaliyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari natijasida sug'urta sohasida aktuariylar va anderrayterlar uchun mavjud vositalar va metodologiyalar boyitildi hamda Sug'urta kompaniyalariga risklarni baholash va boshqarish bo'yicha ko'proq ma'lumotli va to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam berdi.

Shuningdek, xorijlik olimlar tomonidan sug'urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlariga ta'sir etuvchi omillarning ko'plab ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Xususan, Gen C. Lai anderraytingning bir qancha muhim jihatlari va uning sug'urta kompaniyasi faoliyatiga ta'siriga e'tibor qaratgan. Gen C. Lai risklarni baholash, premium sozlamalari, anderrayting amaliyotida bozor dinamikasi, iste'molchilarning xatti-harakatlari va iqtisodiy sanoat ko'rsatkichlari, anderrayting siyosati va ko'rsatmalari da'vo tajribasi hamda daromadlilik va sug'urta egasining

---

<sup>9</sup> Cummins, J. David. «Statistical and financial models of insurance pricing and the insurance firm». *The Journal of Risk and Insurance* 58.2 (1991): 261-302.

<sup>10</sup> Dhaene, Jan, et al. "The concept of comonotonicity in actuarial science and finance: theory." *Insurance: Mathematics and Economics* 31.1 (2002): 3-33.

<sup>11</sup> Dicke, Arnold A. "The economics of risk selection." *Genetics and Life Insurance: Medical Underwriting and Social Policy* (2004): 64-6.

<sup>12</sup> Lai, Gene C., and Robert C. Witt. "Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis." *Journal of Insurance Regulation* 10.3 (1992).

<sup>13</sup> Denuit, Michel, et al. *Actuarial theory for dependent risks: measures, orders and models*. John Wiley & Sons, 2006.

<sup>14</sup> Andres, Christian, André Betzer, and Peter Limbach. "Underwriter reputation and the quality of certification: Evidence from high-yield bonds." *Journal of Banking & Finance* 40 (2014): 97-115.

qoniqishi ko'rsatkichlari singarii o'zgaruvchilarni bog'liq va mustaqil omillar sifatida tanlagan.

Ushbu olim ekonometrik tenglamalari natijasiga ko'ra anderrayterlar va sug'urta kompaniyalari uchun mavjud vositalar va metodologiyalarni yaxshilagan bo'lib, ularga risklarni baholash, narxlarni belgilash va kompaniyaning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishida o'z tasdig'ini topgan.

O'zbekistonda sug'urta sohasini takomillashtirish doirasida akademik S.S.G'ulomov<sup>15</sup>, professorlar R.S.Azimov<sup>16</sup>, Q.M.Qo'ldoshev<sup>17</sup>, X.I.Boyev<sup>18</sup>, X.Shennayev<sup>19</sup>, M.Mirsadikov va B.Shamsuddinov<sup>20</sup> hamda boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular tomonidan tadqiq etilgan ilmiy-amaliy xulosalar asosida sug'urta anderraytingini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur ilmiy ishlarda sug'urta sohasida sug'urta mahsulotlarini sotish va sug'urta to'lovlari tizimini takomillashtirish va sug'urta sohasini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Biroq ularda O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchisi hisoblanuvchi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayting xizmatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan uning zamonaviy ko'rinishlari, jumladan anderrayting xizmatida sun'iy intellektdan foydalanish tizimini tashkil etish bilan bog'liq masalalar keng yoritilmaganligi, tadqiqot ishi O'zbekiston sug'urta bozorida anderrayting xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy ishlarning davomchisi bo'lishiga imkon yaratadi.

---

<sup>15</sup> Гулямов С. С., Шермухамедов А.Т. Цифровая технология в индустрии страхования //EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. – 2018. – С. 29-33.

<sup>16</sup> Азимов Р.С., Мирсадиқов М.А., Шамсуддинов Б.Р. Современное состояние и проблемы страхового образования в Республике Узбекистан. // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2023. – №. 2 (162). – С. 17-22.

<sup>17</sup> Қўлдошев Қ.М. Ҳаёт суғуртаси: давлат ва фуқаролар учун аҳамияти ҳамда Ўзбекистонда ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар. // Страховой рынок Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 4-6.

<sup>18</sup> Боев Х.И. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашни кучайтириш – давлатнинг бош вазифаси. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашни ташкил этиш ва бошқариш. // Меҳнат бозори ва ижтимоий ҳимоя / Рынок труда и социальная защита. – Тошкент, 2017 й.

<sup>19</sup> Шеннаев Х. М. Страховой сектор: современные вызовы и новые подходы. – 2023.

<sup>20</sup> Азимов Р.С., Мирсадиқов М.А., Шамсуддинов Б.Р. Современное состояние и проблемы страхового образования в Республике Узбекистан //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2023. – №. 2 (162). – С. 17-22.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Moliya bozori va sug'urta ishi kafedrasida hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, universitet ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

**Tadqiqot maqsadi** O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayting xizmatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- sug'urta kompaniyalari faoliyatida anderrayting tushunchasi, mohiyati, mazmuni;
- mamlakatdagi sug'urta kompaniyalari faoliyatida xorijiy tajribadan foydalanish yo'nalishlari;
- sug'urta kompaniyalarida anderrayting siyosati, riskning xavf-xatarlari;
- sug'urtalashda anderrayting jarayoni va sug'urta turlarining ayrim aspektlari;
- sug'urta kompaniyalarida anderrayting strategiyasi va riskni qabul qilish bo'yicha qarorlari;
- sug'urta kompaniyalari anderrayting sug'urta portfelini ishlab chiqish jarayoni;
- O'zbekiston milliy sug'urta bozorini hozirgi zamon talablari bo'yicha rivojlantirish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston sug'urta bozoridagi anderrayting faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sug'urtada anderrayting xizmatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tadqiqotning guruhlash, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellar, korrelyasion, regression, ekspert va taqqoslama tahlil, prognozlash, ma'lumotlarga statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.



**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- uslubiy yondashuvga ko‘ra **“sug‘urta anderraytingi”** tushunchasining iqtisodiy mazmuni sug‘urta shartnomasi bo‘yicha risklarni tahlil qilish hamda ularni sug‘urtalashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayoni sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

- sug‘urta kompaniyalarida malakali mutaxassislardan iborat maxsus **“Sug‘urta anderraytingi”** bo‘limini tashkil etish asosida sug‘urta portfelini shakllantirish, sug‘urta obyektlari risklari va favqulodda sug‘urta hodisalari yuzasidan baholash tizimini belgilash orqali milliy sug‘urta bozoridagi sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash asoslangan;

- sug‘urta kompaniyalarida anderrayting faoliyatini kengaytirish asosida aholi va yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug‘urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali sug‘urta portfeli muvozanatini ta‘minlash taklifi asoslangan. Ushbu jarayon bevosita Prezidentning 01.03.2024 yildagi PQ 108-sonli qarorida singdirilgan;

- “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi amaliyotidagi jarayonlar asosida sug‘urta shartnomalari, sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlari hamda sug‘urta anderrayterlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha ekonometrik modeli va shuning asosida 2027-yilga qadar anderrayting xizmati asosiy faoliyatining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida sug‘urta sohasining ulushini kengaytirishga xizmat qiluvchi anderrayting xizmati amaliyotini yanada kengaytirish uchun jahondagi ilg‘or tajribalarni tatbiq etish va bu borada O‘zbekistondagi mavjud imkoniyatlarning tadqiqi asosida sug‘urtada anderrayting xizmatini takomillashtirishning zarurligi va ahamiyati asoslangan;

- mamlakatimiz sug‘urta sohasining amaldagi mexanizmi tahlili asosida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda anderrayting

xizmatining zaif tomonlari aniqlangan hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

- sug'urta kompaniyalarida anderryayting xizmati hamda anderryayting strategiyasiga e'tiborni kuchaytirish va sug'urtaga xavf-xatarni mustaqil qaror chiqarish orqali qabul qilish, javobgarlikni oshirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

- sug'urta sohasida anderryayting xizmati faoliyatini raqamlashtirish amaliyotini joriy etish, sug'urta mahsulotlari bo'yicha anderryayting tizimini yuritish yuzasidan elektron tahlil olib boruvchi modullarni yaratish va raqamli anderryayting tizimining me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish zarurligi asoslangan.

**Olingan natijalarning ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi hamda "O'zbekinvest" EISK AJ, shuningdek, ijtimoiy tarmoq rasmiy elektron saytlar ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy, uslubiy xulosa va tavsiyalardan sug'urta sohasida anderryayting xizmatini takomillashtirish borasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy apparatini boyitish hamda metodologik asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyada asoslangan nazariy, uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda ishlanmalar istiqbolda sug'urta kompaniyalarinng moliyaviy barqarorligini takomillashtirish yo'llari yuzasidan davlat tadbirlarini ishlab chiqishda muhim metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda anderrayting xizmatini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

- uslubiy yondashuvga ko‘ra “sug‘urta anderraytingi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini sug‘urta shartnomasi bo‘yicha risklarni tahlil qilish hamda ularni sug‘urtalashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonini sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan **“Sug‘urtada investitsiya faoliyatini boshqarish”** nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2024-yil 29-fevraldagi 45-sonli buyrug‘i).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda sug‘urta shartnomasi bo‘yicha risklarni tahlil qilish hamda ularni sug‘urtalashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonini sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan **“sug‘urta anderraytingi”** tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

- sug‘urta kompaniyalarida malakali mutaxassislardan iborat maxsus **“Sug‘urta anderraytingi”** bo‘limini tashkil etish asosida sug‘urta portfelini shakllantirish, sug‘urta obyektlari risklari va favqulodda sug‘urta hodisalari yuzasidan baholash tizimini belgilash orqali milliy sug‘urta bozoridagi sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash taklifi “O‘zbekinvest” eksport-import Sug‘urta kompaniyasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekinvest” EISK AJ ning 2023-yil 7-avgustdagi 01/1-480/1-sonli ma’lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida 2021-yilda (926300 ta) 2020-yilga (793726 ta) nisbatan shartnomalar soni 117 foizga oshgan;

- sug‘urta kompaniyalarida anderrayting faoliyatini kengaytirish asosida aholi va yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug‘urta qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali sug‘urta portfeli

muvozanatini ta'minlash taklifi qilingan. Ushbu amaliyotni q'ollash yuzasidan Prezidentimizning 01.03.2024 yildagi PQ 108-sonli qarorida singdirilgan.

Shunindek mazkur ilmiy taklifning asosida "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining sug'urta portfelini shakllantirish amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 2023-yil 7-avgustdagi 01/1-480/1-sonli ma'lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi yuzasidan ixtiyoriy mol-mulk sug'urtasini keng targ'ib qilish natijasida kompaniyaning sug'urta mukofotlari hajmi 2021-yilda 385,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 930,5 mlrd. so'mni tashkil etgan, kompaniyaning sug'urta mukofotlari hajmi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 241,5 foizga oshgan;

- "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasida sug'urta shartnomalari, sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari hamda sug'urta andarrayterlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yuzasidan ekonometrik modeli ishlab chiqilib, buning asosida 2027-yilga qadar andarrayting xizmati asosiy faoliyatining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Ushbu jarayon bevosita "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi faoliyati yuzasidan taxlillar o'tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 2023-yil 7-avgustdagi 01/1-480/1-sonli ma'lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi hamda zaxiralar miqdori oshishini ta'minlovchi istiqboldagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikka erishish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, 10 paragrafni o‘z ichiga olgan 3 ta bob, taklif va xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil etadi.

## **I bob. SUG‘URTA FAOLIYATIDA ANDERRAYTING XIZMATINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1-§. Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmatini zarurligi, mohiyati va vazifalari**

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab sug‘urta sohasi takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda sug‘urta sohasi ikkita tarmoqdan iborat bo‘lib, bular hayot sug‘urta tarmog‘i va umumiy sug‘urta tarmoqlari hisoblanadi. Ushbu tarmoqlar sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabdan kelib chiqib tashkillashtirilgan.

Inson hayoti va sog‘lig‘i hamda tibbiy xizmatlar bilan bog‘liq munosabatlarni sug‘urtalash hayot sug‘urtasi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, javobgarlik va tadbirkorlik bilan bog‘liq munosabatlar umumiy sug‘urta orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda 2017-yildan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari orasida sug‘urtani takomillashtirish, xizmatlarni rivojlantirish va bular bilan fuqarolar ishonchini oshirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. Aynan mazkur qonun hujjatlari soha xizmatlarini tashkil etish va sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoyalashga qaratilgan.

Sug‘urta faoliyatini tashkil etish uchun Sug‘urta anderrayting tizimidan foydalanish ko‘zda tutiladi. Sug‘urta anderrayting tizimi sug‘urtada anderrayting xizmatlarini ko‘rsatuvchi anderrayterlar faoliyatini qamrab oladi.

Anderrayting tizimining mavjudligi sug‘urtaga nisbatan xavf-xatarlarni boshqarish, baholash va nazorat qilish tizimi mavjudligini bildiradi. Sug‘urtabu xavf-xatarlar ortidan keluvchi zararlarni to‘liq yoki qisman qoplash maqsadida tashkil etiladigan pul fondlari hamda bu pul fondlaridan samarali foydalanish munosabatlarini bildiradi. Sug‘urtaga xos belgi sifatida xavf-xatar mavjudligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Sug‘urta faoliyatini tashkil etishda anderrayting xizmati haqida rossiyalik olimi A.Arkipov quyidagicha ilmiy xulosalar bergan: “ Sug‘urta faoliyatini tashkil etishda sug‘urta anderraytingi, sug‘urtaga nisbatan xavf-xatarlarni guruhlarga ajratuvchi va ushbu guruhlardagi xavf-xatarlarni sug‘urta tashkilotining moliyaviy

holatidan kelib chiqib saralovchi hamda sug'urta obyektiga sug'urta ta'rif stavkasini belgilovchi professional xizmatchilarning faoliyatidir”.

Sug'urta anderryayting xizmati shunday biznes jarayoniki, unda sug'urtaga nisbatan xavf-xatar bo'yicha zararlar oshib ketadigan bo'lsa, qayta sug'urtaga yo'naltirish bo'yicha ham qaror qabul qilinishi mumkin. Shuningdek sug'urtaga nisbatan xavf-xatar bo'yicha sug'urta shartnomasida franshizaning qo'llanish tartiblari ham belgilanishi mumkin.

Sug'urta borasida mashur rossiyalik olim A.Arkipovning “Sug'urtada anderryayting xizmati” deb nomlangan kitobida berilgan tarifga ko'ra: “Sug'urta anderryayteri shunday kvalifikatsiyaga ega shaxski, sug'urta anderryayteri sug'urta tashkiloti nomidan sug'urtalanishga keltirilgan obyektни sug'urtalashga qabul qilish yoki qabul qilmaslik bo'yicha qaror chiqaruvchi hamda sug'urta tashkilotining moliyaviy faoliyati barqarorligini saqlashda xizmat qiluvchi sug'urta anderryayting siyosatini olib boradi”.<sup>21</sup>

Sug'urta faoliyatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib fikrlasak, sug'urtalashga olib kelingan barcha sug'urta obyektlari sug'urta tashkilotining moliyaviy holatidan kelib chiqib sug'urtalanishi shart.

Agar Sug'urta tashkilotida o'z aktivlariga mos sug'urta portfelini shakllantirilmasa, uning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirlar yuzaga keladi. Sug'urta kompaniyalarida sug'urtalashga qabul qilinayotgan Sug'urtaobyektlariga ma'lum shart va majburiyatlarni belgilashda professional xizmatga ehtiyoj mavjud. Bunday ehtiyoj sug'urta anderryayting xizmati orqali qoplanadi.

Sug'urta anderryayting xizmatini tashkil etilish maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib rossiyalik olim A.Arkipov anderryaytingining quyidagi funksiyalarini belgilagan:

---

<sup>21</sup> Архипов А. Андеррайтинг в страховании. Теоретический курс и практикум. – Litres, 2022.

- xavf-xatarlarni yuritish, bu anderrayterlar va aktuariylar tomonidan berilgan xulosalardan kelib chiqib, qaysi narx va majburiyatlar yordamida obyektning tahlil qilish va qabul qilish;

- risklarni sug'urtaga olish yoki qabul qilmaslik, bu xavf-xatarning zararlilik koeffitsiyenti hamda sug'urta klasslari bo'yicha sug'urta tashkilotining portfel muvozanatidan kelib chiqib, xavf-xatarni sug'urtalashga qabul qilish yoki inkor qilish;

- uslubiy jihat, bu Sug'urtaqonunchiligi va meyorlari asosida sug'urta shartnomalarini tuzish hamda anderrayting siyosati yiritisi;

- nazorat shakli, bu sug'urtalangan obyektlar monitoringini yuritish va xavf-xatarlarni pasaytirish uchun portfel muvozanatini saqlash.

Xorijlik olim S.A.Burlyayev olib borgan ilmiy tadqiqotda sug'urta anderraytingi haqida nazariy yondashuv mavjud, u ilmiy maqolasida anderrayter haqida "Anderrayter xavf-xatarni baholash bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lishi, Sug'urta mukofoti va to'lov o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi hamda sug'urtalovchi portfelining shakllanishida tajribaga tayangan holda Sug'urta tariflarining quyi va yuqori chegarasini belgilovchi, obyektning qabul qilish bo'yicha qaror chiqaruvchi professional shaxs" deb ifodalagan.

Ilmiy jihatdan tahlil qilsak, sug'urta anderrayting xizmatining mohiyatida sug'urta xavf-xatarlarini faqatgina sug'urta tashkilotining sof aktivlari balansidan kelib chiqib qabul qilishni tashkil etuvchi professional xizmat deb atashimiz mumkin. Shuningdek sug'urta anderrayting xizmati aktuariylar belgilab bergan ta'rif stavkasini sug'urta tashkilotidagi portfel muvozanatiga mos ravishda qo'llab, sug'urta shartnomasini tuzishdir.

Sug'urta faoliyatida anderrayting xizmatining maqsadi va vazifalari sifatida M.A.Fedotov sug'urta anderraytingining maqsadi sug'urtalovchida mavjud imkoniyatdan to'g'ri foydalanish va sug'urta mahsulotlari turlarini kengaytirish, xizmatlar sifatini yanada oshirish uning vazifasi ekanligini bildirgan.



Sug'urtalovchilar o'z aktivlari va jalb qilingan aktivlarini hisobga olgan holda ulardan samarali foydalanib, faoliyat samaradorligini ta'minlash sug'urta anderrayting xizmatiga ham tegishli.

Sug'urta anderrayterlari qabul qilinayotgan mukofotlar oqimini kengaytirish uchun ayrim sug'urta turlari bo'yicha franshizani qo'llashi yoki ba'zi zararlari ko'payib ketayotgan sug'urta klasslari bo'yicha javobgarlikni qayta sug'urtalashga yuborib, kompaniyalar moliyaviy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

M.A.Fedotov sug'urta anderraytingi tushunchasini aniqlash maqsadida uni uchta guruhga bo'lish mumkinligini asoslagan.

### 1.1-jadval.

#### Sug'urta anderraytingi nazariyalari<sup>22</sup>

Yondashuv nomi	Yondashuvni yaratuvchilar	Sug'urta anderraytingi tushunchasi
Nazariy metodologik yondashuv	Arxipov A.P., Shinkarenko I.E.	Risklarni baholash va qabul qilish shartlari
Amaliy yondashuv	Nikolenko N.P., Xarrington D., Esseling E.	Risklarning kotirovkalashni biznes jarayonlari va ularni sug'urtaga qabul qilishda belgilangan tartib tamoyillar
Biznesga mo'ljallangan yondashuv	Group Benefits konsalting guruhi	Qabul qilingan risk pariteti va daromadliligiga erishish maqsadida riskni baholash va boshqarish

M.A.Fedotov o'z ilmiy yondashuvlarida Sug'urta anderraytingining metodik jihati xavf-xatarlarni baholash va sug'urtaga qabul qilishda ko'proq namoyon bo'lishi hamda Sug'urta anderraytingining nazorat funksiyasi orqali sug'urtalovchining zararlilik ko'rsatkichlari kamayishida muhim ahamiyat kasb etishini asoslagan.

N.N. Nikulina va V.N. Yasenevr sug'urta menejmentida anderrayting terminiga quyidagicha izoh berganlar:

- anderrayting, bu risklarni tahlil qilib, sug'urta hamda qayta sug'urtaga qabul qilish yoki rad etish jarayonidir;

<sup>22</sup> Fedotov M. A. Anderrayting v straxovanii //Finansы i kredit.– 2009. – №. 43 (379). – С. 63-67.

- anderraying, bu sug'urtalanuvchi va sug'urtalanmaydigan risklarni tasniflash hamda baholash jarayonidir;

- anderraying, bu shartnoma shartlarini va sug'urta to'lovlari hajmini chegaralarini belgilash jarayoni hamda anderraying, bu sug'urta mukofotini to'lash jarayonini belgilash tizimidir.

N.N. Nikulina va V.N. Yasenev anderraying to'g'risida bergan ta'riflarida anderrayerlar sug'urta faoliyatini yritishda asosiy lokomotiv vazifasini bajarishi ko'rsatilganligi diqqatga sazovordir.

Anderrayingning nazariy jihatlarini ko'plab olimlar o'rgangan bo'lib, jumladan, o'zbekistonlik iqtisodiyot fanlari doktori, professor Q.M.Qo'ldoshev ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida anderraying tizimi haqida, "Sug'urta moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan ichki omillar sifatida sug'urta ishining qay darajada tashkil etilganligidan kelib chiqadigan holatlarni keltirish mumkin.

Ya'ni imzolangan shartnomalarda qabul qilingan risklarni baholash tizimi, sug'urta zaxiralarining hajmi, qayta sug'urtadan unumli foydalanish, investisiya faoliyatini samarali yo'lga qo'yilganligi va sug'urtaning yuqori darajadagi tashkiliy strukturasi, xodimlar malakasi, tarif stavkasini qo'llash siyosati kabi omillar sug'urtaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki jarayonlarning asosini belgilaydi" deb ilmiy fikrlarini bildirgan.

Sug'urtada anderraying xizmatini tashkil etishning asosiy maqsadlaridan biri bozordagi talab o'zgarishi hisobiga xavf-xatarlarni qabul qilish jarayonini tashkil etish, ya'ni balanslashtirishni amalga oshirishdir. Sug'urta tufayli xaridor tanlashda qaysidir sug'urta xizmatiga xohishini bildiradi, shu bilan birga u jarayon, kapitalni aylantirishni tezlashtiradi.

Sug'urta xizmatlarini yanada rivojlantirish masalada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarda mo'ljanlangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" belgilangan yo'nalishlarning 56-maqsadidagi vazifalar asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, sug'urta madaniyatini oshirish, majburiy tibbiy sug'urta orqali xizmatlat qamrovini

oshirish choralari ko‘rilmogda. Sug‘urta xizmatlarini targ‘ib qilishda majburiy tibbiy sug‘urta asosiy bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Sug‘urtaning afzalliklarini targ‘ib qilishda marketingning o‘rni juda muhim. Marketing sug‘urta bozorining bog‘lovchi elementi sifatida xizmat qiladi, chunki oldi-sotdi jarayonlarining har ikkala tomonga ijobiy bo‘lishi uchun potensial xaridorlar uchun bozorni sharhlash zarur.

Jumladan, sug‘urtalovchilar va sug‘urtalanuvchilar talab va taklif haqida axborotga ega bo‘lishlari kerak. Umuman, sug‘urta mahsulotlari haqida axborot tarqatib mahsulot taklifi va shu bilan birga mahsulotga talabni shakllantirishda ishtirok etadi.

Sug‘urta xizmati insonlarning hayot faoliyatidagi yo‘qotishlarini o‘rnini qoplash orqali ularning hayotiy faoliyati davomiyligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sug‘urta madaniyati yuqori bo‘lmagan jamiyatlarda sug‘urtaga nisbatan sovuq fikrlar qotib qolgan.

Yuqori darajada xaflanmagan ba‘zi sug‘urtalanuvchilar sug‘urta fondlari faqatgina ularni hisobidan yig‘ilib, ularga kam naf beradi degan fikrdalar, lekin rivojlangan insoniy jamiyatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, sug‘urta insonlarni turli balo-qazolar ortidan keladigan ziyonlarni qoplab beruvchi va ularning faoliyatidagi uzilishlarni ulab qo‘yadigan vosita hisoblanadi.

Sug‘urta anderrayteri ishlab chiqaruvchi va istemolchi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning tashkil etilishida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Xalqaro sug‘urta tajribasida risklarni baholashda anderraytingning beshta asosiy turidan foydalanib kelinmoqda:

1. Sug‘urtalashda anderrayting.
2. Ssuda sohasida anderrayting.
3. Qimmatli qog‘ozlar sohasida anderrayting.
4. Ko‘chmas mulk sohasida anderrayting.
5. Sud jarayonlari bo‘yicha anderrayting.

Anderrayting o‘zi nima uchun kerak, degan savolga, olimlar anderraytingni, avvalo, turli sohalarning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi, uning rivoji uchun

muhim elementlar o'rnida fan sifatida qaramoqdalar va unga tegishli ilmiy talqin etmoqdalar. Chunki anderrayting qaysi sohada qo'llanilmasin, u soha uchun albatta foyda keltirishi imkoniyatlari qidiriladi va foydaga erishish deyarli kafolatlangan bo'ladi.

Anderrayter moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan qabul qilinayotgan javobgarlik zararlilik koeffitsiyentini oshib ketmasligi uchun xavf-xatarni baholash, himoyaga olinayotgan sug'ura obyektlari bilan bog'liq xavf-xatarlarni tahlil qilish ishlarini olib boradi.

Anderrayter bu ishlarni amalga oshirish orqali aniq maqsadga erishish uchun harakat qiladi. Asosan masalaning falsafiy jihatdan tarixini o'rganadi, lavozimini aniqlaydi, soha bo'yicha ma'lumotini aniqlab beradi, sug'urtada anderrayting tizimi vazifasini aniqlaydi.

Xalqaro sug'urta sohasida va sug'urta kompaniyalarida anderrayterlarga qo'yiladigan lavozim talablari quyidagilardan iborat:

1. Obyekt ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish.
2. Aniqlangan muammolarni obyekt egalariga yetkazish.
3. Tahlillar va mijozlar bilan bo'lgan jarayonlardan kelib chiqib, yangi sug'urta mahsulot turini yaratishga harakat qilish.
4. Tariflar bo'yicha hisob-kitoblarni olib borish.
5. Sug'urta xavf-xatarlarini kamaytirish bo'yicha sug'urtalanuvchilar bilan kelishgan holda tadbirlar o'tkazish.

Anderrayter birinchidan qabul qilgan qarorlarini iqtisodiy tahlillar asosida asosli belgilab olishi va bu qarorlari uchun tegishli javoblarni har doim qaytara olishi darkor. Anderrayterlarlar xavf-xatarni sug'urtaga qabul qilish yoki qabul qilmaslik bo'yicha qaror qabul qiladi.

Rivojlangan sug'urta tashkilotlari tajribasiga ko'ra sug'urtaga qabul qilinayotgan yirik xavf-xatarlarni boshqarishda professional sug'urta anderrayterlari xizmatiga tayaniladi.

Sug'urta risklarini baholash ayniqsa moliya bozorida ro'y beradi. Hodisalarni o'rganishda anderrayting tizimi har bir mijozning moliyaviy ahvolini, qobiliyatga

yaroqli ekanligini o'rganadi. Sug'urta sohasida va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan anderrayter oxirgi so'zni aytadi.

Hozirgi kunda butun dunyoda bo'layotgan raqamlashtirish ishlari sug'urta sohasida ham elektron dasturlarni ishlab chiqish orqali sug'urta xizmatlarini elektronlashtirishni talab etmoqda.

Anderrayter vazifasida, u hamma faktlarni tekshirib ishonch hosil qilishi kerakligi ko'rsatib qo'yilgan. Bularga soliqlar, huquqiy tomonlari sug'urta va xulosaviy hujjatlar talab darajasida o'z joyida bo'lishi zarur.

Anderayting tizimda asosiy uchta anderrayting turi mavjud bo'lib anderrayterning majburiyati asosan:

- qattiq mustahkam, yoqori imkoniyatdagi va barchasi yoki hech narsa uchun majburiyat.

Birinchi majburiyatda anderrayter kapitalni joylashtirish, hamma mavjud aksiyani o'ziga moliyaviy majburiyat sifatida, hatto sotilmagan aksiyalarni ham o'ziga oladi. Shular bilan birga anderrayter sotilmagan aksiyalar bo'yicha javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. Hammasi yoki hech nima prinsipi bo'yicha olingan majburiyat yuzasidan anderrayter hech qanday kompensatsiya olmaydi.

Sug'urta tashkiloti uchun sug'urta anderrayteri xavf-xatarni to'g'ri baholab qabul qilishi sug'urta zararini to'lash fondini kamayishiga olib keladi.

Agar sug'urtalovchi anderrayter taklifi bilan kasalikka uchragan shaxsni sug'urtalagan bo'lsa, demak sug'urta kompaniyasi bu fuqaroning hayotini kafolatlagan bo'ladi hamda shartnoma bo'yicha birinchi talab bo'yicha sug'urta qoplash summasini to'laydi.

Sug'urta anderraytingini faoliyati boshqalarnikidan ajralib turadi, jumladan, anderrayting xodimlari juda professional bo'lib, maxsus iqtisodiy, yuridik, psixologik bilimlarga ega mutaxassis hisoblanadilar.

Anderrayterlar obyektga oid barcha axborotlarni to'playdi va ularni sintez qiladi va ular risklarni baholash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim, shundan so'ng javobgarlik uchun qaror bo'cha xulosa chiqaradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta qilishda ko'p talablarni qo'yganda sug'urta anderrayterlari tomonidan bunday talablar baholanadi.

Agar vaziyat risklar chegarasidan chiqsa, bu anderrayter tuzilgan shartnomani qaytadan ko'rib chiqmaydi degani emas, anderrayter polisni qaytadan qo'rib chiqishi va shartnoma shartlarini o'zgartirishi ham mumkin.

Anderrayter sug'urta kompaniyasining vakili sifatida sug'urta shartnomasini qaytadan ko'rib chiqish vakolatiga ega. Sug'urta anderraytingi sug'urtachi nomidan hamma masalalarni hal etishi mumkin.

Sug'urta anderrayterlari bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda shartnomalar tuzadilar hamda risklarni pasaytirish uchun mukofotni obyekt qiymatiga qarab belgilaydilar.

Sug'urtalashda anderrayting siyosati muhim ahamiyatga ega, bu tizim, xaridorlarni o'rganish, iste'molchilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishini talab qiladi. Sug'urtani yritish bu sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvidir.

Xavf-xatarni baholash va obyektни qabul qilish uchun anderrayterlarga ma'lum bir me'eor belgilanmagan, ular vaziyatdan kelib chiqib, tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir qiluvchi qarorni qabul qilish vazifasi ancha murakkab hisoblanadi. Bunday vaziyatda anderrayter talanti hamma muammolarni bartaraf etishi mumkin deb qarash kerak.

Sug'urta xizmati bozorida tushkunlik davri mavjud bo'lib, bu davrda sug'urta mahsulotlarini sotish bo'yicha barcha rag'batlar to'xtatib turiladi. Sug'urta mahsulotlarini sotishga qaratilgan rag'batlantirish tadbirlari asosan sug'urta xizmatlari hajmini oshirish maqsadida olib borilib, ular quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- bonus taqdim qilish;
- ma'naviy rag'batlantirish;
- sug'urta xizmatlari bahosini tushirish to'g'risidagi radio, televideniye va matbuot orqali e'lonlar бeриш.

Sug'urta faoliyatida anderrayingni sug'urta kompaniyasiga foyda keltirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, anderraying faoliyatini muntazam shaklda audit tekshiruvidan o'tkazib turilishi obyektiv zarurat hisoblanadi.

Risklarini baholashdagi anderraying funksiyasi birinchidan har qanday sug'urta riskining zararlilik ehtimoli, ko'riladigan zarar miqdori qanday bo'lishi, yoki darajasini tahlil qilishdan iborat. Risklarning oldini olishda obyektlarda yong'inga qarshi, signalizatsiyani mavjudligi va choralari ko'rilganligi, agar samolyotda uchuvchilarning tajribasi, samolyotni yo'lovchilarni necha yillardan beri tashishdagi muddati ham hisobga olinishi kerak.

Sug'urta tariflarining adekvatligi bu sug'urta tariflarining aktuar hisobdan o'tkazilganligi bilan belgilanadi. Sug'urta anderrayerining vazifalaridan biri sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlarga ta'rif stavkalarining yuqori yoki quyi chegaralarini qo'llashdan iborat.

Agar sug'urta bozorida talab yuqori bo'lgan sug'urta turi bo'lsa, bu sug'urta obyektlariga nisbatan ta'rif belgilanayotganda yuqori chegarani qo'llash mumkin, lekin sug'urta bozoridagi raqobatni ham hisobga olgan holda yondashish zarur. Shuningdek, sug'urta ta'rif stavkasini belgilab sug'urtaga qabul qilishda sug'urta tashkilotidagi sug'urta portfeli muvozanati ham hisobga olinishi kerak.

Mol-mulk sug'urtasi bo'yicha javobgarlikni yana qabul qilish sug'urta portfeli muvozanatiga salbiy ta'sir etsa, sug'urta anderrayeri bunday javobgarlikning bir qismini qayta sug'urtalashga topshirish bo'yicha qaror chiqargach, yana javobgarlikni qabul qilish mumkin.

Sug'urta anderraying tizimi sug'urta tashkilotining moliyaviy faoliyatiga bevosita ta'sir qilish imkoniyati mavjud bo'lib, sug'urta anderraying siyosatini olib borishda sug'urta tashkilotlari ilg'or xorij tajribasidan foydalanishi ularni moliyaviy barqarorlikka yetaklaydi. Sug'urtani rivojlantirish tendensiyasi bu har bir fuqaroni iqtisodiy manfaatlarini himoya qilgan holda risklarni qabul qilish anderrayingning umuminsoniy vazifasi hisoblanadi.

## **1.2-§. Sug‘urta faoliyatida andarrayting xizmatining shakllanish bosqichlari**

Insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarida turli xil ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar yuz bergan. Dastlabki insoniyat tarixida mulkchilikning shakllanishi bilan bir davrda mulkni yo‘qotish va mulkni saqlash singari yirik muammolar ham paydo bo‘ladi.

Qadimgi tarixga e‘tibor qaratsak, Xamurappi qonunlarida XXVIII asr Bobil podsholigiga insonlar o‘rtasida xavf-xatar ortidan keladigan mulkiy yo‘qotishlar jamoalarga oilalarga mos holda taqsimlash orqali qisman qoplanganligini ko‘rishimiz mumkin. Insoniyatning yashash uchun ov qilish jarayonlarida hayvonlarni guruh bo‘lib ovlash yoki savdo-sotiqqa mo‘ljallangan yuklarni bitta emas, bir nechta karvonlarga taqsimlab yuborish jarayonlari sug‘urtaning dastlabki ko‘rinishlari sifatida hisoblash mumkin.

Bobil tarixiga e‘tibor qaratsak, savdo karvonlari ishtirokchilari, ya‘ni karvonlar orqali sotish uchun mo‘ljallangan mol-mulk egalari orasida o‘zaro bitimlar tuzilgan bo‘lib, bu bitimlarda, agar karvon kutilmagan baxtsiz hodisaga uchrab mol-mulk nobud bo‘lsa, ushbu nobud bo‘lgan mol-mulk bitim tuzuvchilar o‘rtasida kelishilgan shartlarga mos holda qoplangan. Zamonaviy sug‘urta faoliyatida bu holat o‘zaro sug‘urtalash jarayonlariga mos keladi.

Hozirgi Falastin diyori va Suriya davlati hududlarida ham savdo karvonlarini turli xil baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo‘ladigan mulkiy yo‘qotishlar yoki chorva hayvonlarini qirilish orqali mulkiy yo‘qotishlar jamoalar qabilalar orasida taqsimlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Dastlabki sug‘urtada muntazam to‘planadigan badallar mavjud bo‘lmagan, ya‘ni biror-bir holatda mulkiy yo‘qotishlarda faqat ma‘lum bir jamoa tomonidan badallar yig‘ilgan va mulk yo‘qotilganda qisman yoki to‘liq qoplangan. Sug‘urtaning bunday bosqichi o‘zaro sug‘urtalash shakli bo‘lib, bu sug‘urta bosqichida asosan ma‘lum bir guruhlar manfaatlari himoya qilingan.

Masalan, savdogorlar savdo karvonlaridagi mol-mulkni turli kutilmagan yo‘qotishlardan himoyalash uchun o‘zaro sug‘urta jamg‘armalarni tashkil etgan,



dehqonlar esa hosilini turli tabiiy ofatlardan talofat ko'rishini o'zaro sug'urtalash bilan himoyani ta'milaganlar.

Sug'urta faoliyati mulkchilik shakllanishiga mos ravishda taraqqiy etdi. Sharqda dastlab savdo tizimi savdo karvonlari faoliyati XI-XII asrlarda o'zaro sug'urta yordamida sug'urtalangan. Ma'lum davrdan so'ng bu rivojlanish Yevropaga kirib kelgan. Yevropada mulkdorlar va mulkchilik faoliyati rivoj topib, mulklardan daromad olish bilan bog'liq jarayonlari takomillashib bormoqda.

Yevropadagi mulkdorlar o'z mulklarini turli xil xavf-xatarlar oqibatida yo'qotishlarining oldini olish va ushbu yo'qotishlardan himoyalaniish maqsadida sug'urta xizmatiga juda tez tayana boshladilar va natijada Yevropada XVIII-XIX asrlarda Sug'urta faoliyati anchayin kengayib, turli xil sug'urta xizmatlari paydo bo'ldi. Yevropada tashqi savdo asosan dengiz yo'li orqali tashkil etilganligi uchun, dengiz bilan bog'liq mol-mulk va hayot sug'urtasi tez rivojlandi.

Angliya poytaxti Londonda 1680-yili Edvard Lloyd ismli shaxs "Lloyd kofe uyi" "Lloyd's Coffee House" ni tashkil etadi, o'sha vaqtlarda bunaqa qahvaxonalarda mulkdorlar, savdogarlar, kema egalari hamda turli xil insonlar yig'ilib, asosiy yangilik va muammolarni tahlil qilishgan, ayniqsa intellektual munozaralarni o'tkazishgan.

Edvard Lloyd o'z qahvaxonasida faoliyat yuritish bilan birga, sug'urtada andarrayting javobgarligi tashkil etilishiga xizmat qilgan.

1691-yilga kelib, Edvard Lloydning "Lloyd's Coffee House" qahvaxonasi eng so'nggi yuk tashish yangiliklarini taraqqatish hamda dengiz xizmati bo'yicha auksion narxlarini e'lon qiluvchi markaz sifatida mashhur bo'lagan.


Aynan o'sha davrda banklar yuk tashish bo'yicha mavjud xatarlar ortidan keladigan mulkiy yo'qotishlarni o'z zimmalariga olish evaziga yuk egalardan mukofot olish amaliyotini tashkil eta boshlaydi. Edvard Lloydning "Lloyd's Coffee House" qahvaxonasi zamonaviy sug'urta xizmati tashkil etilgan joy sifatida mashhurlashgan.

Bankirlar tashilishi kerak bo'lgan yuk va uning yetib borishi lozim bo'lgan manzili hamda ushbu yukni tashuvchi kema va bu davrdagi ob-havo haqidagi

ma'lumotlar haqidagi e'lon taxtasiga xatarlar bo'yicha javobgar ekanligini bildirib, o'z nomini yozadilar. Savdoni qo'llab-quvvatlovchi bu amaliyot anderrayting xizmati deb nomlanadi.

Keyinchalik davr talabidan kelib chiqib, sug'urtada anderrayting xizmati tushunchasi sifatida sug'urta kompaniyasiga risklarni qabul qiluvchi professional mutaxassis faoliyati tushinila boshladi.

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida anderrayting xizmati o'ziga xos tarzda rivojlana boshladi. Bugungi zamonaviy iqtisodiyotda anderrayting quydagi tushunchalarni qamrab olgan.



### 1.1-rasm. Zamonaviy anderrayting turlari<sup>23</sup>

Ipoteka tizimida ipoteka anderrayterlari amaliyoti mavjud bo'lib, ularning asosiy vazifasi ipoteka oluvchi bilan bog'liq xavfni baholashdan iborat. Ipoteka anderrayterlari ipoteka kreditini olishga davogar subyektlarni uzoq muddat davomidagi moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq jihatlar tahlilini amalga oshirib, ularni ipoteka kreditini qaytarish imkoniyatlari bilan bog'liq keng qamrovli xavf-xatarlarni baholash bo'yicha xulosani shakllantiradi.

Kredit anderrayterlari banklardan beriladigan turli xil kreditlarni qaytmaslik xavfini chuqur ilmiy amaliy tahlil asosida baholash amaliyotini bajaradilar.


<sup>23</sup> Muallif ishlanmasi

Qimmatli qog'ozlar anderrayterlari IPO uchun tegishli narxni aniqlash va investitsiya bilan bog'liq xavf-xatarlarni baholagani uchun ish haqi oladilar.

Sug'urta anderrayterlari sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarni baholash va uning barcha jihatlarini ilmiy amaliy yondashuv orqali ko'rib chiqish hamda xavf-xatarni qabul qilish bo'yicha qaror qabul qiladi.

Sug'urta anderrayterlari tibbiy sug'urtaga xavf-xatarni qabul qilishda o'ziga xos tajribaga ega bo'lishlari shart. Shuningdek mulk va javobgarlik sug'urtasida xavf-xatar bo'yicha mukammal amaliy bilimga va tajribaga ega bo'lishlari kerak.

Anderrayterlarining asosiy maqsadi sug'urta shartnomasining sug'urtalovchi uchun foydali ekanligini aniqlashdan iborat. Sug'urta anderrayterlari sug'urta sharnomalaridagi sug'urta stavkasini belgilaydilar. Shuningdek, sug'urta sharnomalarida franshiza qo'llash bo'yicha amaliyotini bajaradilar.



### 1.2-rasm. Sug'urtada anderraytingning asosiy funksiyalari<sup>24</sup>

Sug'urta anderrayterlaridan xavf-xatarlarni aniqlash baholash va boshqarish bo'yicha bilimga ega, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda to'lovlarni taqdim etadigan yuqori malakali va tajribali mutaxassislar bo'lish talab etiladi.

Sug'urtada anderraytingning asosiy funksiyalari quydagicha:

1. Xavf-xatarni baholash funksiyasi.

<sup>24</sup> Muallif ishlanmasi

2. Sug'urta portfelini shakllantirish va muvozanatini saqlash funksiyasi.
3. Sug'urta shartlarini aniqlashtirish funksiyasi.
4. Sug'urta stavkalarini ma'qul shartlarda qabul qilish funksiyasi.

Sug'urta faoliyatida anderryting xizmati orqali, ya'ni anderryter tomonidan sug'urtaga qabul qilinishi ko'zda tutilgan xavf-xatar kompleks baholanadi.

Obyekt xavf-xatarni baholash, hodisa ro'y berganda zararning sodir bo'lish ehtimollik chastotasi, zararning kutilish omillari umulashtirilib o'rganilishini nazarda tutadi. Anderryting xizmati xavf-xatar sodir bo'lishiga ta'sir qiluvchi barcha omillar belgilangan normalar doirasida sifatli va chuqur o'rganib chiqadi.

Masalan, mulkni sug'urtaga olishda yong'in xavfsizligi tizimining sifati, qo'riqlash uchun talab etiladigan vositalarning mavjudligi inobatga olinadi. Sug'urtada anderryting xizmati orqali xavf-xatar baholanayotganda xavf-xatarining hamma parametrlari kompleks va sifatli o'rganilishi kerak.

Sug'urtada anderryting xizmatining sifati anderryterning bilimi, tajribasi va ko'nikmalariga bevosita bog'liq, shuning uchun anderryterlar sohalarga mos ravishda shakllantirilishi kerak.

Biror-bir sug'urta hodisasini yuz berish ehtimolligi aniq bitta sonda ifodalanmaydi, masalan, ixtiyoriy kasko sug'urtasida 100 ta avtotransport vositasining bir yilda zarar ko'rish ehtimoli 7 tadan 10 tagacha, shundan kelib chiqib, zarar 2 foizdan 4 foizgacha bo'lishi mumkin.

Aktuariylari sug'urta ta'rif stavkasining quyi va yuqori chegaralarini belgilab beradi, shu xulosaga tayangan holda anderryterlar sug'urtaga qabul qilinadigan xavf-xatarni qaysi ta'rif stavkasida, ya'ni ta'rif stavkasini qaysi foiz chegaralarida qabul qilish bo'yicha xulosa chiqarish kerak.

Anderryting xizmati orqali kompleks o'rganilgandan so'ng qabul qilingan risklar sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kompanyalar rentabelligiga hodisalar va to'lovlar bo'yicha berilgan chegirmalar ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi. Shartnomalarning eng muhim sharti franshizaning qo'llanishi hisoblanadi.

Sug'urta franshizasi sug'urta kompaniyasi qoplaydigan zararning bir qismi hisoblanmaydi, sug'urta shartnomasida franshiza to'g'ri qo'llanilsa, sug'urtalovchi ham, sug'urtalanuvchi ham foyda ko'radi. Sug'urta franshizasi orqali sug'urta tashkiloti ma'lum miqdordagi o'rinsiz sug'urta qoplamasidan xalos bo'lishi oqibatida uning daromadiga ijobiy ta'sir yuzaga keladi.

Shartnomada franshizani qo'llash sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi uchun majburiyat yuklaydi. Anderrayterlar qabul qilayotgan risklarning o'rganilishi va boshqarilishi orqali portfel muvozanati tashkil etiladi.

Portfel sug'urta klasslari bo'yicha olingan umumiy javobgarlikdir bo'lib, portfel muvozanati sug'urta kompaniyasi aktivlari va ustav jamg'armasi doirasidagi qabul qilingan javobgarlikka bog'liq.

Anderrayter so'zi, tavakkalchilik miqdori ostida ma'lum mukofotda obyektни qabul qilishga tayyor bo'lgan jarayonlarni kuzatib, baholab yozish amaliyotidan kelib chiqqan ish yurituvch shaxs hisoblanadi.

Anderrayting – moliyaviy tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladigan jismoniy yoki muassasa haq evaziga faolyat yurtuvchi shaxs. Anderrayterlarning quyidagi turlari bor:

- sohaviy (yunalishli) anderrayterlar, bu anderrayterlar, asosan shartnomagacha bo'lgan jarayonlar bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bunday anderrayter asosan kompaniyalar filiallarida va hududiy bo'limlarida ishlaydilar;

- o'rin birligidagi (shtatli) anderrayterlar – rahbar anderrayterlar, ular bosh ofislarda faoliyat yuritadilar;

- sinovli (eksperimental) anderrayter, bu yo'nalishda tajribali mutaxassis tomonidan xorijiy kompaniyalarda har bir anderrayterning tajribasini inobatga olib, tibbiy sug'urtada sodir bo'lgan hodisa hisobga olinadi. Eksperimental anderrayterni ayrim hollarda "spekulyativ (chayqovchi) anderrayter" deb ataladi.

Sug'urta anderraytingida, birinchidan, axborot yetkazib berish, ayrim noaniqliklarni bartaraf etish muhimdir. Insoniyatning bugungi taraqqiyotini tibbiy xizmatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hayot sug'urta tarmog'i jami sug'urtaning qariyb 50 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda.

Bugun dunyoda 8 milliarddan ortiq inson yashayotgan bo'lib, agar, shuning 60 foizida hayot polisi bo'lsa, dunyoda 5 milliarddan ortiq polis kamida 200 millionta hayot sug'urtasi anderrayteri xizmati kerak bo'ladi. Hayot sug'urtasi sohasida anderrayting xizmatining o'rni keng.

O'zbekiston sug'urta bozorida anderrayting xizmatini tashkil etishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- sug'urta qildiruvchining moliyaviy holati;
- boshqa uzaro aloqalar, byudjet, moliya, investitsiya, to'lov, kadrlar bo'yicha;
- anderraytingning daromadliligi va doimiyligi;
- qayta sug'urtadagi jarayonlar;
- bozor konyukturasini;
- yangi xizmatlarni joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish.

Sug'urtada anderrayting xizmati yordamida barcha individual risklar o'rganilib, ulardan kutiladigan zarar va foyda umumlashtirilishi orqali sug'urta tashkilotlarida anderraytingdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Sug'urta risklarini pasaytirish uchun anderrayting tomonidan olib boriladi.

Sug'urta anderrayteri sug'urtaga qabul qilish maqsadida olib borgan kuzatishlaridan aynan sug'urtalanuvchining arizasini o'rganish jarayonida taxminan xavf-xatar darajasini tahlil qiladi. Shu bilan birga yana bir muammo risk darajasining puldagi ifodasini oldindan tahmin qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Sug'urta anderrayteri xavf-xatarni sug'urtaga qabul qilishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- sug'urtaning turiga e'tibor qaratadi;
- javobgarlik uchun alohida belgilar tahlil qiladi;
- mol-mulk bo'yich barcha mezonlar ko'rib chiqadi;
- hayot sug'urtasida tibbiy bo'yicha alohida mezonlar ko'rib chiqiladi;
- uzoq muddatli jamg'arish bo'yicha hayotni sug'urtalash bo'ladi.

Sug'urta turlari uchun ba'zi parametrlar mavjud, bular sug'urta hodisasi yuz berishiga turlicha ta'sir etadi va turli darajada zararni keltirib chiqaradi. Bu

parametrlar aktuar hisoblarda va tarif setkasini belgilashda o'z ifodasini topishi kerak.

Sohada anderraytarning funksiyasi keng aktuariy hisob-kitoblarga bog'liq. Ayrim hollarda tarif setkasi bir tomondan samarali bo'lishi mumkin; bu avtomobillar KASCO sug'urtasida, baxtsiz hodisalardan hamda uy-joylar sug'urtasida amalga oshiriladi. Ayrim qaltisliklar bo'yicha, jumladan, qurilish-montaj ishlarini sug'urtalashda tarif juda past bo'ladi, bunday risklarga maxsus yondoshiladi.

Anderraytarni faoliyatining asosiy natijasi sug'urta portfeli keltiradigan foydasini shakllantirish hisoblanadi, shuning uchun sug'urtada "anderrayting foydasi" degan tushuncha mavjud. Kompanyalar tomonidan mijozlarga to'langan to'lovlar miqdorining sug'urta tashkiloti tomonidan olingan sug'urta mukofotiga nisbati anderrayting foydasini bildiradi. Sug'urta anderrayteri xizmati samaradorligi sug'urta tashkilotining olgan daromadidagi hissasi bilan bog'liq.

Anderrayterlar tomonidan amalga oshirilishi orqali har bir riskka baho berish sug'urta kompaniyasining iqtisodiy faoliyatiga bog'liq bo'lib, bozorga chiqilayotgan sug'urta mahsuloti, avvalo, "Anderrayting markazidan" o'tkazilishi kerak. Sug'urta tashkilotlarida "anderrayting markazini" tashkil etish orqali quyidagi ijobiy natijalar ta'minlanishi mumkin;

- sug'urta xizmatlarini sotish kanallari takomillashib, sug'urtalanuvchilarga sug'urta xizmatlaridan foydalanish osonlashadi, ya'ni o'zlari komfortli xizmat bilan ta'minlanganliklarini sezadilar;

- hujjatni qo'shimcha "ekspertiza" o'tkazish uchun bosh sug'urta ofisiga jo'natish choralari ko'rish bilan og'ir oqibatlariga olib keluvchi risklarning oldini olishga erishiladi.

Sug'urta mahsulotini sotish jarayonida turli muammolar yuzaga keladi. Sug'urta xizmatlarini sotish maqsadida menejer va agentlar sug'urtaga hamma xavf-xatarlarni qabul qilishi mumkin, ularning orasida zarar keltiradiganlari ham bo'ladi. Aynan anderrayter shunday zarar keltiradigan xavf-xatarlarni sug'urtalashga qabul qilishni to'xtatish xususiyatiga ega.

Sug'urtalashda anderraytingning maqsadi sug'urta kompaniyasida har qanday ko'rilishi ehtimoli bo'lgan zararlarning oldini olish, agar anderrayter o'z ishini yaxshi bajarsa, zarar ko'rish koeffitsiyentini pasaytirishdan iborat.

Agar anderrayter hamma sug'urtalanuvchilarning arizalarini qaytarsa, u holda anderrayter xatosi tufayli foydali ishdan mosuvo bo'lish ehtimoli yuqori, bu borada anderrayter barcha ehtiyot choralarini qollab, sug'urta xatarlarini pasaytirishi ishning samarali bo'lishiga olib keladi.

Anderrayterning moliyaviy funksiyasi zarar bo'yicha arizani qabul qilishda kompaniyaning eng yuqori kutilayotgan zarariga yaqin bo'lishini ta'minlashi orqali ikki tomon orasidagi nizoning oldini oluvchi bo'lishi mumkin.

Anderrayter biladiki, sug'urtalanishni so'rab ariza beruvchilar soni qancha ko'paysa, sug'urta kompaniyasining foyda olish ehtimoli yuqori bo'ladi. Anderrayting o'z maqsadiga erishishi uchun sug'urtachilar sug'urta risklarini tanlab olishda alohida tanlov o'tkazilishi, minimal darajada sug'urtalanuvchilarning risklarini o'rganib, prognozlab, keyin sug'urta shartnomalarini imzolashlari zarur.

Tajribali anderrayterlar o'z intuitsiyalariga tayanib, avariylar, yong'inlar va turli baxtsiz hodisalarni oldindan prognoz qilib, uning oldini olish choralarini ko'rish to'g'risida sug'urtalanuvchilarni ogohlantirdilar. Davr o'tishi bilan anderrayterlar o'z tajribalariga suyanib, risklarning turlarini aniqlash bo'yicha, risklarni pasaytirish bo'yicha qo'llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqadilar.

1725-yili "London Assurance" kompaniyasi professional anderrayting sohasida, kompaniya direktori o'z agentlariga topshiriq berib aytdiki, "Sizlar bilingki, insonlar holatini sug'urtalash talab qilinadimi", agar talab bo'lmasa, fuqarolarning sog'lig'i biz o'ylaganimizdan ham yomondir. Shu asnoda anderrayting tizimiga asos solingan.

Ayni vaqtga qadar anderrayting vazifasini aktuariylar bajarar edi, tajriba, statistik metodlar, hisoblar uchun o'lim ko'rsatkichlarini ro'yxatga olish ishlari olib borilar edi. Risklarni kamaytirish bilan shifokorlar shug'ullanib, aktuariylar medisinaga taalluqli bo'lmagan omillarni o'rganish bilan shug'ullangan, masalan, xavfli sohadagi ishlovchilarni nazorat qilish bilan shug'ullanganlar.



1919-yili A.X.Xanter va X.Rodjers aktuariy va shifoxona direktori Nyu-yorkda hayot sug'urtasi uchun sanoqli reyting tizimini joriy qilganlar.

Kishilarning qaysi kasallikdan qancha vaqt davomida o'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar asosida o'lim setkasini yaratganlar. O'limga ijobiy ta'sirni kredit deb, o'limga salbiy ta'sir etuvchi kasalliklarni debet deb ataganlar. Shu hisoblar asosida sug'urtachilarga standartlashtirilgan hisoblash metodini taqdim etilgan.

Sug'urta anderrayterlari kishilar sog'lig'ini o'rganishda ularning ahvolidagi o'zgaruvchlik jihatlarida kattagina farq mavjudligi va bu farq yillar davomida ijobiy yoki salbiy bo'lishini anglashlari lozim.

Sug'urta anderrayteri hayotini ma'lum muddatga o'limdan sug'urtalayotgan shaxs bilan bog'liq xavf-xatarlarni aniqlashlari, o'rganishlari va baholashlari zarur. Sug'urta anderrayteri hayot sug'urtasida juda ko'p xavf-xatarlarni sug'urtalanuvchi va uning hujjatlari hamda boshqa tibbiy tizimlar orqali o'rganishi mumkin.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi kengayishida sug'urta anderrayting tizimining o'rni sezilarli bo'lib, sug'urta anderrayting xizmati orqali sug'urtaga qabul qilinayotgan javobgarlikni professional boshqarish mumkin.

Mamlakatimizda anderrayting xizmati faoliyatini kengaytirish maqsadida davlat tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Agar sug'urta anderrayting xizmati faollashsa, sug'urta tashkilotlarining zararlilik ko'rsatkichlari pasayadi va sug'urta tashkilotlarining kapitallashuvi oshib, ularning investisiya faoliyati orqali oladigan daromadlari ko'payib boradi.

Sug'urta tashkilotlariga samarali anderrayting xizmatini kirib kelishi natijada sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadlar hajmi ortadi, bu tashkilotlarning to'lovga qobillik ko'rsatkichini oshiradi.

O'zbekistonlik olim D.Qarshiyev o'z ilmiy maqolasida sug'urta anderrayting tizimini takomillashtirish bo'yicha "Sug'urta faoliyatida anderrayting xizmatining asosiy vazifalaridan biri daromadli sug'urta portfelini muvozanatli boshqarish hisoblanib, sug'urta portfeli sug'urta kompaniyasi faoliyati doirasidagi sug'urta klasslari bo'yicha olingan umumiy majburiyat hisoblanadi" degan fikrlarni bildirgan.

Anderrayter qaysi sug'urta turi yoki klassi bo'yicha javobgarlikni kamaytirish yoki ko'paytirish haqidagi qarorni qabul qilishi hamda vositachilariga beriladigan mukofotlarni belgilab berish orqali sug'urta tashkiloti faoliyati amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi subyekt bo'lib, uning qarori sug'urta tashkilotining moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'rganishlar ko'rsatadiki, O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirishda sug'urta anderrayterlari sonini mumkin qadar oshirib borish zarur"<sup>25</sup>.

Ilmiy tadqiqotda respublikamizda anderrayting tizimini isloh qilish sekin bolayotganligi ta'kidlangan. Agar bozor infratuzilmasi subyekti sifatida sug'urta anderrayting xizmatining huquqiy asoslari kengaytirilsa, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi oshishiga ijobiy ta'sir seziladi.

### **1.3-§. Sug'urtaga xavf-xatarni qabul qilishda anderrayting xizmatining o'rni**

Anderrayting zamonaviy sug'urta bozorining rivoji va amaliyotida o'ziga xos o'rni shakllanib va rivojlanib bormoqda. Sug'urta anderrayterlari sug'urta faoliyatini tashkil etishda xizmat qiluvchi boshqa subyektlarga nisbatan murakkabroq xizmatni olib borishlari uchun ularga nisbatan ko'proq ish haqi berilishini amaliyot ko'rsatmoqda. Sug'urta anderrayting xizmati sug'urta tashkilotlarini muvafaqqiyatga etaklovchi kuch hisoblanadi.

Sug'urta faoliyatini yuritishda anderrayting siyosatini amalga oshirishda izlanish muammosi maqsadlarini aniq belgilash muhimdir. Sug'urta anderrayterlari sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarni kompleks o'rganish bilan bir qatorda shartnoma muddati davomida uni nazorat qilish bo'yicha faoliyat olib boradilar.

Sug'urta insoniyat hayotining muhim qismi hisoblanib, anderrayting jarayoni inson hayotini yoki mol-mulkini sug'urta qilish uchun undagi xavf-xatarni o'rganishda nomoyon bo'ladi. Xavf-xatarni baholashda zararning maksimal miqdori va sug'urta da'vosining eng yuqori miqdori muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi.

---

<sup>25</sup> Qarshiyev D. Anderrayting xizmatining AQSh sug'urta bozorida tutgan o'rni. – 2024.

Sug'urta anderrayterining asosiy maqsadi sug'urta tashkilotining aktivlari va javobgarlik chegarasidan ortiq tavakkalchilikka bormasligini ta'minlashdir.

Sug'urta anderrayteri sug'urta tashkilotining moliyaviy ko'rsatkichlariga mos holda sug'urta mukofotlari portfelini shakllantiradi.

Sug'urta mukofotlar portfelining muvozanatini saqlashda prudensial meyorlarga asoslanadi. Sug'urta anderrayterlari anderrayting jarayonini sug'urta qonunchiligida belgilangan talab va tamoyillarga muvofiq tashkil qiladilar. Shuningdek, sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilgan holda ularning kamsitilishiga qarshi meyorlarga tayanib, anderrayting siyosatini tashkil etadilar.

Sug'urta anderrayting xizmatining shaffofligini ta'minlash sug'urtalanuvchilarning sug'urta xizmatlariga ishonchi yanada oshishiga xizmat qiladi. Sug'urta anderrayting xizmatini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish orqali anderrayting xizmati xarajatlari kamayadi va anderrayting jarayoni osonlashadi. Sug'urta anderrayterlari sug'urtalovchi nomidan sug'urtalanuvchilar bilan munosobatlarga kirishishi va sug'urtalanuvchilarda sug'urta madaniyati shakllanishiga xizmat qiladi.

Sug'urta anderrayterlari anderrayting jarayonini tashkil etishda turli xil vositalardan foydalanadilar. Ulardan biri bu sug'urta aktuariylari tomonidan berilgan ma'lumotlar va jadvallar hisoblanadi. Shuningdek xavf-xatarlarni baholash dasturlari va sug'urtalanuvchilar bilan bog'liq da'vo ma'lumotlariga asoslangan.

Sug'urta faoliyatini tashkil etilishida anderrayting tizimining ahamiyatini sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi va sug'urtavositachilari doirasida ko'rilganda qator fikrlar yuzaga keladi.

Sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkiloti nuqtayi nazaridan sug'urta anderrayting xizmati xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarishga yordam beradi. Sug'urtalanuvchi mijoz nuqtayi nazaridan qarasak, sug'urta anderraytingi sug'urtalanuvchining ehtiyojlarini sug'urta bozoridagi talab va taklif qonuniyatiga moslashtirib, unga ma'qul keluvchi sug'urta qoplamasini olishni ta'minaydi.

Sug'urtavositachilari nuqtayi nazaridan olib qarasak, anderrayting xizmati sug'urtavositachilarning qisman noroziligiga sabab bo'ladi, chunki tashkilotga

potensial mijozlarni jalb etish orqali vositachilik haqiga ega bo'ladi. Amaliyotda sug'urta anderrayterlari sug'urta vositachilari jalb etgan barcha mijozlarni birdek sug'urtaga qabul qilmaydi. Bu jarayon o'z-o'zidan sug'urta vositachilarining moliyaviy ta'minoti uchun salbiy bo'ladi.

Anderrayterlar sug'urtalanuvchilarga ta'rif narxlarini belgilashda ular tomonidan javobgarlikka berilayotgan sug'urta xavf-xatarlari darajasiga e'tibor qaratadi, yuqori xavf-xatarli obyektlar ortidan katta da'volar kelishi mumkinligidan kelib chiqib, ularga yuqori ta'rif stavkalar belgilanadi. Sug'urtalanayotgan obyekt pastroq xavf-xatarga ega bo'lsa, unga nisbatan sug'urta ta'rif stavkalari pastroq belgilanadi.

Sug'urta anderrayting xizmati to'lanadigan yo'qotishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish orqali ularning kamaytirishga sabab bo'ladi. Sug'urtalangan obyektlar o'zgarishlarni monitoring qilish orqali ehtimoliy xavf-xatarlar aniqlanadi va ularning oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirilib, sug'urta tashkilotiga keladigan yo'qotishlarni kamaytirish mumkin.

Jahon amaliyotida sug'urta anderraytingining bir qancha vazifalari mavjud bo'lib, ular quyidagicha ko'rinishga ega:

- sug'urta obyektini baholash (anderrayterlar ariza beruvchining, ayniqsa hayot sug'urtasida mijozning yoshi, kasallik tarixi, irsiy kasalliklari va salomatlik darajasi bilan bog'liq vaziyati singari nozik jihatlarni hisobga olish bilan bog'liq risklarni baholaydi);

- shaffof va aniq ma'lumotlarga asoslanib, sug'urtaga qabul qilish bo'yicha qaror chiqarish, anderrayterning juda ko'p ma'lumotlarni qayta ishlash evaziga sug'urtalanayotgan obyektga nisbatan qabul qilish bo'yicha qarori sug'urta tashkiloti uchun ijobiy bo'lishi kerak;

- sug'urta portfeli muvozanatini saqlash, faoliyatni tashkil etishda daromad olish uchun yetarli bo'lgan xavf-xatarlarni qabul qilishga harakat qilib, o'ta yuqori xavf-xatarlardan uzoqlashish orqali muvozanatli sug'urta portfelini shakllantirib borishi kerak, bu vazifa aynan sug'urta anderrayterlari tomonidan bajarilishi belgilangan;

•sug'urta anderrayting xizmatini meyoriy-huquqiy hujjatlarga mos holda tashkil etish.

Sug'urta faoliyati takomillashib borgani sari u bilan bog'liq faoliyatlar va xizmatlar ham takomillashuvi zaruriy holat hisoblanadi. Sug'urtada anderrayting xizmati xavf-xatarni qabul qilish bilan tugamaydi, aksincha shartnomaning amal qilish davrida sug'urtalanuvchining xatti-harakatlari va obyektga ta'sir etuvchi barcha omillar kuzatib borilishi kerak. So'nggi yillarda kiberxavfsizlik bilan bog'liq sug'urta obyektlarini sug'urtalashda kiberxavfsizlik bilan bog'liq barcha o'zgarishlarga qaytadan moslashish kerak bo'lmoqda, aynan ushbu jarayon sug'urta anderrayterlaridan yanada ko'proq mehnat talab etadi.

Sug'urta anderrayteri sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida adolatli narx belgilovchi subyekt hisoblanishi kerak. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi ham anderrayterining profesional xizmati tufayli naf oladi. Ular o'rtasida ziddiyatni kamaytirish ham bevosita sug'urta anderrayting tizimi takomillashuviga bog'liq. Sug'urta anderrayterining harakati tufayli sug'urtalanuvchi oladigan sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchini qanoatlantirishi zarur.

Anderrayterlari xavf-xatarga darajasiga ko'ra obyektни sug'urtalashdan uzoqlashish orqali sug'urta tashkilotini katta miqdordagi to'lovlardan saqlanib, tashkilotda yo'qotishning oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etishi kerak. Sug'urta anderrayteri sug'urtalangan obyekt bo'yicha doimiy kuzatuv monitoringini tashkil etish orqali sug'urta tashkilotlarining xarajatlarini kamaytirishga erishadi.

Sug'urta anderrayteri sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlarni kompleks o'rganish natijasida ularni qayta sug'urtaga yo'naltirish bo'yicha taklif berish orqali sug'urta portfeli muvozanatini tiklaydi. Qayta sug'urtalashda sug'urta anderrayteri sug'urta shartnomasini hamma parametrlarini belgilaydi.

Sug'urta faoliyatini tashkil etilishda anderrayting xizmati orqali kuzatish, eksperiment va so'rov kabi uslublar qo'llaniladi. Sug'urtada anderrayting xizmati rejasini ishlab chiqish uslubiy jihatdan quyidagicha ifodalanadi;

- qaysi turdagi ma'lumotlarni yig'ish zarur?
- ma'lumotlar kim tomonidan to'planishi shart?

- ma'lumotlarda kim va nimani izlash kerak?
- ma'lumotni yig'ishda qanday uslublar bo'lishi lozim?
- ma'lumot qanday shaklda va muddatlarda kiritilishi kerak?
- qaysi vaqtda va qayerda ma'lumotlarni to'plash kerak?

Bu savollarga javob topish asosida andarrayting xizmati rejasining izchilligi mazmuni va mantiqan bog'liqligi ta'minlanadi. Bu, o'z navbatida, andarrayting xizmatining keyingi bosqichlarida salbiy xatolar kelib chiqishiga yo'l bermaydi.

Ma'lumotlarni to'plash bosqichi ancha qyuin va sug'urtaga qabul qilinayotgan obyekt bo'yicha ishonchli ma'lumotlar, avvalo, sug'urtalanuvchining o'zidan keyin esa qo'shimcha ma'lumotlar olinishi mumkin bo'lgan kanallar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlar qaror qabul qilishda asosiy omil hisoblanadi.

Sug'urta obyektini qabul qilishda andarrayting uchun sug'urta obyektini bilan bog'liq ma'lumotlar imkon boricha qisqa, lekin aniq hamda tezlik bilan taqdim etilishi keyingi jarayonlar amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Sug'urta faoliyatini yuritishda eng muhim vositalardan biri andarrayter xizmati hisoblanadi. Kompanyalar xizmatlarining sotilishini rag'batlantirish, ommaviy axborot vositalari va sug'urta bozoridagi raqobat asosida maxsus hamda murakkab sug'urta tariflari bilan ishlash andarrayterning vazifalari hisoblanadi.

Sug'urta andarrayting xizmatida xavf-xatarlar statistik, analitik, va kombinatsiyalangan usullar orqali o'rganiladi.

Statistik usulda tizimdagi boshqa sug'urta kompaniyalarining bir necha yillik hodisalar va ular natijasida hosil bo'lgan talofatlari o'rganib chiqiladi.

Analitik usul iqtisodiy-matematik usullar, hodisaning ro'y berish bilan bog'liq ehtimollar nazariyasidagi modellar yordamida sug'urta tavakkalchiligi darajasiga baho beriladi. Kombinatsiyalashtirilgan usul to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan barcha usullarni yoki ulardan bir nechtasini qo'llash orqali bajariladi, amaliyotda kutiladigan va jiddiy zarar tug'diradigan 10 ta xavfli darajasi mavjud.

Bunday xatarlar zarar miqdori kompanyalarning haqiqiy erishadigan sof foydasi miqdoridan oshib ketmasligi kerak. Ya'ni zarar miqdori  $\leq$  sof foyda bo'ladi.

Jiddiy zarar keltirib chiqaradigan risklardan ko‘rilgan zarar miqdori kompaniyaning sof daromadidan yuqori, lekin joriy likvidlikni ta‘minlovchi aktivlar qiymatidan oshib ketmasligi zarur. Sof foyda < zarar miqdori ≤ joriy mavjud aktivlar.

O‘ta xavfli risklar darajasida ko‘rilgan zararlar korxonaning joriy likvidligini ta‘minlovchi aktivlar qiymatidan oshib xususiy qiymatiga tenglashishi ham mumkin. O‘ta xavfli risklar oqibatida sug‘urta kompaniyasi bankrotlikka uchrash ehtimoli vujudga keladi. Joriy likvidli aktivlar < zarar miqdori ≤ xususiy kapital.

Ko‘riladigan zarar hajmi kompaniyaning xususiy kapitalidan ortib ketganda (zarar miqdori > xususiy kapital) sug‘urta kompaniyasi to‘lovga qobilligini yo‘qotadi va so‘zsiz bankrot deb e‘lon qilinadi. Risklarni baholashda andarrayting koeffitsiyentlardan foydalanishi mumkin. Sof foydaga, joriy likvidli mablag‘larga va xususiy kapitalga nisbatan risk koeffitsiyentlarini hisoblash mumkin.

$$K_{sf} = ZM/SF, K_{jlm} = ZM/JLM, K_{xk} = ZM/XK$$

Andarraytingda sug‘urta xavf-xatarlariga ta‘sir qiluvchi omillar batafsil o‘rganiladi, xavf-xatarlarini kamaytirish quyidagilardan iborat:

- xavf-xatarlarning sodir bo‘lishi yzasidan hisob-kitob qilish;
- risk va qaltisliklar ta‘sirini kamaytirish hamda oldini olish choralarini ko‘rish.

Sug‘urta andarrayterlari Sug‘urtaga qabul qilinayotgan har bir xavf-xatar ortidan qanday zarar kelishi mumkinligini kompleks o‘rganib chiqishlari kerak. Sug‘urta andarrayterlari xavf-xatarlarni kamaytirish yo‘nalishlarini belgilashda quyidagi omillarga asosiy e‘tiborni qaratishlari lozim.

Agar Sug‘urtalanuvchi muqarrar ravishda risklar bilan bog‘langan bo‘lsa, riskni chetlab o‘tish imkoniyati bo‘lmaydi. Bir turdagi risklardan qochish ikkinchi turdagi risklarga duch kelish mumkin.

Risklarning ko‘lami qancha yuqori bo‘lsa, ko‘rilayotgan foyda miqdori ham shuncha yirik bo‘ladi. Risklarni kamaytirishda sug‘urtaga uning ta‘sirini o‘ziga olishi yoki taqsimlash yoki boshqalarga o‘tkazishi zarurdir.

Anderrayting samaradorligida sarflanayotgan xarajatlar hamda moliyaviy natijalar hisobga olinishi muhim omildir, bunda quyidagilar umumiy moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi:

- anderraytingning xarajatlari, sug'urta to'lovlari va ishlab topilgan mukofotlar;
- daromad va sug'urta rezervlarini investitsiya qilish;
- sug'urtalash jarayonlaridan keladigan sug'urta to'lovlari summasi natijasi va daromad investitsiyalashdan kelgan daromadiga bo'linishi mumkin. Har bir sug'urta kompaniyasi, avvalo, foyda olish uchun tashkil etiladi, har bir sug'urta kompaniyasini ta'sis etuvchilar yuqorida ko'rsatilgan uch omildan manfaatdor bo'lishlari va ma'lum natijaga ega bo'lishlari kerak.

Sug'urta anderrayterlari ayniqsa sug'urta polislarining qonunda ko'rsatilgan qoidalarga to'g'ri kelishini nazorat qilishi:

1. Sug'urta polisining kompaniyada tasdiqlangan umumiy shakliga mosligi.
2. Yuridik manzili, bank rekviziti sug'urtaga tegishligi;
3. Sug'urtalanuvchining familiyasi, ismi, otasini ismi, manzili yoziladi.
4. Sug'urtalangan obyekt.
5. Sug'urtalangan summa miqdori.

Sug'urta anderrayting tizimi e'tiborida va anderrayteri nazoratida bo'ladigan hamda sug'urta kompaniyasi gohida katta xarajatlar sarflashdan himoya qiluvchi omillardan biri aslida sug'urta franshizasi hisoblanadi. Franshiza – sug'urtachini ayrim zararlarni qoplashdan qonuniy tarzda himoya qiluvchi omil yoki kompaniya ayrim qismdagi ko'rilgan zararni qoplash miqdorini belgilaydi.

Sug'urta kompaniyasiga keltirilayotgan zararlarni boshqarishda anderrayterning ham hissasi bo'lishi obyektiv zaruriyatdir. Chunki sug'urta riski darajasini baholab, keyin sug'urta shartnomasini imzolaganligi tufayli kelayotgan zararlarni ham quyidagi printsipga asosan boshqarish kerak.

1. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz bergandan keyin tushgan arizani ko'rib chiqishi muhim hisoblanadi.
2. Sug'urtalanuvchilarga nisbatan loyal munosabatni saqlab qolish.



3. Sug'urta hodisasining haqiqiy faktlarini sinchiklab tekshirish.

Sug'urta hodisasida huquqiy normalarda tartibga solib boriladi. Jumladan, sug'urta qoidalariga amal qilish, polis, shartnoma shartlariga rioya qilish hamda andarrayting ko'rsatmalariga itoat etish.

Ko'rilgan zararni boshqarishda asosan:

1. Ko'rilgan zararni tasdiqlaydigan hujjatlarni olish.
2. Hujjatlarni ikki tomonlama shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida qabul qilish.
3. Bildirilgan norozoliklar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish.
4. Zararni qabul qilish yoki rad etish.
5. To'lovlarni ta'minlash.
6. Zararni to'lash bo'yicha dalolatnoma tuzish, hujjatlarni to'lov uchun yoki rad etish uchun tayyorlash.
7. Sug'urta zarari bo'yicha to'lovni sug'urtalanuvchiga to'lash.

Davolarni ko'rib chiqish bo'limiga kelib tushgan hujjatlarning originalini sug'urtalanuvchiga qaytarish lozim, balki ularning nusxasi olib qolinadi. Bularga rentgen snimkalari, ambulatoriya kartalari, boshqa shaxsiy hujjatlarni egasiga qaytarish sug'urtalanuvchining qonuniy talabidir. Sug'urta faoliyatini tashkil etishda xizmat qiluvchi subyektlar sifatida Sug'urta aktuariylari, Sug'urta andarrayterlari va risk menedjerlari faoliyati yaqin.

Sug'urtada xatarlarni kamaytirish strategiyalari risk menejerlari tomonidan ishlab chiqilishida sug'urta andarrayting xizmati ma'lumotlaridan keng foydalaniladi.

Risk menejerlari potensial xavf-xatarni aniqlab, javobgarlik bilan bog'liq xavf-xatarlarni kamaytirish choralarini ishlab chiqadi.

Umuman, sug'urta andarrayterlari sug'urta faoliyati tashkil etilishida asosiy faoliyatni yuritadilar, shunga mos ish haqi bilan ta'minlangan. Fransiyada sug'urta andarrayterlari o'z faoliyati uchun yillik o'rtacha 50 mingdan 65 ming yevro atrofida ish haqiga ega.

Risklarini baholash, mijoz ehtiyojini qondirish va biznesning rentabelligini ta'minlash o'rtasida muvozanatni topish anderrayterlarning vazifasidir. Kompaniyalarda anderrayterning xizmati risklarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali mijoz talabi va biznes jarayoni foydasi o'rtasida muvozanatni o'z ichiga oladi<sup>26</sup>.

Sug'urta anderrayting xizmatlari orqali sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlar to'liq aniqlanadi, baholanadi va boshqariladi. Sug'urta anderrayting tizimi sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlarni keng miqyosda monitoringini yuritadi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Tadqiqotning mazkur bobida anderrayting xizmatining mohiyati, vazifalari va rivojlanish bosqichlarini yuzasidan tahlillar qilingan. Ilmiy izlanishlarimiz asosida anderrayterlarning sug'urtaga qabul qilinishi bo'yicha hamda sug'urtavositachilari olib kelgan obyektlarini to'liq o'rganib va baholab, sug'urtaga qabul qilish yoki qilmaslik uchun xulosalarni chiqaruvchi shaxslar ekanligi ma'lum bo'ldi.

Anderrayting xizmatlari orqali sug'urtaga olinayotgan obyektlar kompleks tahlil qilinib, shartnomaning tuzilishi va uning sug'urtasi amalda bo'lgan davrda to'liq monitoringini o'tkazishi o'rganildi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, insonlar mulklarini, hayotini, tadbirkorlik faoliyatini mavjud xavf-xatarlardan himoyalashga katta ehtiyoj sezmoqda va ular bu vaziyatlardan himoyalanishga kafolat izlamoqdalar.

Ular izlagan himoya va kafolatni sug'urta xizmatlaridan kutmoqdalar, ya'ni sug'urta tashkilotlari ko'rsata olishini inobatga olib, murojaatlar etmoqdalar, natijada soha xizmatlariga talab ortib bormoqda.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida anderrayting tushunchasi keng yoritib berilgan, mazmuni va mohiyati o'rganilgan, rivojlanishiga talab kuchayib berayotganligi asoslab, ma'lumotlar bilan tasdiqlab berilgan.

---

<sup>26</sup> <https://www.mapfre.com/en/insights/insurance/risk-underwriter-customer-business-profitability>.

Xalqaro sug'urta tajribasida risklarni baholashda anderraytingning quyidagi asosiy turidan foydalanishni O'zbekistonda qo'llashni tavsiya etdik, xususan:

- sug'urta tizimida anderraytingni qo'llash;
- ssuda sohasida anderraytingdan foydalanish;
- qimmatli qog'ozlar sohasida anderraytingni qo'llash;
- ko'chmas mulk sohasida anderraytingni qo'llashdan iborat.

## **II bob. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA ANDERRAYTING XIZMATINING JORIY HOLATI TAHLILI**

### **2.1-§. O‘zbekiston sug‘urta bozorida anderrayting xizmatining joriy holati**

Sug‘urta bozorida tuzilgan shartnoma ishtirokchilari o‘rtasidagi oldi-sotdi jarayonida hosil bo‘luvchi munosabatlar majmuidir. Dastlabki sug‘urta bozorida ishtirokchilar zamonaviy sug‘urta bozoriga nisbatan kam bo‘lgan. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotiga mos holda sug‘urta sohasi ham rivojlanib bormoqda.

Zamonaviy sug‘urta bozori va sobiq sug‘urta bozori o‘rtasida anchagina tafovut mavjud. Zamonaviy sug‘urta bozori ishtirokchilari va ularning vazifalari jamiyatdagi murakkab xavf-xatarlarga moslashgan holatda kengayib bormoqda.


Bozordagi talab insoniyat yashash tarzini rivojiga moslashadi. Yaqin tarixga nazar tashlasak, XX asrning 20-yillaridagi mahsulotlar hozirgi kundagi mahsulotlarga nisbatan farq mavjud, ya’ni xatarlar shakli ko‘paymoqda va shunga mos ravishda mahsulotlar ishlab chiqilmoqda.

Sug‘urta bozorida bir tomondan, sug‘urta xizmatlari taklifi bilan sug‘urta tashkilotlari qatnashadi, ikkinchi tomonda sug‘urtalanuvchilar va sug‘urtalovchilarning manfaatlarini kesishishiga xizmat ko‘rsatib, daromad oluvchi ishtirokchilar qatnashadi.

So‘nggi 2022-yil va 2023-yillarda mamlakatimizda 41 ta sug‘urta tashkiloti xizmat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 31 tasi umumiy va 7 tasi hayot sug‘urtasi tarmog‘idir. Ular ham faol ishtirokchilar emas. Bozorda 7 ta kompaniyaning sug‘urta mukofoti ulushi, hatto 1 foizni ham tashkil etmaydi.

Sug‘urta ta’rifining aniqligi sifatli aktuar hisoblar bilan shakllantirilishi lozim, lekin amaliyotda kompanyalarning bozordagi ulushini oshirish istagi yuqoriligi bilan sug‘urta ta’riflari yetarli darajada aktuar hisoblar orqali shakllanmayapti. Respublikamizda sug‘urta ta’rif stavkalarining pastligi sug‘urta bozorining “yumshoq” ekanligini anglatadi.

Andarrayting tizimining bozorga ta'sirini o'rganish maqsadida, mamlakatimiz sug'urta bozorida so'nggi yillarda yig'ilayotgan sug'urta mukofoti, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, amalga oshirilgan to'lovlari singari ko'rsatkichlarda sug'urta andarrayting tizimining o'rnini tahlil qilamiz.




### 2.3-rasm. O'zbekistondagi yalpi mukofotlar hajmi ko'rsatkichlari<sup>27</sup>

Respublikamizda mustaqillikning ilk yillaridan sug'urta sohasini takomillashtirish yuzasidan faollik syosat yuritila boshladi. Mamlakatimiz sug'urta bozorida 1991-yildan 2010-yillarga qadar davlat ulushi yuqori bo'lgan milliy sug'urta tashkilotlari faoliyat yuritganligini ko'ramiz. Jumladan, 2010-yilda kompaniyalar soni ko'payib, ular orasida turli mulk shakldagilar soni hamda ushbu yildan boshlab, milliy sug'urta bozorida yalpi sug'urta mukofotlari va sug'urta bozorida sug'urtalanuvchilarning real ehtiyojlari yanada oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining olib borayotgan islohotlari hisobiga sohada ijobiy va katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan sug'urta bozorida muhim ko'rsatkichlardan biri mamlakat yalpi ichki mahsulotida yalpi sug'urta mukofotlari ulushining asta-sekinlik bilan oshayotganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>27</sup> Оценка отраслевых и страновых рисков страхового сектора: сектор общего страхования Республики Узбекистан. URL: <https://www.uzdaily.uz/ru/post/57022>



**2.4-rasm. O‘zbekistonda sug‘urta mukofotining mamlakat YaIMdagi ulushi (%)<sup>28</sup>**

Anderrayterlar faol xizmatlari evaziga 2014-yildan boshlab yalpi sug‘urta mukofotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hajmi uzluksiz ravishda o‘shib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz sug‘urta bozorida 2022-yilda 6,2 trln.so‘m mukofot yig‘ilib, uning 68 foizi ixtiyoriy sug‘urta turlari orqali yig‘ilgan va bu, o‘z navbatida, sug‘urta anderrayting xizmati hissasini ham bildiradi.

Mamlakatimiz sug‘urta bozorida 2023-yil yakunlariga ko‘ra 8,1 trillion so‘mlik jami sug‘urta mukofotlari yig‘ilib, uning 88 foizini ixtiyoriy sug‘urta turlari tashkil etgan. Bunday ko‘rsatkichning oshishida sug‘urta anderrayting xizmatlarini ulushi yuqori.

2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotida jami sug‘urta mukofoti hajmi 0,7 foizini tashkil etadi. Mamlakatimizda sug‘urtani rivojlantirish yo‘li bilan kelgusida respublika YIM (yalpi ichki mahsuloti)da sug‘urta mukofotlari ulushini 2 foizga yetkazish vazifasi belgilangan, bu rejagani ta‘minlash uchun tegishli amaliy tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

<sup>28</sup> imda.uz sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

O‘zbekiston aholisining daromadlari yuqori emas, shuning uchun bu masalani Hindiston va Xitoy davlatlari tajribasidagi “kichik sug‘urtalash” ko‘rinishidagi sug‘urtani amaliyotga qo‘llash lozim bo‘lmoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning sog‘liqni saqlash sohasida davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etish yuzasidan 2020-yil 12-dekabrda 4890-sonli qarori qabul qilingan, ushbu qaror bilan majburiy tibbiy sug‘urta shakllantirilmoqda.


Kelajakda davlat tibbiy sug‘urta xorijiy davlatlar amaliyotida shakllanganidek, rivoj topishi mamlakatda katta sug‘urta bozori tashkil etilishiga sabab bo‘lib, sug‘urta mukofotlari ulushini oshirish imkoniyati ochilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonga mos andarrayting xizmatini amaliyotga joriy etish va sohani takomillashtirish talab etiladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sezilarli o‘rin egallab turgan sug‘urta bozori infratuzilmasi takomillashgan va ularda andarrayting xizmati tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan hamda bozorda yig‘ilayotgan sug‘urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ancha yuqori.

O‘zbekiston Sug‘urta bozori ko‘rsatkichlarini 2020-2022-yillarda boshqa mamlakatlar sug‘urta bozorlari ko‘rsatkichlari bilan solishtirsak, Misr va Nigeriya mamlakatlari ko‘rsatkichi bilan yaqin ekanligini ko‘rish mumkin. Rivojlangan malakatlarda so‘nggi uch yillik yalpi sug‘urta mukofoti hajmining yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni pasayish tendentsiyasiga ega ekanligini ko‘ramiz. Masalan, bu ko‘rsatkishlar AQShda 12 %dan 11 % ga tushganligi, Xitoyda 4,5 %dan 3,9 %ga tushgan, umuman, dunyodagi global o‘zgarishlar va murakkablashayotgan siyosiy jarayonlar ta’siri ostida butun dunyo bo‘ylab xizmatlar hajmi oshmoqda.

Shuningdek, mashhur tarixiy-siyosiy voqea qutblar jangi bo‘lmish Rossiya va AQSh (Ukraina) harbiy mojarolari oqibatida Rossiya sug‘urta bozoridagi yalpi sug‘urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020-yilda 1,4 %ga, 2021-yilda 1,3 % ga va bu ko‘rstkich 2022-yilda 0.9 % ga teng bo‘lgan.



**2.5-rasm. 2020-yildan 2022-yilgacha dunyo bo‘ylab tanlangan mamlakat va hududlarda hayot va hayotdan tashqari sug‘urtaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi o‘rni<sup>29</sup>**

Professional ishtirokchi tashkilotlarning yig‘ayotgan sug‘urta mukofotlaridan yuzaga kelayotgan sug‘urta portfelini yanada takomillashtirish sug‘urta portfelining diversifikatsiyalashuvini kengaytirishda sug‘urta andarrayterlarining o‘rni sezilarli emas, agar Sug‘urta andarrayterlari mukammal darajada faoliyatini tashkil etsa, mamlakat aholisining asosiy qismida sug‘urtaga ishonch kengayib, ularda sug‘urta xizmatidan naf olish yuqori bo‘la boshlaydi. Shuning uchun sug‘urta andarraytingini sezilarli ravishda kengaytirish zarur.

Sug‘urta ikkita katta tarmoqqa bo‘linib, rivojlangan malakatlarda “life insurance”, “no life insurance” sug‘urta tarmoqlari sifatida rivoj topgan. Bu malakatlarda yig‘ilayotgan yalpi sug‘urta mukofotining asosiy qismi – 60-70 foizi

<sup>29</sup> <https://www.statista.com/statistics/381174/insurance-penetration-in-selected-countries-worldwide/> 2020 yildan 2022 yilgacha butun dunyo bo'ylab tanlangan mamlakatlar va hududlarda hayot va hayotdan tashqari sug'urtaning kirib borishi.




“life insurance”da, 30-40 foizi sug‘urta mukofotlari “no life insurance”da yig‘iladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar evaziga ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda 24 foizi “life insurance” va 76 foizi “no life insurance” yig‘ilgan.

2022-yil yakunida O‘zbekistonda jami yig‘ilgan mukofot aholi jon boshiga bo‘lganda 173 ming so‘mni, ya’ni 15 AQSh dollari atrofida ekanligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich Yevropa davlatlarida 2-2.5 ming AQSh dollarini, boshqa rivojlangan davlatlarda ham kamida 1.5-2 ming AQSh dollari atrofida ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Sug‘urta faoliyatida zarar umumiy miqdorining yalpi mukofot miqdoriga nisbati zarar ko‘rsatish koeffitsiyenti deb ataladi. Mamlakatimizda sug‘urta andarrayting tizimi faolligi oshadigan bo‘lsa, ko‘riladigan zararlar ko‘rsatkichi kamayishiga ta’sir qiladi. Zarar ko‘rsatkichi sug‘urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlarni to‘g‘ri baholash va boshqarishga har tomonlama bog‘liq.

Rivojlangan mamlakatlar sug‘urta bozorida zararlilik koeffitsiyenti 40-50 foizni tashkil etadi.



**2.6-rasm. Umumiy sug‘urtada mukofotining zararlilik koeffitsiyenti dinamikasi (%)<sup>30</sup>**

<sup>30</sup> <https://www.mf.uz/oz> sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekistonda sug‘urta sohasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi orqali ancha rivojlantirildi. Xususan, sohaning huquqiy asoslarini yaratish va sug‘urta andarrayting xizmatining tizimli yuritilishini takomillashtirish ishlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida 1998-yilda zararlilik koeffitsiyenti 38 foiz bo‘lgan, buni ijobiy jihat deyish mumkin. 2006-2016-yillarda zararlilik koeffitsiyenti 14-19 foiz atrofida bo‘lgan, ya’ni bu sug‘urtalovchi javobgarligi uchun olgan mukofotining 20 foizi atrofidagi mablag‘ ko‘rilgan zararlarga yo‘naltirgan.


Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning soha rivoji uchun olib borgan oqilona iqtisodiy islohotlari natijasida Yangi O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2017-2024-yillardagi zararlilik koeffitsiyenti 20-24 foizni tashkil etib, jahon ko‘rsatkichlariga sekin yaqinlashmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida zararlilik koeffitsiyenti oshishi, sug‘urtalanuvchilarning sug‘urta xizmatlaridan foyda olishi hamda sug‘urtalanuvchilarda sohaga ishonch ortadi va mijozlar, ya’ni aholining farovonlik darajasi oshadi. Ya’ni bu andarrayterlar qabul qilayotgan xavf-xatarlarni to‘liq o‘rganish va baholashidan so‘ng sug‘urtaga olish tizimini tashkil etishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Sug‘urta bozorida 2020-yilda sug‘urta mukofotlari 2 213 713,0 mln. so‘mni tashkil etib, bu yilda to‘langan jami sug‘urta qoplamalari 737 587,0 mln so‘m bo‘lib to‘langan qoplamalar qabul qilib olingan mukofotlarning 33.3 foizini tashkil etgan.

2021-yilda Sug‘urta mukofotlari 3 732 845 mln so‘mni tashkil etib, ushbu yilda to‘langan jami Sug‘urta qoplamalari 1 235 061 mln so‘m bo‘lib, to‘langan qoplamalar qabul qilib olingan mukofotlarni 33.1 foizini tashkil etgan.

2022-yilda sug‘urta mukofotlari 6 231 726 mln. so‘mni tashkil etgan, ushbu yilda to‘langan jami sug‘urta qoplamalari 2 596 926 mln so‘m bo‘lib, to‘langan qoplamalar qabul qilib olingan mukofotlarning 41.6 foizini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 53,7 foiz, AQSh, Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida esa 70-90 foizni tashkil etadi.



**2.7- rasm. Jami mukofotlari va jami sSug‘urta qoplamalari hajmi (mamlakatimiz bozori bo‘yicha)<sup>31</sup>**

### **2.2-§. “O‘zbekinvest” sug‘urta kompanyasi ko‘rsatkichlarini ARDL modeli asosida tahlil qilish**

Anderrayting xizmati mijoz sug‘urtasi yuzasidan risklarni baholash, tegishli mukofotlar va qoplamalarni aniqlash jarayoni hisoblanadi<sup>32</sup>. Sug‘urta kompaniyalari anderrayting xizmatlarini doimiy ravishda takomillashtirish orqali nafaqat o‘zlarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki sug‘urtalanuvchilarga yanada sifatli xizmatlar ko‘rsatadi.

Anderrayting xizmatlarini rivojlantirish kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash muhim o‘rin egallaydi.

Tahlillar, ilg‘or texnologiyalar, me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish integratsiyasi va mijozlarga alohida yondashuv orqali kompaniyalarda anderrayting xizmatlarini yanada yaxshilash mumkin.

<sup>31</sup> <https://imda.uz/uz/> Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi 2020-2021-2022 yil hisobotlari.

<sup>32</sup> Soye, Yinka Augustine, and Damola Lukmon Adeyemo. "Underwriting capacity and income of Insurance companies:(a case of Nigeria)." International Journal of Innovative Science and Research Technology 3.10 (2018): 731-738.

Anderraying xizmati afzalligi risk ta'sirini kamaytirish, rentabellikni oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va bozorda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlashdan iborat<sup>33</sup>.

Anderraying xizmatlari kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun moliyaviy risklarni boshqarish, rentabellikni ta'minlash va uzoq muddatli samaradorlikni oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayingni takomillashtirish yuzasidan juda ko'p olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim Devid Kammins sug'urta risklarni boshqarish va sug'urta sohasida yuqori baholangan sug'urta iqtisodiyoti, risklarni modellashtirish va anderraying amaliyotlari<sup>34</sup> bo'yicha olib borgan tadqiqotlari moliya institutlari tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Daen Jan va Mishel Denuit sug'urta tizimida anderraying sohasida aktuar uslubi<sup>35</sup> bo'yicha risklarni modellashtirish va sug'urta matematikasiga doir keng qamrovli tadqiqotlar o'tqazganlar.

Olimlarning tadqiqotlarida sug'urta sohasining moliyaviy barqarorligiga risklarni modellashtirish, anderraying, aktuar hisob-kitoblar, statistik fanlararo yondashuvlar hamda kompaniyalarning anderraying amaliyoti o'rganib chilgan. Ular ilmiy ishlari natijasida aktuariy va anderrayerlar uchun uslubiyotni boyitganlar hamda kompaniyalarga risklarni baholash va boshqarish uchun ko'proq ma'lumotlarni qayta ishlab, to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam berdi.

Xorijlik olim L.Brockett sug'urtada anderraying amaliyoti va risklarni baholash<sup>36</sup> yuzasidan izlanishlarni amalga oshirgan. U tadqiqotlarida anderraying xizmati bilan xavf-xatarlarni, yo'riqnomalarni ishlab chiqish, sug'urta mahsulotlari

---

<sup>33</sup> Acharyya, Madhu. "In measuring the benefits of enterprise risk management in insurance: An integration of economic value added and balanced score card approaches." ERM Monograph (2008): 1-25.

<sup>34</sup> Cummins, J. David. "Statistical and financial models of insurance pricing and the insurance firm." The Journal of Risk and Insurance 58.2 (1991): 261-302.

<sup>35</sup> Dhaene, Jan, et al. "The concept of comonotonicity in actuarial science and finance: theory." Insurance: Mathematics and Economics 31.1 (2002): 3-33.

<sup>36</sup> Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. "Insurance versus self-insurance: A risk management perspective." Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.

va obyektlar bilan bog'liq qaltisliklarni belgilab olish, aktuar hisob-kitoblarni bajarish va bozor omillarini o'rganishda inson ta'sirini baholagan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Dicke va A. Arnold o'z tadqiqotlarida sug'urta iqtisodiyoti va risklarni baholash<sup>37</sup> bo'yicha keng qamrovli ilmiy ishlanmalar bilan sohada anderrayingni rivojlantirish munosib hissalarini qo'shganlar. Ular tadqiqotlarida bozor dinamikasi, narx strategiyasi, jismoniy shaxslar, korxonalar uchun hamda makroiqtisodiy jarayonlariga sug'urtaning ta'sirini matematik va statistik modellar orqali kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ta'minlash uchun xizmat qilishini korsatib berganlar. Bundan tashqari, olimlar sug'urta kompaniyalarida anderraying xizmatlariga ta'sir etuvchi omillarining ko'plab ekonometrik modellarini yaratganlar.

Xususan, Lai, Gene C anderrayingning bir qancha muhim jihatlari va uning sug'urta kompaniyasi faoliyatiga ta'siriga e'tibor qaratgan<sup>38</sup>. Gen C. Lai risklarni baholash, premium sozlamalari<sup>39</sup>, anderraying amaliyotida bozor dinamikasi, iste'molchilarning xatti-harakatlari va iqtisodiy, sanoat ko'rsatkichlari, anderraying siyosati<sup>40</sup> ko'rsatmalari, da'vo tajribasi hamda daromadlilik bo'yicha sug'urtalanuvchining qoniqishi singari o'zgaruvchilar va mustaqil omillar sifatida tanlagan.

Xorijlik iqtisodchi olim Weiyss, Meri A. anderrayingning turli jihatlari<sup>41</sup>, xususan, polislar va to'lovlarda xavf-xatarlarni baholash uchun uslubiy ko'rsatmalar, modellar va ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni tadqiq qilgan. U tadqiqotlarida ekonometrik tenglamalardan foydalangan hamda o'zgaruvchilar sifatida narxlar strategiyasi, to'lovlar, sug'urta mukofoti<sup>42</sup>, sug'urtalanuvchining

---

<sup>37</sup> Dicke, Arnold A. "The economics of risk selection." *Genetics and Life Insurance: Medical Underwriting and Social Policy* (2004): 64-6.

<sup>38</sup> Lai, Gene C., and Robert C. Witt. "Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis." *Journal of Insurance Regulation* 10.3 (1992).

<sup>39</sup> Lai, Gene C., et al. *On Liability Insurance Crises*. Working Paper, 45pp, 1997.

<sup>40</sup> Lai, Gene C., and Robert C. Witt. "Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis." *Journal of Insurance Regulation* 10.3 (1992).

<sup>41</sup> Weiss, Mary A. "Systemic risk and the US insurance sector." Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. [http://www.naic.org/documents/cipr\\_weiss\\_systemic\\_risk\\_100223.pdf](http://www.naic.org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223.pdf) (2010).

<sup>42</sup> Weiss, Mary A. "Systemic risk and the US insurance sector." Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. [http://www.naic.org/documents/cipr\\_weiss\\_systemic\\_risk\\_100223.pdf](http://www.naic.org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223.pdf)

risk profili, anderrayting qarorlari, sug'urta shartnomlari singari omillar ishlatilgan hamda tadqiqot natijalari kompaniyalarda anderrayting xizmatlari narxini belgilashda riskni baholash iqtisodiy samaradorlik uchun xizmat qilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Mishel Denuit sug'urta sohasida aktuar fanlar jumladan anderrayting<sup>43</sup> yuzasidan ekonometrik tadqiqotlarni o'tkazgan. Uning tajribasi anderrayting xizmatlari moliyaviy risklarni modellashtirishda yuqori narx va rentabellik singari iqtisodiy jihatlar kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etishini o'z ichiga olgan.

Tadqiqotlar natijasida risklarni modellashtirish, anderrayting amaliyotining iqtisodiy natijasi va aktuar uslubiyot bo'yicha ilmiy tushunchalar kiritilgan hamda kompaniyalarda anderraytingning ongli qarorlarini qabul qilish bilan moliyaviy barqarorlikni saqlashda yordam berdi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Andres, Christian va Andre Betzerlar sug'urta iqtisodiyoti, risklarni baholash va anderrayting amaliyotlari sohasidagi tadqiqotlari sug'urta sohasining muhim jihatlarini kengroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>44</sup>. Olimlar Sug'urta riskni baholashda anderraytingning asosiy komponenti qilib, polis va obyekt bilan bog'liq risklarni baholash kompaniya rentabelligi ko'rsatkichlari, da'volar, shartnoma shartlari singari omillarni o'zgaruvchilar deb tanlagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra sug'urta kompaniyalarida anderrayting va narxlash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqot ko'p o'zgaruvchan vaqtli qatorlar ma'lumotlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda, ekonometrik tenglamalarni shakllantirish uchun avtoregressiv taqsimlangan kechikish (ARDL) modelidan foydalanildi.

Sug'urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlari va unga ta'sirini ishlab chiqishda "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi (<https://uzbekinvest.uz>) ko'rsatkichlarining 2017-yildan 2023-yilgacha jami 23ta choraklik ma'lumotidan

---

(2010).

<sup>43</sup> Denuit, Michel, et al. Actuarial theory for dependent risks: measures, orders and models. John Wiley & Sons, 2006.

<sup>44</sup> Andres, Christian, André Betzer, and Peter Limbach. "Underwriter reputation and the quality of certification: Evidence from high-yield bonds." *Journal of Banking & Finance* 40 (2014): 97-115.

foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot asos sifatida ARDL modelidan foydalangan holda vaqt seriyalari ma'lumotlarining vizual matritsalarini yaratildi.

Turli tekshiruvlar jumladan, qaram va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsalarini baholandi, birlik-ildiz testlari orqali stasionarlik tekshirildi, bog'langan testlar yordamida kointegratsiya tahlili o'tkazildi va ARDL modeli yordamida regression tenglamalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, ARDL modeli asosida tuzilgan regressiya tenglamasi Gauss Markovning asosiy farazlariga muvofiqligi va Cusum yordamida diagnostik testdan o'tkazildi. Tenglama, shuningdek, keyingi yilda mustaqil o'zgaruvchilarning qaram o'zgaruvchiga kechikkan ta'sirini o'z ichiga oldi.

ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli yoki har bir statistik modelni baholash odatda uning tadqiqot savoliga va ma'lumotlar to'plamiga muvofiqligi, shuningdek, u ishlab chiqaradigan natijalar sifatiga bog'liq.

ARDL modeli vaqtli qatorlar ma'lumotlarini tahlil qilish uchun qimmatli vositadir, ayniqsa o'zgaruvchilar o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>45</sup>.

ARDL modeli samaradorligini muqobil modellar yoki metodologiyalar bilan solishtirish va uning nisbiy afzalliklarini aniqlash maqsadga muvofiqdir<sup>46</sup>.

ARDL modelini baholash uning o'zgaruvchilar o'rtasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash qobiliyatini, statistik qat'iyligini va tadqiqot savoliga amaliy ahamiyatini hisobga olishi lozim<sup>47</sup>. ARDL modeli tadqiqot modellashtirishda bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bevosita va kengaytirilgan dinamika va munosabatlarni o'rganish imkoniyatini beradi<sup>48</sup>. Shuningdek, ARDL modeli bir o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning boshqalarga ta'sir qilish darajasi bo'yicha

---

<sup>45</sup>Mohseni, Mehrnoosh, and Feizolah Jouzaryan. "Examining the effects of inflation and unemployment on economic growth in Iran (1996-2012)." *Procedia Economics and Finance* 36 (2016): 381-389.

<sup>46</sup> Özer, Mustafa, and Veysel Karagöl. "Relative effectiveness of monetary and fiscal policies on output growth in Turkey: an ARDL bounds test approach." (2018).

<sup>47</sup> Ghouse, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. "ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus." (2018): 1-29.

<sup>48</sup> Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. "Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach." *The Pakistan Development Review* (2008): 501-513.

istiqbolni taklif etadi, bu nafaqat bevosita oqibatlarini, balki doimiy oqibatlarini ham o'z ichiga oladi<sup>49</sup>.

ARDL modelining asosiy afzalliklaridan biri uning o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi qisqa va uzoq davrli dinamikani qamrab olish qobiliyatiga ega<sup>50</sup>. Bu, ayniqsa, bir o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning turli vaqt oralig'ida boshqalarga qay darajada ta'sir etishini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ARDL modeli dinamik model bo'lib, u bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning kechikishlarini hisobga oladi. Bu vaqt seriyasi ma'lumotlarini aniqroq ko'rsatish imkonini beradi va o'zgaruvchilar ta'sirida mumkin bo'lgan vaqt kechikishlarini hisobga oladi<sup>51</sup>.

ARDL modeli moslashuvchan model bo'lib, statsionar va statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilarning turli kombinatsiyalarini o'z ichiga oladi. Bu moslashuvchanlik, ayniqsa, o'zgaruvchilar statsionarlik bo'yicha turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi<sup>52</sup>.

Shuningdek, ARDL modeli vaqt seriyalarini prognozlash uchun qo'llanilishi mumkin, bu esa uni tarixiy ma'lumotlarga xususan, bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning kechikkan qiymatlariga asoslangan qaram o'zgaruvchining kelajakdagi qiymatlarini prognozlashda muhim<sup>53</sup>.

Avtoregressiv taqsimlangan kechikish (ARDL) modeli uchun quyidagi formula ifodalandi.

$$Y_t = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{t-1} + \alpha_2 Y_{t-2} + \dots + \alpha_p Y_{t-p} + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \dots + \beta_q X_{t-q} + \gamma_1 Z_{t-1} + \gamma_2 Z_{t-2} + \dots + \gamma_r Z_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

*Bu yerda:  $Y_t$  –  $t$  vaqtdagi bog'lik o'zgaruvchini ifodalaydi.  $Y_{t-1}, Y_{t-2}, \dots, Y_{t-p}$  bog'liq o'zgaruvchining kechikkan qiymatlarini ifodalaydi;  $X_{t-k}, X_{t-k-1}, \dots, X_{t-k-q}$  mustaqil o'zgaruvchining kechikkan qiymatlarini ifodalaydi;*

<sup>49</sup> Boufateh, Talel, and Zied Saadaoui. "Do asymmetric financial development shocks matter for CO 2 emissions in Africa? A nonlinear panel ARDL-PMG approach." *Environmental Modeling & Assessment* 25 (2020): 809-830.

<sup>50</sup> Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. "Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach." *The Pakistan Development Review* (2008): 501-513.

<sup>51</sup> Nkoro, Emeka, and Aham Kelvin Uko. "Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation." *Journal of Statistical and Econometric methods* 5.4 (2016): 63-91.

<sup>52</sup> Jordan, Soren, and Andrew Q. Philips. "Dynamic Simulation and Testing for Single-Equation Cointegrating and Stationary Autoregressive Distributed Lag Models." *R Journal* 10.2 (2018).

<sup>53</sup> Telfah, Duaa B., Nawal Louzi, and Tala M. AlBashir. "Water demand time series forecast by autoregressive distributed lag (ARDL) co-integration model." *Journal of Water and Land Development* (2021).



$Z_{t-1}, Z_{t-2}, \dots, Z_{t-r}$  bog'liq o'zgaruvchilarga ta'sir e'tuvchi boshqa omillarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi;  $\alpha_0, \alpha_1, \dots, \alpha_p, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_q, \gamma_1, \gamma_2, \dots, \gamma_r$  baholanadigan koeffitsientlar qiymatlarni ifodalaydi,  $\varepsilon_t - t$  vaqtdagi xatolikni ifodalaydi.


Tadqiqot bo'yicha bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar quyida keltirilgan. Unga ko'ra,  $y$  (**bo'g'liq o'zgaruvchi**) – kompaniyaning anderrayterlar soni,  $x_1$  (**mustaqil o'zgaruvchi**) – shartnomalar soni,  $x_2$  (**mustaqil o'zgaruvchi**) – sug'urta mukofoti hamda  $x_3$  (**mustaqil o'zgaruvchi**) qoplamasini anglatadi.

Tadqiqot bo'yicha ekonometrik tenglamani ishlab chiqishda quyidagi gipotezalar ilgari surildi.

**Nol gipoteza ( $H_0$ ):** Kompaniyaning anderrayterlar soni, shartnomalar soni, mukofot hamda qoplamani o'z ichiga olgan o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik mavjud emas.

**Muqobil gipoteza ( $H_a$ ):** Kompaniyasidagi anderrayterlar soni, shartnomalar soni, mukofot hamda qoplamani o'z ichiga olgan o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shuningdek haqiqatda ushbu munosabatlar milliy iqtisodiyotda sug'urta sohasi sharoitida alohida e'tiborga molik.


Tadqiqotning birinchi bosqichida o'zgaruvchilarning vaqt bo'yicha tahliliy grafik chizig'i quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi (2.8-rasm).




**2.8-rasm. O'zgaruvchilarning vaqt bo'yicha grafik ko'rinishi<sup>54</sup>**

<sup>54</sup>Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

2.8-rasmda ko'rsatilganidek, vaqtli qatorlar ma'lumotlar izchil vaqtinchalik mavsumiy tendentsiyani namoyish etgan. Bunday sharoitda o'zgaruvchilarni vaqt bo'yicha o'zgartirish potensial ta'sir etuvchi omillarni prognoz qilishning aniqligini oshiradi hamda grafikda sug'urta to'lovlari 2021-2023-yil oralig'ida keskin tebranish holatini aks etgan.



**2.9-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning grafik matritsasi<sup>55</sup>**



**2.10-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning grafik skatter jadvali<sup>56</sup>**

<sup>55</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>56</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

2.9 va 2.10-rasmlarda ko'rsatilganidek, qaram o'zgaruvchi va o'ziga xos zichlik stsenariysini ifodalovchi xarakterli omillar o'rtasida mustahkam korrelyatsiya mavjud. Muhim bog'liqlikni anglatuvchi ma'lumotlar nuqtasi konsenratsiyasi ma'lumotlarning klasterlashuvi va o'qlar bo'ylab zich taqsimlanish pozitsiyasini ifodalagan.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida Stata dasturi asosida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liqlik bo'yicha korrelatsion matritsasi berilgan (2.2-jadval).

**2.2-jadval**

**Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsion matritsasi<sup>57</sup>**

<i>Variables</i>	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) <i>y</i>	1.000			
(2) <i>x<sub>1</sub></i>	0.6012	1.000		
(3) <i>x<sub>2</sub></i>	0.4763	0.1273	1.000	
(4) <i>x<sub>3</sub></i>	<b>0.4135</b>	<b>0.0593</b>	<b>0.1670</b>	<b>1.000</b>

2.2-jadvalga ko'ra, o'zgaruvchilar omillar o'rtasida kuchli, o'rtacha va sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, korrelyatsiya matritsasi natija va xarakterli omillar o'rtasida multikollinearlikning yo'qligini ko'rsatadi.

Tadqiqot bo'yicha bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning statsionarlik holatini aniqlash uchun Unit-Root testi o'tkazildi (2.3-jadval).

**2.3-jadval**

**Unit-Root testi ko'rsatkichlari<sup>58</sup>**

<i>O'zgaruvchilar</i>	<i>Test Statistic</i>	<i>1% Critical Value</i>	<i>5% Critical Value</i>	<i>10% Critical Value</i>	<i>p-value for Z(t)</i>
<i>Bog'liq o'zgaruvchi (y)</i>	-4.517	-3.750	-3.000	-2.630	0.0003
<i>Mustaqil o'zgaruvchi (x<sub>1</sub>)</i>	-4.455	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
<i>Mustaqil o'zgaruvchi (x<sub>2</sub>)</i>	-4.504	-3.750	-3.000	-2.630	0.0003
<i>Mustaqil o'zgaruvchi (x<sub>3</sub>)</i>	-5.327	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000

<sup>57</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>58</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

2.3-jadvalga ko‘ra, birlik-ildiz testi bog‘liq o‘zgaruvchi uchun (-4,517) statistik qiymatni va prognozlovchi o‘zgaruvchilar uchun (-4,455, -4,504 va -5,327) qiymatlarni berdi. Bundan tashqari, 1 %, 5 % va 10 % ahamiyatlilik darajalaridagi kritik qiymatlar (-3.750, -3.000, -2.630) sezilarli darajada salbiy bo‘lib, ular o‘rtasida jiddiy assotsiatsiya borligini ko‘rsatdi.

*Unit- Root* testi natijalariga ko‘ra, qaram o‘zgaruvchi va prognoz qiluvchi omillar statsionarlikni namoyon qilgani kuzatildi, bu ularning past *MakKinnon* qiymatlari va  $Z(t)$  0,0000 ga tengligi bilan tasdiqlandi. Bundan tashqari, bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning dastlabki integratsiyasidan so‘ng, birlik-ildiz testi natijalari ularning statsionarlikka erishishini tasdiqladi.

Tadqiqotga ko‘ra ARDL modelidan foydalangan holda ekonometrik model ishlab chiqildi. Quyida ARDL model asosida ekonometrik model keltirilgan.

$$\Delta y_{it} = c_0 + c_1 \sum_{p=1}^n \Delta y_{i,t-p} + c_2 \sum_{p=1}^n \Delta x_{1i,t-p} + c_3 \sum_{p=1}^n \Delta x_{2i,t-p} + c_4 \sum_{p=1}^n \Delta x_{3i,t-p} + \alpha_1 Y_{i,p} + \alpha_2 x_{1i,t-1} + \alpha_3 x_{2i,t-1} + \alpha_4 x_{3i,t-1} + \varepsilon_{i,t} \quad (2)$$

Bu yerda:  $\Delta y_t$  – anderrayterlar soni,  $y_{t-1}$  – Bir yil oldingi anderrayterlar soni,  $x_1$  – shartnomalari soni,  $x_2$  – mukofot hamda  $x_3$  – qoplama,  $\Delta$  – birinchi farq koeffitsientini,  $c_0$  kesmani,  $c_1$ ,  $c_2$ ,  $c_3$ , va  $c_4$  qisqa muddatli elastiklik koeffitsientlarini,  $\alpha_1$ ,  $\alpha_2$ ,  $\alpha_3$ , va  $\alpha_4$  uzoq muddatli dinamik ko‘paytiruvchilarni,  $n$  – ortda qolgan hadni va  $p$  lag uzunligini ko‘rsatadi.

Tenglama (2) chiziqli ARDL modelini bildiradi, u qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ifodalaydi. Shuningdek, navbatdagi qadamda ARDL modeli ekonometrik tenglamasi Stata dasturi asosida quyidagi jadvalda ishlab chiqildi (3-jadval). 3-jadvalda, *ARDL (1,2,2,2)* modeli yuqori aniqlanish koeffitsiyentini (*R-kvadrat*) 0,96 ko‘rsatadi, bu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi kuchli aloqani ko‘rsatadi. Bundan tashqari, modeldagi sifat koeffitsiyenti ijobiydir. Shuningdek, *ARDL (1,2,2,2)* testi o‘tkazilganda, natijalar *F-statistika* va *t-statistika* 0,05 ahamiyatlilik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Natijada nol gipoteza ( $H_0$ ) muqobil gipoteza ( $H_1$ ) foydasiga rad etildi.

2.4-jadval

**ARDL(1,2,2,2) modeli regression tenglama ko'rsatkichlari<sup>59</sup>**

ARDL (1,2,2,2) regression

Number of obs = 21

R-squared = 0.9670  
 Adj R-squared = 0.9340  
 Log likelihood = 44.517891  
 Root MSE = 0.0421

D.y	Coef.	Std.Err.	t	P>t	[95%Conf	Interval]
ADJ						
y						
L1.	-1.424	0.182	-7.820	0.000	-1.829	-1.018
LR						
x1	0.408	0.085	4.800	0.001	0.219	0.598 ***
x2	0.330	0.074	4.490	0.001	0.166	0.494 ***
x3	0.641	0.088	7.310	0.000	0.446	0.837 ***
SR						
x1						
D1.	-0.195	0.080	-2.440	0.035	-0.373	-0.017 ***
LD.	-0.323	0.071	-4.580	0.001	-0.480	-0.166 ***
x2						
D1.	-0.301	0.141	-2.140	0.058	-0.614	0.012 *
LD.	0.114	0.065	1.750	0.110	-0.031	0.260
x3						
D1.	-0.615	0.103	-5.950	0.000	-0.845	-0.385 ***
LD.	-0.296	0.065	-4.560	0.001	-0.440	-0.151 ***
_cons	-2.106	0.850	-2.480	0.033	-4.000	-0.212 ***

Tadqiqot bo'yicha **ARDL(1,2,2,2)** Bound test orqali model kointegratsion holati tekshirildi (2.5-jadval).

2.5-jadval

**Koitegaratsiya uchun Bound testi<sup>60</sup>**

	[I_0] [I_1] L_1 L_1	[I_0] [I_1] L_05 L_05	[I_0] [I_1] L_025 L_025	[I_0] [I_1] L_01 L_01	<b>F = 15.623</b>
K_4	2.45 3.52	2.86 4.10	3.25 4.49	3.74 5.06	

<sup>59</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>58</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

4-jadvalda ko‘rsatilganidek, F-qiymati kritik qiymatdan katta va biz ushbu holatda kointegratsiyaning yo‘qligi haqidagi nol gipotezani rad etamiz. F-statistik qiymati 15.263 qiymatini tashkil etib, barcha intervallarda kritik chegaralardan yuqori bo‘ldi va Bound testi uchun ijobiy natijani ko‘rsatdi. Tanlagan muhimlik darajasida F-qiymati kritik qiymatdan katta ekanligini inobatga olib, ushbu modelda kointegratsiyaning mavjudligini ko‘rsatadi.


Ishlab chiqilgan  $ARDL(1,2,2,2)$  modeliga ko‘ra quyidagi natijaga erishildi.

**Natija.** Kompaniyada shartnomalari soni 1 %ga ortishi natijasida anderrayterlar sonining 0.40 % ga oshgan. Sug‘urta mukofotining 1 % ga ortishi natijasida anderrayterlar sonining 0.33 %ga oshishiga olib keladi. Kompaniyada qoplamaning 1 % ga ortishi natijasida anderrayterlar soni 0.64 %ga oshgan.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichda  $ARDL(1,2,2,2)$  modeli bo‘yicha CUSUM diognostik testi tekshirildi (4 va 5-rasmlar).


$ARDL(1,2,2,2)$  modelida qo‘llaniladigan CUSUM (Kummulyativ summa) diagnostik testi gipotezalarini quyidagicha ifodalash mumkin.

Nol gipoteza ( $H_0$ ):  $ARDL$  modelidagi parametrlar vaqt o‘tishi bilan barqaror bo‘lib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda tizimli o‘zgarishlar yo‘q. Bu shuni anglatadiki, model butun davri uchun haqiqiy va ishonchli.



**2.11-rasm. CUSUM diognostik testi grafigi<sup>61</sup>**

<sup>61</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



**2.12- rasm. CUSUM diognostik testi grafigi<sup>62</sup>**

Muqobil gipoteza ( $H_1$ ): ARDL modelidagi parametrlar vaqt o'tishi bilan barqaror emas va o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarda tizimli o'zgarishlar mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, model butun davri uchun amal qilmaydi.

2.11 va 2.12-rasmlarda keltirilgan ma'lumotlarni sharhlash ko'rsatadiki, CUSUM diagnostik testi statistikasi doimiy ravishda kritik chegaralar ichida qolgan va hech qanday e'tiborga loyiq o'zgarishlar aniqlanmagan.

Tadqiqot bo'yicha ARDL modeli Gaus Markovning muhim shartlarini diagnostik testlari asosida tekshirildi.

Ekonometrik model bir nechta diagnostik testlardan o'tkazildi va quyidagi natijalarga erishildi:

**Durbin-Watson** testi **2,35** qiymatini tahskil etdi.

**Breusch-Pagan** testi **0,10** qiymatini ko'rsatdi.

**Shapiro-Wilk W** testida **0,60** natija qayd etildi.

**Breusch-Godfrey LM** testi o'tkazildi, natijada **0,10** qiymatiga erishildi.

Tadqiqot davomida birlamchi gipoteza  $H_0:y=0$  va uning muqobil  $H_1:y\neq 0$   $r>0,05$  bo'lgan muhimlik darajasida statistik sinovdan o'tkazildi.

<sup>62</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

**Durbin-Watson, Breusch-Pagan, Shapiro-Wilk W va Breusch-Godfrey LM** testlari bajarilgandan so'ng,  $r > 0,05$  mezonini hisobga olgan holda muqobil gipoteza qo'llab-quvvatlanmadi. Shu sababli, tahlilimizda mustaqil o'zgaruvchilar bilan xato atamalarining korrelyatsiyasi yo'qligini tasdiqlovchi Gauss-Markov taxmini to'g'ri deb xulosa qilish mumkin.

Tadqiqotda foydalanilgan ekonometrik model Gauss-Markovning muhim shartlariga muvaffaqiyatli o'tkanligini o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqotda milliy iqtisodiyotda sug'urta andarrayterlari, shartnomalari, mukofotlari va qoplamasini o'zaro ta'sirini o'rganish yuzasidan olib borilgan tahlillar va xulosalar asosida quyidagilar tavsiya qilinadi.

**1. ARDL(1,2,2,2) modeliga ko'ra, sug'urta shartnomalari sonining 1 %ga o'sishi andarrayterlar sonining 0,40 % ga oshishiga olib keladi:** bu natija shartnomalar soni va andarrayterlar soni o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Kompaniya sug'urta shartnomalari sonining o'sishini boshdan kechirganda, ortib borayotgan ish yukini boshqarish uchun andarrayting bo'limini kengaytirishi kerak. Bunday natija andarrayterlarga talab kompaniyaning shartnoma hajmiga mos kelishidan dalolat beradi.

**2. ARDL(1,2,2,2) modeliga ko'ra, sug'urta mukofotlarining 1 %ga oshishi andarrayterlar sonining 0,33 %ga oshishiga olib keladi.** Sug'urta mukofotlari va andarrayterlar soni o'rtasida ijobiy korrelyatsiyani nazarda tutadi. Sug'urta mukofotlari ortganda, bu sug'urta kompaniyasi uchun yuqori daromadni beradi. Bu daromadni samarali boshqarish va mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha andarrayterlarni jalb qilishni anglatadi.

**3. ARDL(1,2,2,2) modeliga ko'ra, sug'urta qoplamalarining 1 %ga oshishi andarrayterlar sonining 0,64 %ga o'sishiga olib keladi:** bu ijobiy munosabat, qoplama kompaniyadagi andarrayterlar soniga ijobiy natijasini berdi. Qoplama oshib borishi sababli, bu masalada da'volarni qayta ishlash va baholash uchun andarrayterlarga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Nisbatan yuqori 0,64 koeffitsiyenti sug'urta qoplamalari bilan sug'urta mukofotlari 0,33 koeffitsiyenti bilan



taqqoslaganda sug'urta qoplamasi va anderrayterlarga talab o'rtasidagi kuchli bog'liqlikdan dalolat beradi.

Xulosa, ekonometrik natijalar, shartnomalar soni, mukofotlar va qoplama kompaniyaning anderrayterlar soniga ijobiy va statistika jihatidan ta'sir ko'rsatadi. Bu xulosalarga ko'ra, kompaniyada anderrayterlar uchun kadrlarga talabga shartnomalar soni oshishi, yuqori mukofotlar va kengaygan qamrov ta'sir qiladi. Sug'urta sohasining bu jihatlari rivojlanayotganligi sababli, kompaniya ortib borayotgan ish yukini boshqarish va sug'urtalovchilarga samarali xizmatlar ko'rsatish uchun ko'proq anderrayterlarga va anderrayting xizmatlariga ehtiyoj ortayotganligidan dalolatdir.

Anderrayting xizmatlari kompaniyalarda sug'urta risklarni samarali baholash darajasini belgilaydi. Bu sug'urta polislarining narxini yanada aniqroq belgilashga olib keladi, ortiqcha yoki past baholanish ehtimolini kamaytiradi. Bu, o'z navbatida, sug'urta kompaniyalariga moliyaviy ko'rsatkichlarida rentabellikni saqlash imkonini beradi.

Murakkab anderrayting xizmatlari bilan kompaniyalar mijozlar ehtiyojlarini yuzasidan uchun polislarini moslashtiradi hamda ushbu moslashtirish mijozlar talabini qoniqishga va ularning sodiqligiga ko'rsatadi. Xavf-xatarlarni baholash ishlarini yaxshilash natijasida kompaniyalar taklif qilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish, o'z navbatida, kompaniya uchun yangi daromad manbayini ochishga zamin yaratadi.

### **2.3-§. Sug'urtada risklarni qabul qilish bo'yicha qaror hamda sug'urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati**

Xavf-xatarlarni qabul qilishda zarur tamoyillar orqali bozor holati chuqur tahlil qilinadi va bozoridagi real talab o'rganiladi. Sug'urta bozori mukammal o'rganilib, haqiqatda ushbu talabning mavjudligi va talabning davomiyligi ham tahlil qilinadi.

Anderrayterlar tomonidan sug'urta bozori sig'imi, sug'urta ta'rif stavkalari va raqobat holatini ko'zda tutish belgilangan. Sug'urta anderrayterlari sug'urta xizmatlarini sotish kanallari hamda sug'urtada marketing tizmini o'ziga xos

tomonlarini hisobga olib, faoliyat yuritishlari xorij tajribasida mavjud. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi xizmat tarkibi va boshqa yo'nalishlari o'rganilib, bu tadqiqot kompaniya faoliyatining strategiyasi aniqlashga imkoniyat yaratadi.


Sug'urtani segmentlash harakati, samaradorlik va maqsadga qaratilganligini anglatadi, chunki tashkilot o'ziga eng mos keluvchi bozor tarkibini, ishlashi kerak bo'lgan iste'molchilar shakliga qarab ajratib olish zarur.

Yangilik kiritish zamonaviylashtirilib yangilangan xizmatlarning doimiy takomillashuvi yangi xizmatlarni yaratish, ilmiy tadqiqotlar g'oyalar va yangiliklar kiritishni ko'zda tutadi. Rejalashtirish – moslashish tamoyilining mantiqiy davomi va qo'shimchasi bo'ladi. Bu tamoyil bozor va holatliy prognozlarni ishlab chiqishga asoslangan marketingning xizmat ko'rsatish resurslarini ko'zda tutadi.

Hozirgi davrda sug'urtaning asosiy qismini tashkil etayotgan rivojlangan mamlakatlarda andarrayting tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlari ortidan yaratilayotgan tajribalarni O'zbekistonda joriy etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Milliy sug'urtada andarrayting institutini tashkil etish rejasi mavjud. Ammo amalda hali sug'urta kompaniyalarida andarrayting xizmatini tashkil etish sekin amalga oshirilmoqda. Shuningdek, milliy sug'urta bozoridagi ko'p muammolar hal etilmayotganligi tufayli, afsuski mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sug'urtaning ulushi pastligicha qolmoqda. Bu ko'rsatkich rivojlangan xorij mamlakatlarida esa ancha yuqori.

1-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda har bir aholiga boshiga 7 AQSh dollari miqdorida sug'urta mukofoti to'g'ri kelmoqda, bu ko'rsatkich rivojlanayotgan va MDH davlatlari ko'rsatkichidan ancha past. Bu ko'rsatkich Germaniyada 1700 AQSh dollarini tashkil yetgan, Janubiy Koreada 3453 AQSh dollarini tashkil yetgan bo'lib achinarli tomoni qo'shni Qozog'istonda ham bu ko'rsatkich O'zbekistonga nisbatan ancha yuqori.




### 2.13-rasm. 2021-yil yakuni ma'lumotlari bo'yicha aholi jon boshiga sug'urta mukofotini miqdori

Yevropalik olim Jennifer Rudden tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra Yevropada aholi jon boshiga hayot sug'urtasi to'lovlari 2022-yilda quyidagicha ko'rinishda bo'lgan. Daniya aholi jon boshiga 5000 AQSh dollaridan ortiq hayot sug'urtasiga qoplamalar qiymati bo'yicha Yevropa mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egallagan.

Kuchli uchlikni taxminan 4200 va 4100 AQSh dollari bilan Shvetsiya va Finlyandiya yakunlagan. Taqqoslash uchun, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi barcha mamlakatlarda aholi jon boshiga umrbod to'lovlar 500 AQSh dollaridan past bo'lgan qiymatlar qayd etilgan<sup>63</sup>.

O'zbekistonda bu ko'rsatkichni oshirish uchun hayot sug'urtasi xizmatlarini samarali tashkil etish zarur. Hayot sug'urtasi xizmatlarini tashkil etishda davlatning qo'llab-quvvatlash instrumentlari faol qo'llanishi kerak.

<sup>63</sup> <https://www.statista.com/statistics/870988/insurance-europe-premiums-per-capita-by-country/>



**2.14-rasm. Mamlakatlarda 2021-yil yakuni ma'lumotlari bo'yicha YAIMdagi sug'urta mukofotini ulushi**

2.14-rasm ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Korea, Shvetsariya va Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori. Bu mamlakatlar sug'urta faoliyatida anderryayting xizmati mukammal darajada tashkil etilgan.

O'zbekiston sug'urta bozori takomillashuvi uchun sug'urta anderryayterlari faoliyatini jonlantirish lozim. Sug'urta anderryayting tizimining takomillashuvi sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarlarni zararlilik ko'rsatkichi kamaytirishga olib kelib, natijada sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi oshadi. Sug'urta faoliyatini amalga oshirishda xizmatchilar ikkita kategoriyaga bo'linadi:

1. Sug'urta obyekti bilan bog'liq xavf-xatarlarni aniqlashtirish, shartnomalar tuzishda tomonlar bilan shartlarni kelishish, shartnomalarida franshiza qo'llash, tarif stavkalarini belgilash va qo'llash faoliyatini yurituvchilar hisoblanadi.

2. Sug'urta portfelini boshqaruvchilardan iborat. Ular kompaniyalar aktivlari va investisiya faoliyati hamda portfel muvozanatini tashkil etgan holda faoliyatlarini amalga oshirib boradilar.

Jahon amaliyotiga e'tibor qaratsak, anderryayting xizmati shartnomalar korrektirovka qilinadi, ya'ni sug'urta tashkiloti imkoniyatlariga moslab,

shartnomasida ko‘rsatilgan tarifning belgilanishi kompaniyaning zarar ko‘rishdan himoyalaniishi ko‘zda tutiladi.

Zamonaviy Sug‘urta anderryayting xizmati quyidagi funksiyalarni bajaradi:


- sug‘urta obyekti uchun mukofotni belgilash, xavf-xatarlarni baholash va o‘rganish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, franshizani qo‘llash va sug‘urta portfeli muvozanatini saqlash maqsadida qayta sug‘urtaga berish;

- sug‘urtalovchilar aktivlarini boshqarish jarayonida anderryayting xulosalari bilan faol qatnashishi, mukofotlar asosida sug‘urta tashkiloti strategiyasidan kelib chiqqan holda, zarar ko‘rishehtimolligini ham oldindan boshqarishga alohida e‘tibor qaratish;

- normativ jihatlar va uslublarni tayyorlashda anderryayting nuqtayi nazaridan yondashish, anderryayting xizmati quyi va yuqori boshqarishda axborot ta‘minotini tashkil etish;

- texnik ishlarni bajarish va standart hisobotlarni tuzishda portfelnii nazorat qilish anderryayting boshqaruvi funksiyasini oshirib, ko‘riladigan zararni kamaytirish;

- sug‘urta tashkiloti xodimlarini anderryayting xizmatini olib borishdagi zamonaviy, texnologiyalardan foydalanishini ta‘minlash.



2.15-rasm. Zamonaviy anderryayting metodlari<sup>64</sup>

<sup>64</sup> Muallif ishlanmasi

Standart anderryting – umumqabul qilingan standart holatlarda qo‘llaniladi, masalan, havo kemasi, dengiz kemasi yoki avtomobillar mulk sifatida sug‘urtalanayotganda ulardagi xavf-xatar standart ekanligi uchun har biriga alohida yondashilmay, ular uchun belgilangan standartlardan kelib chiqib, anderryting xizmati tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Individual anderryting sug‘urtalanuvchining arizasini sug‘urtalashga qabul qilish yoki sug‘urtalanuvchiga rad javobini berish har bir sug‘urtalanuvchi bergan arizani individual anderryting mutaxassislar, ya’ni anderryterlar ko‘rib o‘rganib chiqadi va albatta individual shaklda va o‘z xulosalarini yozma ravishda taqdim etadi.

Anderryting tadbiri quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- anderryting o‘tkazish jarayonida zarar kelib chiquvchi mezonlar hisobga olinadi. Bu mezonlar kompaniyaning samarali faoliyatini yuritishini ta’minlab, hamma bo‘linmalar va ayrim xodimlarga taalluqli bo‘lib, agar shartnoma asosida qabul qilingan riskdan zarar ko‘rilsa, bu kompaniya uchun moliyaviy zarar bo‘lib, hatto ishlovchilarning ish haqi va oladigan mukofot pullariga ta’sir qiladi.

- aynan shuning oldini olishda individual anderryting tekshiruvi yuqorida aytilgan ko‘ngilsiz hodisadan kompaniyani saqlab qolish uchun ayrim arizalarga rad javobini berishi mumkin;

- haqiqiy zarar ko‘rish sug‘urta operatsiyalaridagi real (haqiqiy) zararlar va kompaniya tomonidan ishlab topilgan mukofotlar o‘zaro solishtirilib taqqoslanadi.

Bu uslub bilan qilingan hisob-kitoblarlar ko‘rilgan zararning haqiqiy miqdorini aniqlab, kompaniyaa portfeliga kutilayotgan zararning oldini oladi.

Natijada boshqa mutaxassislarga nisbatan muntazam ravishda zarar va mukofotlar ekspertizadan o‘tkazilishini talab etuvchi anderryting xizmatlarida talab juda yuqori bo‘ladi va bu kompaniyaning ko‘ngilsiz zararlardan saqlab qoladi. Aytish kerakki, anderryting faoliyati rivojlangan mamlakatlar sug‘urta kompaniyalarida asrlar davomida faoliyat yuritib kelmoqda.

Afsuski, O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urtato‘g‘risida” qonuni yoki qonun osti hujjatlarining birortasida ham anderryting va anderryter to‘g‘risida so‘z

yuritilmagan. Shuning uchun sug'urta kompaniyalarida bu faoliyat turining darajasi past bo'lib, natijada xizmatlar samaradorligini aniqlash borasida ayrim qo'llanma va amaliyotdagi vaziyatdan kelib chiqib, faoliyat aniqlab borilmoqda.

Sug'urta kompaniyalarida anderrayting tizimini joriy etish jahondagi rivojlangan sug'urta kompaniyalari misolidan ma'lumki, ularda bu tizim uchun xodimlarni tanlab olishga alohida e'tibor beriladi, bunday xodimlar, avvalo, anderrayterlar hisoblanadi.

Aynan shular sug'urta kompaniyasiga foyda keltiruvchilar bo'lib, har bir sug'urtalanuvchining arizasini to'liq tekshirib, risk darajasini aniqlash qobiliyati ularda kuchli bo'lishi aql, farosat, ziyorlik, prognozlash, ayniqsa har bir voqea va hodisani to'liq tahlil qilib, avvalo, keltiradigan zararlari va ko'riladigan zarar miqdorini turli matematik hisoblar orqali aniqlab, keyin anderrayterlar qaror qabul qilishi ular uchun muhimdir.

O'zbekistonda sug'urta mahsulotlarini sotish anderrayterning qabul qilgan qarori asosida tuzilgan sug'urta shartnomalari asosida va hodisa sodir bo'lganda ular uchun to'lov qilingan xarajatdan past bo'lishini ta'minlash asosan anderrayterning tajribasi va bilimdonligi hamda risklarni to'g'ri baholashi bilan bog'liq.

Sug'urtaning iqtisodiy samaradorligi sug'urta mahsulotlarining sotuv ko'rsatkichlari oshganligini, muammo xarajatlarining kamayganligi va xarajat tezlashganligini ko'rsatadi. Sug'urtaga sarflangan xarajatlar bilan, sug'urta o'tkazish natijasida tovar aylanmasi hajmi oshishi hisobiga olingan qo'shimcha foydani taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar foyda Sug'urta o'tkazishga sarflangan xarajatdan yuqori yoki unga teng bo'lsa, u holda Sug'urta iqtisodiy samarali hisoblanadi. Shuningdek, sug'urtaning samaradorligi reklama o'tkazilishi va undan keyingi tovar aylanmasini taqqoslash yo'li bilan ham aniqlanadi. Sug'urta mahsulotlarini sotuv ko'rsatkichlari o'sishiga ta'sirini aniqlash uchun buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarini tahlil qilish kerak.

Har bir korxonada faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni o'tkazish, avvalo, bu tavakkalchilikni sug'urtalash hisoblanadi. Kompanyalar haq to'lash evaziga har bir tavakkalchilikdan keluvchi zararlarning ma'lum qismini to'lashni o'z zimmasiga

oladi. Aynan xuddi shu yerda anderrayter faoliyati namoyon bo'lib, qanday tavakkalchiliklarni yoki risklarni sug'urtalash mumkinligi, qandayini sug'urtalab bo'lmasligini anderrayterning oqilona qabul qilgan qarori hal qiladi.

Chunki har bir kompaniyada olinayotgan risklar faqat anderrayting tizimi va anderrayterlar qarori bilan kafolatlanadi. Risklardan korxonaga zarar ko'rsa, ko'rilgan zararining shartnomada belgilangan miqdori sug'urta to'lovi o'rnida qoplanadi.

Sug'urta shartnomalari risklar bo'yicha 1 yildan 5 yilgacha va undan uzoq muddatlarga ham tuziladi. Xuddi shu yerda sug'urta hodisasi bor yoki ikki yilda yuz bermaydi, balki 5 yildan keyin yuz berishi mumkin, ammo Sug'urtabadali (mukofot) kompaniyaga o'zaro shartnoma tuzilgandan keyin, 3 kun ichida to'laydi.

Kompaniya anderrayting tizimi va anderrayterning bilimi tufayli sug'urta kompaniyasi to'langan mukofotni qariyb 5 yil investitsiya qilib foyda ko'radi, endi Sug'urta kompaniyasi pulni aylantirish (tijorat banklariga depozitga joylashtirish) orqali topgan foydasini qiynalmay, tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan hodisa yuz berganda kelib chiquvchi zararlarda ko'rsatilgan summani to'laydi xolos, qolgan summa foyda sifatida o'zida qoladi.

Sug'urta kompaniyasining asosan ko'radigan foydasi, avvalo, mijozlarning qilayotgan risklarini faqat sug'urta anderraytingi va anderrayterning tajribasi, bilimi va sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya qilishdagi sadoqatiga bog'liq. Shuning uchun hozirgi kunda sug'urta kompaniyalarida anderrayting tizimini joriy etish faqat foyda keltiradi, chunki bu tajriba xorijiy sug'urta kompaniyalari tomonidan asrlar davomida tajribadan o'tgan va kompaniyalarning investorlarga aylanishi asosan anderrayting tizimi va anderrayterlari har bir sug'urta riskini qabul qilishda oldindan har tomonlama tahlil qilib, keyin qaror qabul qilishni taqozo etadi.

Bu tajribani O'zbekiston sug'urta bozorining professional qatnashchilari hisoblangan sug'urta kompaniyalarida joriy etishi hayotiy zaruratdir.

Sug'urtada anderrayting xizmati quyidagi tamoyillardan iborat:

✓ obyektivlik tamoyili;



✓ kompleks darajada faktlarni o'rganish, individual tarzda baho berish, sug'urtaga qabul qilinayotgan obyekt xavf-xatar to'g'risidagi ma'lumotlar parametrlariga bog'liqligini mufassal o'rganish;

✓ sug'urtaga qabul qilishdan yoki arizani rad etishdan oldin, hujjatlarni o'rganishdagi tajribaga tayanish;

✓ xavf-xatarni qabul qilish maslasini rasmiy tarzda kuzatib, risklarni pasaytirish choralarini ko'rib, shartnoma shartlaridagi ayrim o'zgartirishlarning sabablarini o'rganib, asosni o'zgartirishi haqiqatga yaqin bo'lishi zarur.

Kompaniya portfelni ishlab chiqish jarayonida asosan anderrayterlar faoliyat yuritadilar. Bu holat asosan sug'urta portfelidagi mijozlar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar o'rganilib, ular bilan kelgusida ishlash uchun amaliyotda bo'lgan hamma statistik ma'lumotlarni o'rganish talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda sug'urta anderraytingning asosiy funksiyalariga etibor qaratiladi, jumladan ular quyidagilardan iborat:

1. Risklarga baho berish.
2. Sug'urta tariflarining adekvat tarifini belgilash.
3. Sug'urtalashda shartnoma shartlarini hisobga olish kerakligi, foydani boshqarish, sug'urta tariflari bo'yicha turli ehtimolliklarni hisobga olish.

Anderraytingning amalga oshishi sug'urta hodisasini tekshirish aniq sug'urta hodisasi keltirib chiqargan zararni hisoblashda namoyon bo'ladi. Masalan, Kasko sug'urtasida yerda yuradigan transportning parametrlari hisobga olinadi:.

- haydovchilik guvohnomasi (ruxsati) bo'lgan shaxslarning yoshi va boshqarish tajribasi;


- qo'llaniladigan franshiza miqdori;

- avtomobilni olib qochishga qarshi himoya (texnik) vositalari, avtomobilni kechasi saqlash va qo'riqlash xavfsizligining bolishi hisobga olinadi.

Anderrayter barcha axborotlarni tahlil qilib, shartnoma tuzish uchun qaror qabul qiladi hamda shartnomani tuzishda anderrayterning vazifasi kuchayib boradi.

Sug'urtalashda anderrayter faoliyatining samaradorligi sug'urta kompaniyasi uchun foydali sug'urta portfelini shakllantirib, anderraying yordamida olinadigan foydani olishga zamin hozirlashdan iborat.

Sug'urta anderrayterlari O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatni hisobga olgan holda, mijozlarni saqlab qolishga harakat qiladilar, sug'urta anderrayterlari sug'urta tashkiloti raqobatbardoshligini hisobga olib, sug'urta mahsulotlarining yangi turlarini yaratish takliflarini berishlari mumkin.



2.16-rasm. Anderayter faoliyatining samaradorligi<sup>65</sup>

<sup>65</sup> Muallif ishlanmasi

## 2.6-jadval


**“O‘zbekinvest” kompaniyasi portfelini boshqarish yuzasidan 2022-yil  
ko‘rsatkichlar<sup>66</sup>i**

№ Sug‘urta klasslari	Haqiqiy sug‘urta portfeli							Sug‘urta portfeli rejasi	
	Ob‘ektlar soni	Olingan sug‘urta mukofoti	Sug‘urta hodisasi	Sug‘urta to‘lovlari	Haqiqiy sug‘urta hodisasi	Ko‘rilgan zarar	o‘rtacha tarif	zararlilik	o‘rtacha tarif
1	113 474	14 628 191 549	1 837	8 589 680 257		6 038 511 291		58,7%	
2	24 000	4 081 424 394	377	648 765 149		3 432 659 245		15,9%	
3	8 029	22 392 428 438	317	4 164 754 947		18 227 673 491		18,6%	
4			24	834 553 801		- 834 553 801			
5	5	1 947 735 564				1 947 735 564		0,0%	
6						-			
7	2 258	17 249 894 296	4	245 494 946		17 004 399 350		1,4%	
8	41 475	141 750 535 232	38	591 155 989		141 159 379 243		0,4%	
9						-			
10	5 145	210 807 306	2 537	18 389 118 855		- 18 178 311 549		8723,2%	
11						-			
12						-			
13	8 764	29 946 472 358	385	16 512 405 027		13 434 067 331		55,1%	
14	25 388	18 987 434 734	9	4 898 803 009		14 088 631 725		25,8%	
15	4	33 214 541				33 214 541		0,0%	
16	107	803 854 349				803 854 349		0,0%	
17						-			
<b>jami</b>	<b>228 649</b>	<b>252 031 992 762</b>	<b>5 528</b>	<b>54 874 731 981</b>		<b>197 157 260 781</b>		<b>21,8%</b>	

Bu jadvalning tahlilini keltirish va sug‘urta hodisasi bilan to‘langan to‘lovlar hamda ko‘rilgan zarar haqidagi ma’lumotlar bo‘lib, unda sug‘urta portfelini to‘g‘ri shakllantirish uchun anderrayting tadbirida anderrayter statistik ma’lumotlar asosida ularni tahlil qilib, sug‘urta kompaniyasida qonunga zid faoliyat yo‘qligini aniqlash imkoniyati ham mavjud.

Keyingi bosqichda sug‘urta portfelini har tomonlama to‘g‘ri shakllantirish uchun anderrayter sug‘urtalash sharoitlarini o‘rganib chiqish, zamonaviy tarzda sug‘urtachiga sug‘urtalanuvchi ariza bilan murojaat qilishi kerak hamda mukofot va tovonlarini o‘z vaqtida to‘lash portfelni shakllantirishida anderrayting asosan o‘z funksiyasini bajarishi kerak.

Sug‘urta anderraytingi orqali sug‘urtaga nisbatan xavf-xatar ortidan keladigan zarar miqdori juda katta bo‘lsa, raqobat omiliga qaramay, sug‘urta anderrayterlari sug‘urta shartnomasini tuzishni to‘xtatishlari kerak.



**2.17-rasm. Anderrayting xizmatini tashkil etish<sup>67</sup>**

<sup>67</sup> Muallif ishlanmasi

Anderrayting xizmatini tashkil etishda jahon tajribasida sug'urtalovchilar juda ko'p holatlarda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar, bu asosan portfelni shakllantirish aktivlar va investisiya ko'rsatkichlariga bog'liq.

Sug'urta tashkilotining aktivlarini boshqarish orqali olinadigan investitsion daromadlarining yuqoriligini ta'minlash uchun anderrayterlar yumshoqroq ish yuritishlariga to'g'ri keladi. Sug'urta portfeli deganda tuzilgan sharnomalar jamlamasi va ular boyicha olingan xavf-xatarlar hamda mukofotlar (sug'urtalovchi to'laydigan Sug'urta to'lovlari) yig'ndisi tushuniladi.

Hozirgi kunda sug'urta portfeli tahlil qilishda, sug'urtalangan obyektlar sonini hisobga olish taklif etilgan, chunki asosiy tushumlar sug'urta obyektidan kelib tushadi. Sug'urta portfelini shakllantirishda minimal portfel ma'lumotlari va turli umumiy risklar mavjudligini hisobga olib, sug'urta operatsiyalarini barqaror deb bo'lmaydi. Buning sababi, sug'urta tarifi statistik bozor ma'lumotlari asosida shakllanadi, umuman portfel umumiy tizimdan tanlab olinadi. Bu tanlov ishonchli bo'lishi uchun eng kichik hajmda bo'lishi lozim, ushbu miqdorga yetganda bizning sug'urta tarifimiz juda yuqori yoki past hajmda bo'ladi.

Boshqa tomondan, kichik sug'urta portfelida 1-2 katta to'lovda sug'urta kompaniyasi portfel bo'yicha qarzga kirib qolishi mumkin. Sohada mutanosiblikni ta'minlash uchun tomonlar manfaatdorligini hisobga olish, anderrayterlar, sotuvchilar, qayta sug'urtalovchilar, tashkilot aksionerlari va menejerlari manfaati o'zaro mos kelish natijasida faoliyat yaxshilanadi.

Hozirgi kunda sug'urta portfelini tahlil qilishda, sug'urtalangan obyektlar sonini hisobga olish taklif etilgan, chunki asosiy tushumlar Sug'urtaobyektidan kelib tushadi. Sug'urta portfelining quyi qismini shakllantirishda quyi minimal Sug'urta portfeli turli umumiy xavf-xatarlar mavjudligini hisobga olib, sug'urta faoliyatini tinch deyish mumkin emas. Buning sababi shundaki, Sug'urta tarifi statistik bozor ma'lumotlari asosida hisoblanadi, umuman mamlakatimizda sug'urta portfeli umumiy tizimdan tanlab olingan.

Anderrayting jarayoni kompaniyaga sog'lom foyda koeffitsiyenti o'sishiga xizmat qiladi. Anderrayting talablarini bajarmaslik natijasida qoplamalarni ko'proq

darajada to'lovni amalga oshirib, oxir-oqibat kompaniya bankrot bo'ladi. Sug'urta anderraytingi strategiyasini investitsiya qilish va anderrayting xodimlarini o'qitish orqali yaxshi natijaga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Anderrayting har bir riskni keng ma'noda o'rganadi, bu katta va kichik korxonalarda yetakchi bo'lib, mukofotlar miqdori sayin oshib boradi. Risklarni tasnif qilish anderrayting strategiyasida butun tarmoq bo'yicha ish olib borish kerak bo'ladi.

Anderrayter an'anaviy san'tdir. Anderrayter sug'urta portfeli darajasini tenglashtirish, foydalilik va marketing mahsulot ham deyiladi. Aslida hammamiz chegaralangan imkoniyat darajasida ishlaymiz.

Anderrayter qaroriga ta'sir etuvchi aniq risklarga quydagilar kiradi:

**Anderrayting potentsiali.** Anderrayterlar o'z vazifalarini bajarishda o'nlab arizalarni qabul qiladilar va o'nlab risklarni sarflaydilar. Sug'urtalovchilarning maqsadini o'rganadiarl, ular kimlarning arizalarini qabul qiladilar va nimalarni sug'urtalaydilar.

Brokerlar bilan ishlaganda, ishonchli bo'lish uchun sug'urtalanuvchining arizasi ishonchliligi uchun anderrayterlar ularni chuqur o'rganib, keyin sug'urta shartnomalarini amalga oshiradilar.

**Portfel strategiyasi.** Sug'urta "tijorat" korporatsiyasi har yili o'z aksionerlariga foyda keltiradi. Shunday qilib, rahbariyat qaytadan ko'rib chiqib, o'z strategiyasida anderrayting turli o'zgarishlar bo'lishini kutgan holda, strategiyani amalga oshiradi, umuman, strategiyani har yili o'zgartirib, foyda kelishi uchun butun imkoniyatlarni amalga oshirishga harakat qiladi.

Bunday sug'urtalanuvchi shuni bilishi kerakki, ularning arizalari broker tomonidan aniq va to'liq holda sug'urtaga qabul qilinadi. Sug'urta kompaniyasi ham o'zi uchun har yili foyda oladi hamda sug'urta kompaniyasining moliyaviy holati normal holatda davom etadi.

Anderrayter shartnoma tuzganda, ayniqsa, suv toshqini natijasida, yuz beruvchi zararlarni minimal holatga keltirish uchun kurashishi kerak. Buning uchun anderrayting shartnomasiga franshizani qo'shishi zarur holatdir. Maqsad va intilish

tufayli ish ikki tomon sug'urta shartnomasini tuzishga kelishishiga olib keladi. Bu yerda asosiy maqsad anderrayting tomonidan bahoni va sharoitni bir-biriga kelishtirish bo'lib, keyin Sug'urta shartnomasi imzolanadi. Sug'urta kompaniyasi xarajatlarni kamaytirishga erishsa, sug'urtalanuvchi esa normal sug'urta qoplamasi olish huquqini qo'lga kiritadi.

Anderrayting doimiy o'zgarib boruvchi bozorni kuzatadi, shuning uchun anderrayterlarni boshqa vazifalardan ozod etib, sug'urta kompaniyasining global muammolarini hal etishga safarbar etish kerak.

Hozirgi kunda anderrayterlar bilan suhbatlashganda ular olayotgan maoshlari boshqa xodimlarnikidan deyarli farq qilmayotganligi, bu xodimlarga bonus berilmayotganligini alohida ta'kidlaydilar. Shuning uchun bonuslarning to'lash differentsiatsiya qilinishi, anderrayterlarning ish jarayonidagi aktivligini oshiradi va moddiy manfaatdorlik oshib borsa, anderrayterlar ham butun imkoniyatlarini ishga solib ijobiy va innovatsion faoliyat yuritadilar.

Sug'urta ko'rsatkichi bo'lgan iqtisodiy samaradorlikni asosan anderrayterlar nazorat qiladilar. Ayniqsa kompaniya katta zarar ko'rganligi haqidagi axborotlar ham ba'zan tarqalmoqda va boshqarish elementar yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Bu borada, anderrayterlarni o'qitishi, malaka oshirishlari uchun rivojlangan xorijiy davlatlarga yborish lozim bo'lmoqda. Bunday ishlar natijasida ular eng zamonaviy sug'urtalash texnologiyalarini hayotga tatbiq eta boshlaydilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ayrim sug'urta kompaniyalarida eskicha usullar bo'yicha tashkiliy ishlar oriyentatsiya asosida davom etmoqda, asosan xodimning ish staji hamda vakansiyaga qarab baho berilayotganligi tufayli hozirgacha anderrayterlarning ochiq holatdagi faoliyati ko'rinmayapti.

Mamlakatimizdagi sug'urta kompaniyalarining tajribasini o'rganib, shunday jarayonga duch keldikki, Sug'urta kompaniyalarida anderrayterlar sug'urta risklarini baholash bilan birga boshqa mutaxasislardan farqli sug'urta ekspertizasi bilan shug'ullanar ekanlar.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Dissertatsiyaning mazkur bobida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini samarali tashkil etishda sug'urta andarrayting xizmatini tashkil etishning muhim tomonlari tahlil qilingan. Sug'urta sohasiga yuridik va jismoniy shaxslarni keng jalb qilish uchun sug'urta faoliyatida sug'urtalanuvchilarning himoyasini oshirishda qator ishlar amalga oshirilishi ko'rib chiqildi.

Birinchidan, faoliyatni sug'urtalanuvchilarning daromadlariga mos holda tashkil etish kerakligi ko'rib chiqilgan.

Ikkinchidan sug'urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatar kompleks tahlil qilinishi uchun sug'urta andarrayting tizimini yoritish uchun davlat tomonidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligi aniqlangan.

Uchinchidan, sug'urta bozori infratuzilmasini xalqaro standartlarga mos holda tashkil etish kerakligi o'rganilgan.

Sug'urtada andarrayting xizmatlarining sug'urta bozori rivojlanishidagi o'rni ko'rib chiqilib, O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish uchun sug'urtada andarrayting xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini sug'urta qonunchiligiga singdirish kerakligi o'rganilgan.

Tadqiqotda, "O'zbekinvest" kompaniyasida andarrayting xizmatlari qay darajada tashkil etilgani, natijada tashkilotning moliyaviy holati barqaror bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilib, bu tajribalar boshqa tashkilotlar uchun tavsiya qilindi. Jumladan, shartnomalar sonining oshishi andarrayterlar soni oshishiga ta'sir etgani, mazkur natija shartnomalar va andarrayterlar soni o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatmoqda.

Kompaniya sug'urta shartnomalari sonining o'sishini boshdan kechirganda, ortib borayotgan ish yukini boshqarish uchun andarrayting bo'limini kengaytirishi kerak. Bu natija andarrayterlarga talab kompaniyaning shartnoma hajmiga mos kelishidan dalolat bergan.

Sug'urta mukofotlarining 1 %ga oshishi andarrayterlar sonining 0,33 %ga oshishiga olib kelgan. Sug'urta mukofotlari va andarrayterlar soni o'rtasida ijobiy



korrelyatsiyani nazarda tutgan. Sug'urta mukofotlarining ortishi Sug'urta tashkilotining daromadiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Dissertatsiyada mamlakatimizda sug'urta sohasining yalpi ichki mahsulotdagi o'rni, xususan, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Belorusiya, Shveytsariya davlatlarining ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi ko'rsatkichlari bilan taqqoslangan.

### **III-bob. SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA ANDERRAYTING XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

#### **3.1-§. Anderrayting xizmati samaradorligini oshirishning kontseptual asoslari**

Insoniyat taraqqiyotining iqtisodiy jihati murakkab jarayon bo‘lib, bugungi kunda 8 milliarddan ortiq aholining cheksiz ehtiyojlarini cheklangan resurslardan samarali foydalangan holda qondirish munosabatlarida xizmat ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda mahsulotlarning ishlab chiqarish va sotish jarayoni hamda yuridik va jismoniy shaxslar uchun xizmat ko‘rsatish hajmi kengaymoqda va bu jarayonlar yanada rivojlanmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasida sug‘urtani xizmatini yuritish orqali yuridik shaxslarning mulklari, moliyaviy qaltisliklari va turli ko‘rinishdagi javobgarliklari hamda aholining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq xavf-xatarlardan kutiladigan zararlar qisman yoki to‘liq qoplanishi mumkin.

Sug‘urta sohasi bozor subyektlari bilan o‘zaro aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchi o‘rtasidagi munosabatlarda professional ishtirokchilar (jumladan, agentlar, brokerlar, adjasterlar, syurveyerlar, aktuariylar va anderrayterlar) xizmat korsatadi, ular sug‘urta bozori infratuzilmasini tashkil etadi.

Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatda boshqaruv uchun XXI asrning yozilmagan bir tamoyili bor, bu ham bo‘lsa “Hozirgi zamonda kimning qo‘lida ko‘p axborot bo‘lsa, hokimiyatni boshqarish ularning qo‘lida bo‘ladi” degan tushuncha rivojlangan davlatlarda kompaniyalar ilgari suriladi.

Sug‘urta anderrayting xizmati sug‘urta tashkilotlarini daromad olishga undovchi, sug‘urtalanuvchilarga tegishli zarur axborotlarni to‘plovchi va bu to‘plangan axborotlardan xavf-xatarlarni boshqarishda foydalanuvchi tizim hisoblanadi.

Sug‘urta anderrayting xizmati orqali sug‘urta tashkilotlarida ma‘lum vaqt oralig‘ida yig‘ilgan sug‘urta zaxirasi fondlarini investisiyaga yo‘naltiradilar.

Anderrayingning bu faoliyati risklarni shartnoma tuzishdan sug'urta kompaniyasini o'rganishga da'vat etadi.

Shuningdek, agar risklar zarar keltirsa, kompensatsiya masalalarini ham oldindan e'tiborga olib qo'yish tavsiyalarini beradi.

Angliyada XIX asrdan bir qism rag'batlantirish hisobiga ayrim guruhlar yuklarini manzilga yetkazib berish yuzasidan qonun hujjatlarga ta'yanib shartnomani tuzibganlar va tomonlarning imzosi bilan tasdiqlaganlar hamda zimmalariga tegishli mas'uliyat va majburiyatni olganlar.

Bu jarayonda anderayterlarning faoliyati muhim bo'lgan, ya'ni ular yuborilayotgan yuklarni, uning borish yo'llari, transport vositasi va uning holati, hatto shu davlatda tashilgan yuklar bilan bo'lgan turli xavf-xatarlar tarixini o'rganib chiqqanlar. Shuning uchun anderayterlar yuklar uchun himoya qilish bo'yicha risklarni belgilab berganlar.

Sug'urta anderrayterlari sug'urtalanish uchun agentlar, brokerlari yoki sug'urta bo'limlari xodimlari tomonidan sug'urtaga jalb qilingan yuridik va jismoniy shaxslar obyektlari xavf-xatarlarini kompleks o'rganuvchi, baholovchi va sug'urtaga qabul qilish yoki qilmaslik yuzasidan qaror chiqaruvchi hamda xavf-xatarlarning

Sug'urta klasslari doirasida kompaniyalar aktivlariga mutanosib portfel muvozanatini saqlash uchun qayta sug'urtaga yo'naltiruvchi professional shaxslar yoki jamoalar hisoblanadi.

Sug'urta anderraying xizmatidan foydalanayotgan sug'urta tashkiloti manfaatlari uchun, ya'ni uning daromadlarini oshirish uchun sug'urta anderrayterlari sug'urtalanyotgan obyekt bo'yicha ma'lumotlarni yig'adi, shartnomani tuzishda barcha omillarni inobatga olgan holda shartnoma tuzish yoki tuzmaslik uchun qaror qabul qiladilar.

Sug'urtada har bir kompaniya, ya'ni polis sotuvchi zararga kirib qolishi mumkin, agar shartnoma tuzilguncha sug'urta obyekti yaxshi tekshirilsa, avvalo, kelajakda zarar ko'rishning oldini olishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, sug'urta

anderrayterlari kompaniyaning ichki shtatida hisobda turuvchi xodimlar bo'lib, ular Sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoli bilan shug'ullanadilar.

Mamlakatimizda sug'urta anderraytingi muammolari bilan shug'ullangan mutaxassislar barmoq bilan sanarli bo'lganligi uchun sug'urta anderraytingi hozirgacha ko'pgina sug'urta kompaniyalarida bu yo'nalishda mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan ishlar tashkil etilmagan, natijada respublikamiz sug'urta bozori rivojlanish darajasi hozirgi zamon talablariga javob bermaydi.

O'zbekiston sug'urta bozorida 2024-yilda 38 ta sug'urtalovchi subyektlar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning qariyb 30 foizida professional anderrayting xizmati yuritilmoqda, bu ko'rsatkich MDH davlatlaridagi ba'zi davlatlardan ortda qolmoqda.

Anderrayting xizmati ko'proq hayot sug'urtasi uchun zarur, chunki hayot sug'urtasi bilan bog'liq shartnomalarni tuzishda sug'urtaga olinayotgan shaxsga individual ravishda yondashish talab etiladi.

Hayot sug'urtasi shartnomasini tuzish rivojlangan mamlakatlarda ham kamida bir-ikki haftani o'z ichiga oladi.

Sug'urta anderrayterlari professional mutaxassis sifatida sug'urtalanuvchining arizasini ko'rib chiqish jarayonida ko'zga ko'rinmaydigan barcha detallarga alohida e'tibor qaratishlari va kelgusida sodir bo'lishi kutilayotgan sug'urta hodisalari uchun ma'suliyatni zimmalariga oladilar.

Dunyo tajribasiga ko'ra Sug'urta anderrayterlarini quyidagi doimiy takrorlanuvchi funksiyalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:


- sug'urta tashkilotiga sug'urtalanish uchun turli xil vositachilar orqali yetib kelgan sug'urta obyektini identifikatsiyalash;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni aniqlash;
- sug'urtalanayotgan obyektga salbiy ta'sir qiluvchi xavf-xatarlarni aniqlash va ta'sir nuqtayi nazaridan guruhlash;
- sug'urta obyektiga ta'sir qilgan sug'urta hodisasini ortidan keladigan zararlar chastotasini aniqlash;

- sug'urta hodisalarining tashkilot portfeliga keltiradigan zararlarni hisobga olish, qayta sug'urtalash bo'yicha boshqaruvga taklif kiritish;

- tashqi vaziyatdan kelib chiqib, tariflarni oshirish yoki kamaytirish to'g'risida tavsiyalarni ishlab chiqish;

- sug'urta obyektlarining professional kuzatuvini yuritish.

Tadqiqotimizda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda respublikamiz anderryating tizimi uchun moslashtirilgan turlarni tasniflash kerak.



**3.18-rasm. Sug'urtada anderryating turlarini tasniflash<sup>68</sup>**

<sup>68</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Sug'urta andarrayting tizimining metodik jihatdan tashkil etilishi quyidagicha ko'rinishdan iborat:


- qonunchik va bozoridagi raqobat asosida hamda sug'urtalanuvchilarning moliyaviy holati hisobiga andarrayting siyosatini yuritish. Andarrayting siyosatini yuritish uchun tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlari va raqobatbardoshligini inobatga olish;

- bozordagi sharoitlardan asosida soha uchun yangi va takomillashgan qoidalarni belgilab olish. Sug'urta andarrayterlarini sug'urta qonunchiligidan xabardorligini oshirish va zamon talablaridan kelib chiqib, Sug'urta andarrayterlarining malakasini oshirish va xorij tajribasidan namuna olish ishlarini rivojlantirish.

Sug'urta andarraytingi sug'urta tashkilotini potensial jihatlarini hisobga olgan holda tashkil etilsagina, sug'urta tashkiloti ko'proq daromadga ega bo'ladi. Shuningdek, sug'urta andarrayting xizmati sug'urta korxonalarida daromadlar kelish yo'nalishini bozordagi talab va taklif qonuniyati asosida tashkil etsagina, yuqori natijalarni qayd etishi mumkin.

Sug'urta andarraytingiga potensialni boshqarish nuqtayi nazaridan yondashish kerak.

Sug'urta tashkilotida andarrayter xizmatini qo'llash ko'p hollarda sug'urta faoliyatiga bog'liq. Andarraytingning ma'lum tizimi kompaniyaga mos kelishi mumkin. Bu holatni quyidagi sxemada ko'rsatish kerak.



**3.19-rasm. ug'urta tashkilotida andarrayter xizmatini qo'llash<sup>69</sup>**

<sup>69</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sug'urta bozoridagi raqobat jarayonlari avj olib borgan sari sug'urta tashkilotlarida anderrayter va uning professional ish faoliyatiga talab oshib boradi, shuning uchun sug'urta anderrayterlari faoliyati doimo sayqallashib, takomillashib, zamonaviylashib borishi hamda sug'urta anderrayterlari yangi zamonaviy jarayonlarni o'zlashtirib borishlari zarur.

Sohani yanda rivojlantirish uchun anderrayterlar boshqaruvida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'z ustida doimiy ishlashi, kompaniyada yangi xizmatlarni yaratishi va mijozlarni jalb qilish chun raqobatga chidamli bo'lishlari lozim.

Zamon o'zgargani sari sohada anderrayterlarga talab oshib bormoqda, lekin professional anderrayterlar yetishmasligi muammosi ham mavjud. Bugungi kunda rivojlangan sug'urta bozorlari mavjud mamlakatlarda anderrayterlarga berilayotgan ish haqi boshqa sug'urta sohasi xodimlariga nisbatan yuqoriligi ham anderrayterlarning faoliyat sohasi nihoyatda zarur ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorining peshqadam professional ishtirokchilaridan biri "O'zbekinvest"da anderrayterlarning bilimi va savodxonligini oshirish hamda kompaniya va sug'urta bozoridagi yangiliklar bilan tanishtirib borish, shu bilan birga xodimlar malakasini oshirish maqsadida kompaniyada 2020-yildan boshlab "Sug'urta maktabi" (kompaniyaning 2020-yil 20-martdagi 57-sonli buyrug'iga asosan) tashkil etilgan. Mazkur maktab orqali sohaga juda zarur anderrayterlar tayyorlanmoqda va ularning malaka oshirish tizimi ham yo'lga qo'yilgan.



**3.20-rasm. Sug'urta anderrayterlari uchun sifat ko'rsatkichi<sup>70</sup>**

<sup>70</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sug'urta anderrayterlarining rivojlangan xorij tajribasidan foydalanib, faoliyat yuritishlari uchun "O'zbekinvest" aksiyadorlik jamiyati tomonidan xorijiy tajriba almashish tizimi tashkil etilgan.

2019-yildan boshlab esa bu an'anaviy shaklga kiritildi va yo'lga qo'yilgan. Jumladan, hududiy filiallar xodimlari, ayniqsa, kompaniya quyi tizim bo'g'inlari, ya'ni sotuv bilan shug'ullanuvchi tumanlar bo'lim mutaxassislari malaka oshirish kurslariga yuborilmoqda. Jumladan, bu davrdan bugungi kunga qadar Yevropaning ilg'or mamlakatlari nufuzli o'quv yurtlariga 133 ta xodim malaka oshirgan.


Jahonda kuzatilayorgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va tabiatdagi globallashuv natijasida xavf-xatarlar jiddiy tus olmayotgani sug'urtaning mukammalashuviga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatlar iqtisodiy tanazzulga tushmasligi uchun sog'lom sug'urta xizmatlarini tashkil etish zarur bo'lmoqda. Bu borada O'zbekistonda milliy Sug'urta bozorini rivojlantirish uchun, avvalo, sug'urta mutaxassislari, sug'urta anderrayterlari, sug'urta ekspertlari va auditorlari, menejer va marketolog mutaxassislar hamda sug'urta da'volari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi zarur.

Bugungi kunda respublikamizda 38 ta sug'urta kompaniyasi tashkil etilgan, kelgusida ularning soni yana oshishi mumkin. Sohaning rivojlanib borayotganini inobatga olib, soha mutaxassislarini tayyorlash uchun maxsus Sug'urtaoliygohini ochish zarurati sezilmoqda. Bu esa kelgusida respublikamizda sug'urta xizmatlarini rivojlantirish, ko'p sonli, ya'ni 37 mln.lik O'zbekiston aholisi va sohalarni turli risklardan himoya qilishga xizmat qilishi talab etilmoqda.

Sug'urta kompaniyalari har qanday iqtisodiy inqiroz sharoitida ham anderrayter mutaxassislarini saqlab qolishlari hayotiy zarurat hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar bozorida sug'urtalovchilarning mahsulotini sotishga ko'p hollarda anderrayterlar jalb qilinadi. Chunki ular kompaniyaning foyda asosida ishlashini ta'minlash bilan birga kompaniya mahsulotlarini sotishda ham hammadan ko'p fidokorlik ko'rsatadilar, shuning uchun har bir iqtisodiy inqiroz sharoitida anderrayterlar korxonada ishdan bo'shatilmay, turli lavozimdagi ishlarga o'tkazilib, saqlab qolish tajribasi mavjud ekan.





**3.21-rasm. Sug'urta tashkilotlarida "sotuvchi-anderrayter" sxemasi<sup>71</sup>**

Sug'urta faoliyatida sug'urta polislarini sotish muhim masala bo'lib, sug'urta polislarining hajmi sug'urta shartnomalarining hajmi kengayishini bildiradi, sug'urta shartnomalari soni sug'urta javobgarligi oshganligini bildiradi va sug'urtajavobgarligining oshishi sug'urta tashkilotga kelib tushgan sug'urta mukofotlari ko'payganligini bildiradi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini "sotuvchi-anderrayter" sxemasi asosida samarali yo'lga qo'yish mumkin.

Har qanday sharoitda anderrayterlar sug'urta kompaniyasining manfaatini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ygan holda yondashganlari uchun ulardan sotuvchi sifatida foydalanish sug'urta kompaniyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishini rivojlangan davlatlar tajribasidan o'rgandik va mamlakatimizda ham bu usulni joriy etsak, foydali bo'lar edi.

### **3.2-§. Sug'urtada anderrayting xizmatining xorij tajribasidan foydalanish**

Sug'urta sohasining takomillashuvi risklarni to'g'ri baholash va ularni mukammal boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Sug'urta sohasining rivojlanishiga sug'urtalovchilar o'rtasidagi sog'lom raqobat va sug'urta qonunchiligidagi meyorlar ta'sir qiladi. Sug'urta qonunchiligi orqali sug'urtalovchilar ham, sug'urtalanuvchilar ham, ular o'rtasidagi munosabatlarda

<sup>71</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmat ko'rsatuvchi Sug'urtavositachilarining manfaatlari ham himoya qilinish kerak.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga sug'urta faoliyatidan keladigan daromadning ijobiy ta'siri mavjud. Sug'urta qonunchiligida bu vaziyat inobatga olinsagina, sug'urtalovchilar o'rtasida sog'lom raqobat kuchayadi.

Kompanyalar uzoq yillar davomida samarali faoliyat yuritishlari uchun mamlakatdagi Sug'urtainfratuzilmasini samarali tashkil etish zarur. Bu infratuzilmadagilar faoliyatining huquqiy asoslari mukammal darajada tashkil etilishi kerak. Sug'urtada professional ishtirokchilar o'rtasida sog'lom raqobat tashkil etilishi orqali sug'urtavositachilari faoliyatining shafofligini ta'minlash zarur.

Anderrayting xizmati bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, sug'urtada anderrayting siyosati ushbu mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va undagi Sug'urtaqonunchiligi bilan bog'liqligini ko'ramiz.


Germaniya sug'urta bozori dunyoda 4-5 o'rinlarni egallab, bu davlatda tibbiy Sug'urta polislarisiz yuradigan fuqaroni topish mushkul. Germaniyada 2024-yil hisobiga ko'ra, 84 million aholi istiqomat qilayotgan bo'lib, ularga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat xarajatlari asosan tibbiy sug'urta orqali amalga oshiriladi.

Germaniyada tibbiy sug'urtaning ikkita turi mavjud. Birinchisi majburiy tibbiy sug'urta (Gesetzliche Krankenversicherung yoki GKV) deb nomlanib, Germaniya aholisining 86 foizi ushbu sug'urta xizmati bilan qamrab olingan. Ikkinchisi (Private Krankenversicherung yoki PKV) deb nomlanib, Germaniya aholisining 14 foizini ixtiyoriy tibbiy Sug'urta xizmati bilan qamrab olgan.

Germaniyada aynan ixtiyoriy tibbiy sug'urta(PKV)ni tashkil etishda anderrayting xizmatidan keng foydalaniladi. Germaniyada fuqaroni ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga birinchi marta qabul qilishda undagi riskni baholash va o'rganish anderrayting tomonidan amalga oshiriladi.

Yaponiyada sug'urta anderrayterlari o'rtacha yiliga 7161034 Yapon iyenasi hajmida ish haqiga ega bo'lib, bu mamlakatimiz kotirovkalari bo'yicha

hisoblaganda 47440 AQSh dollarini tashkil etadi. Yaponiyadagi anderrayterlarning 67 foizi bakalavr diplomiga ega ekanligi va 17 foizi magistrlik darajasida ekanligi hamda 6 foizi kollej diplomi va 10 foizi tayanch ta'lim bilan ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin<sup>72</sup>.



### 3.22-rasm. Yaponiyada ish haqi diapozoni<sup>73</sup>

Yaponiya aholisining o'rtacha bir oylik ish haqi 353 000 yapon ienasini tashkil etayotgan bo'lib, sug'urta anderrayteri lavozimi uchun maoshlar 213 000 iyena (boshlang'ich maosh) dan 596 000 iyengacha (eng yuqoru) oladi. Bu ko'rsatkich qonun bilan belgilangan emas, balki mamlakatdagi barcha ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotdir.

O'rtacha ish haqi 353 000 iyena bo'lgan Yaponiyada sug'urta bo'yicha anderrayter bo'lib ishlayotgan mutaxassislarning yarmi bu summadan kamroq, qolgan yarmi esa ko'proq maosh oladi. O'rtacha ish haqi ish haqining o'rtacha qiymatini bildiradi.


Median 25 va 75 foizlar deb nomlanuvchi boshqa ikkita qiymat bilan bevosita bog'liq. Ish haqini taqsimlash jadvalini o'rganib chiqib, Yaponiyada sug'urta bo'yicha anderrayter sifatida ishlovchi mutaxassislarning 25 foizi 295 000 iyenadan dan kam, 75 foizi esa ko'proq maosh olishini aniqlash mumkin.

Yaponiyada sSug'urta anderrayterlarining amaliy tajribasi ham ish haqi fondiga ijobiy ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Yaponiyada sug'urta anderrayterlari tarkiban qaralganda ularda hayot sug'urtasi yo'nalishida sug'urta

<sup>72</sup> <https://www.salaryexpert.com/salary/job/insurance-underwriter/japan>

<sup>73</sup> <https://www.salaryexplorer.com/average-salary-wage-comparison-japan-insurance-underwriter>

anderrayterlari soni ko'p, chunki ularda hayot sug'urtasi tarmog'ida sug'urta polislari nisbatan ko'p sotiladi.



### 3.23-rasm. Yaponiyada Sug'urta anderrayterlarining amaliy tajribasiga nisbatan ish haqi fondi<sup>74</sup>

Tajriba darajasi ish haqini belgilashda eng muhim omil hisoblanadi. Tabiiyki, qancha yillik tajribaga ega bo'lsa, ish haqi shunchalik yuqori bo'ladi. Ikki yildan kam tajribaga ega anderrayterlar taxminan 248 000 yen oladi. Ish tajribasi ikki yildan besh yilgacha bo'lgan sug'urta anderrayteri 313 000 JPY daromad olib, ikki yildan kam tajribaga ega anderrayteridan 26 % ko'proq ish haqi oladi. Besh yildan o'n yilgacha bo'lgan tajriba darajasi 412,000 JPY maosh oladi, bu ikki yildan besh yilgacha bo'lgan tajribaga ega bo'lganlardan 32 foizga ko'p. Bundan tashqari, tajribasi 10 yildan 15 yilgacha bo'lgan Sug'urta anderrayterlari 485,000 iyena ekvivalentida ish haqi oladi, bu besh yildan o'n yilgacha bo'lgan tajribaga ega bo'lganlarga nisbatan 18 % ko'proq.

Kanada dunyodagi eng rivojlangan sug'urta bozori bo'lib, unda yirik xalqaro kompaniyalar ishtirok etadi va ularda yirik sug'urtalovchilar faoliyatini ko'rishimiz mumkin.

Manulife Financial Kanada sug'urta bozoridagi eng yirik sug'urta tashkiloti hisoblanadi. Kanada sug'urta bozoridagi ikkinchi yirik sug'urta tashkiloti Great-West Lifeco kompaniyasi.

<sup>74</sup> <https://www.salaryexplorer.com/average-salary-wage-comparison-japan-insurance-underwriter>

Dunyoda alohida mavqeiga ega va Kanada sug'urta bozorida 3-o'rindagi sug'urta tashkiloti Desjardins Group sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. U Sug'urta bozorida 4-o'rinni egallagan Sun Life Financial sug'urta kompaniyasi bosh ofisi Torontoda joylashgan bo'lib, 1865-yilda tashkil etilgan eng qadimgi Sug'urta kompaniyalaridan biri hisoblanadi.

Fairfax Financial sug'urta sohasiga nisbatan yangi kelgan bo'lib, 1985-yilda tashkil etilgan. Kanada sug'urta bozori dunyoda 9-o'rinni egallab, 2024-yil rejasiga ko'ra 99.41 mlrd. AQSh dollari miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilishi kutilmoqda. Kanada Sug'urta bozorida 2029-yilga borib, yalpi sug'urta mukofotlari hajmi 140.61 mlrd. AQSh dollariga yetishi mo'ljallangan. Bu mamlakat yig'ilgan sug'urta mukofoti Kanada yalpi ichki mahsulotining 7.18 foiziga teng hamda bozor infratuzilmasi faoliyatiga e'tibor qaratsak, sug'urta andarrayting xizmati takomillashganligini ko'ramiz.

### 3.7-jadval

#### Kanadada 2023-yilda Sug'urta andarrayterlariga berilgan ish haqi<sup>75</sup>


No	Hududlar	Kami (doll./soat)	O'rtacha (doll./soat)	Yuqori (doll./soat)
1.	Kanada	23.08	33.33	54.87
2.	Britaniya Kolumbiyasi	20.63	40.87	68.68
3.	Alberta	23.99	32.00	38.69
4.	Saskachevan	21.00	32.00	45.67
5.	Manitoba	22.56	28.30	48.21
6.	Ontario	23.59	34.07	54,87
7.	Kvebek	25.00	32.97	51.00
8.	Nyu-Brunsvik	17.36	29.90	40.26
9.	Yangi Shotlandiya	17.31	21.43	39.57
10.	Nyufaundlend va Labrador	17.31	28.57	40.00

<sup>75</sup> <https://www.jobbank.gc.ca/marketreport/wages-occupation/665/ca>  
Job Bank Kanadaning milliy bandlik xizmati

Kanadada broker va anderrayterlar juda ham sodiq ekanligini ko‘ramiz, broker sug‘urtalanuvchidagi risklarni bozorga joylashtirishda anderrayterlar bilan doimiy aloqada bo‘lishlari bunga sabab hisoblanadi.

Bu jadval Kanadaning milliy bandlik xizmati ma’lumotlari asosida shakllantirilgan, anderrayter bir oyda o‘rtacha 24 ish kunida o‘rtacha kuniga 8 soat ishlagan bo‘lsa, hisob-kitoblarimizga ko‘ra bir oyda o‘rtacha 192 soat ishlab, 192 soat uchun o‘rtacha 6 500 (CAD), ya’ni Kanada dollari miqdorida ish haqi oladi, bu ko‘rsatkich bir yilga o‘rtacha 78-81 ming (CAD), ya’ni Kanada dollariga teng bo‘ladi.

Demak, Kanadada sug‘urta anderrayterlariga talab yuqori bo‘lib, sug‘urta sohasida ulardan keng miqyosda foydalaniladi. Kanada milliy bandlik xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar oyida Kanada bo‘ylab jami 67 ta sug‘urta anderrayteriga bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligini ko‘rish mumkin.



### 3.24-rasm. Kanada hudularida sug‘urta anderrayterining bir yillik o‘rtacha ish haqi fondi<sup>76</sup>

Kanadada Sug‘urta anderrayterining o‘rtacha ish haqi yiliga 82,500 (CAD), ya’ni Kanada dollari yoki soatiga 33,31 (CAD), ya’ni Kanada dollarini tashkil qiladi. Sug‘urtada anderrayterlik faoliyatini yangi boshlagan mutaxassislar uchun yiliga o‘rtacha ish haqi fondi 60 000 (CAD), ya’ni Kanada dollaridan boshlanadi, yuqori tajribali va 20 yildan ko‘p amaliyotni olib boruvchi anderrayterlar yiliga o‘rtacha 101 935 (CAD), ya’ni Kanada dollari miqdorida ish haqi fondiga ega bo‘ladi.

<sup>76</sup> <https://ca.talent.com/salary?job=insurance+underwriter>

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sohasining asosiy mutaxassislari anderrayterlar, bosh anderrayterlar va anderrayter menejerlari hisoblanadi. Anderrayterlar sug'urta tashkilotini daromadga etaklovchilar hisoblanadi, sug'urta anderrayterlari bilan hamohang sug'urta aktuariylari ham faoliyat yuritadi.

Sohadagi anderrayterlar tibbiy sug'urta jarayonida mijozlarni sug'urtaga olishi uchun potensial mijozning tibbiy tarixi, demografik portreti va kelajakda tibbiy ehtiyojlarini tahlil qilib boradi.

Ilg'or davlatlarda anderrayingni shakllantirish va takomillashtirish borasida Yevropa, ayniqsa Angliyada anderrayterlar faoliyatini tashkil etilishi ilmiy tadqiqotimiz uchun qiziqarli ilmiy asoslarni keltirib chiqarishi mumkin.

Angliyada mujassamlashgan katta hajmli sug'urta zaxiralari mavjudligi hisobidan murakkab va qiyin risklarni boshqarish imkoniyatini beradi hamda dunyoning ikki yuzdan ortiq mamlakatlarida faoliyat yurituvchi eng yirik ixtisoslashgan Lloyds sug'urta sindikati joylashgan.

Angliyadagi kompaniyalar yig'ilayotgan sug'urta mukofotlarining qariyb 70 foizi tashqi mamlakatlar sug'urta bozorlari orqali yig'iladi. Angliya sug'urta sanoatida 320 000 dan ortiq ishchi-xizmatchilar, jumladan anderrayterlar va akturiylar faoliyat yuritadi.


Angliya sug'urta bozorida so'nggi yillarda sug'urta polislarining sotilishida on-layn polislar sotilishi yuqori ko'rsatkichni qayd etmoqda. Shuningdek, sug'urta brokerlari tijorat sug'urtasi jarayonida hali ham asosiy vositachilik imkoniyatlarini qo'lidan chiqarmaganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta sohasidagi raqamli transformatsiyalar sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchilar munosabatini tezlashtiradi.

Angliyada sug'urta anderrayterlarining o'rtacha yillik ish haqi miqdori 44 321 funt sterlingni tashkil etib, bir haftadagi o'rtacha ish soati 36 soatga teng.

Angliyada xavf-xatarlarni baholash va boshqarish uchun risk menejerlari va professional sug'urta anderraying tizimi muhim o'rinni egallaydi hamda anderrayterlarning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

- brokeralar, agentlar va mijozlaridan kelib tushgan takliflarni baholaydi;
- sug'urtaga olinayotgan obyektlardagi mavjud risklarni aniqlaydi;

- agar taklif bilan bog‘liq risklar bo‘yicha ma’lumotlar yetmasa, syurveylar, aktuariylar va risk menejerlari bilan birgalikda ma’lumotlarni qayta ishlaydi;
- sug‘urta mukofotlarini hisoblab chiqib sug‘urtalanuvchiga taqdim etadi va o‘z navbatida, sug‘urtalanuvchiga ma’qul bo‘lsa, Sug‘urta shartnomasini tuzadi;
- qayta sug‘urtalash shartnomalarini tuzish va ularni muhokama qilish sug‘urta portfeli muvozanati uchun xizmat qiladi.



### 3.25-rasm. Angliya hududlarida sug‘urta anderrayterlari taqsimoti soni<sup>77</sup>

Angliya sug‘urta bozori London sug‘urta bozori va milliy sug‘urta bozorlaridan tashkil topgan. Rasm ma’lumotlariga e’tibor qaratsak, Angliya hududlarida 2500 dan 4000 ga yaqin sug‘urta anderrayterlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, poytaxt Londonda 12000 dan ortiq Sug‘urta anderrayterlari faoliyat yuritayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Londonda mashhur xalqaro sug‘urta bozor ishtirokchisi Lloyd's sug‘urta sindikati joylashgan bo‘lib, “Uzoq davrdan buyon Lloyd's sindikati insonlar va biznesni himoya qilish uchun xavfni qayta bo‘lishib himoyani taqdim etib


<sup>77</sup> <https://careersmart.org.uk/occupations/insurance-underwriters>



kelmoqdalar. Ularning bu ishlari dunyo aholisi va biznes vakillarini ilhomlantirmoqda”<sup>78</sup>.

Shuningdek, hududlar miqyosida Sug‘urta anderrayterlarining ish haqi fondi tahliliga ko‘ra, Londonda bir yillik o‘rtacha ish haqi miqdori 55 793 funt sterlingni tashkil etib, bu ko‘rsatkich West Midlands hududida eng past 31 286 funt sterlingni tashkil etadi. Bunday bo‘lishiga sabab Londonda xalqaro Sug‘urta kompaniyalari faoliyati keng rivojlanganidir.

Angliyada sug‘urta anderrayterlarining haftalik ish soati ham hududlarda turlicha tashkil etilgan. Masalan, Janubi-Sharqiy (Angliya) hududida eng yuqori 45 soatlik ish haftasi belgilangan bo‘lsa, Sharqiy Angliya hududi 32 soatlik eng past ish haftasiga ega. Mamlakatda sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar aynan anderrayterlarining jins jihatidan tahlili quyidagicha ko‘rinishda bo‘lmoqda.



### **3.26-rasm. Sug‘urta anderrayterlarining jins jihatidan taqsimlanishi<sup>79</sup>**

3.26-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, Angliyada faoliyat yuritayotgan sug‘urta anderrayterlarining 63.3 foizini ayollar tashkil etib, qolgan 36,7 foizini erkaklar tashkil etadi.

<sup>78</sup> <https://www.lloyds.com/about-lloyds> Jon Nil, Lloyd's bosh direktori

<sup>79</sup> Muallif ishlanmasi

Demak, sug'urta anderrayterlarini asosiy qismi ayollardan iboratligi kasb bo'yicha ayollar hisob-kitob amallarini bajarishga moyilligini anglatadi, xuddi shuningdek, buxgalteriya sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar jins jihatidan tahlil qilinganda ham, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq hajmni egallashi haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz.

Angliyada sug'urta anderrayteri sifatida faoliyat yuritayotgan xodimlar hududlar bo'yicha turli xil haftalik ish soatlariga ega ekanligini ko'rish mumkin. Ayniqsa rivojlangan hududlarda anderrayterlarga talab yuqoriligi nuqtayi nazaridan baho bersak, Londonda bu ko'rsatkichning kamligini, lekin bu hududda sug'urta anderrayterlariga boshqa hududlarga nisbatan ish haqi miqdori yuqoriligini ko'ramiz.

Londonda boshqa hududlardagi sug'urta anderrayterlaridan ko'proq professional anderrayterlar faoliyat yuritadi, davlatda anderrayterlar ma'lum malakaga ega bo'lgach, sug'urtada anderrayting faoliyatini yuritish imkoniyati yuzaga keladi, dastlab oddiy kichik anderrayter, keyin katta anderrayter, undan keyin guruh anderrayteri va anderrayter menejer singari bosqichlardan o'tib keladi. Tajriba orttirgan sari anderrayting qarorlarini havola etuvchi kichik anderrayterlar uchun javobgarlik zimmasiga yuklanib, yangi anderrayterlarga biznes treninglar o'tkazish va murabbiylik qilmoqda.

AQSh bozori dunyodagi yeng yirik ekanligi bilan ajralib turadi. AQShda faoliyat yuritayotgan anderrayterlar soni boshqa bozorlarga nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi. Dunyo bo'ylab so'nggi yillarda sug'urta mukofotlari o'sishining sekinlashishi va Sug'urta kompaniyalari soni qisqarishiga qaramay, 2011-yildan beri AQShda sug'urta sohasida bandlik muntazam ravishda oshib borgan. Sohadagi sug'urta tizimi xodimlari quyidagicha ko'rinishda o'sish tendensiyasiga ega.



Source: Statista

### 3.27-rasm. 1960-2021-yillarda AQSh sugʻurta sektoridagi xodimlar soni<sup>80</sup>

AQShda 1960-2021-yillar vaqt oraligʻida sugʻurta sektorida bandlik sezilarli oʻsish koʻrsatkichiga ega boʻlgan. 1960-yildagi 1,1 milliondan 2021-yilda 2,8 milliongacha oʻsgan. AQSh sugʻurta bozorida har 10 yilda 290 000 ta yangi sugʻurtaish oʻrni yaratilgan. Xodimlarning oʻsish darajasi andarrayting, brokerlik va tibbiy Sugʻurtasektorlarida qayd etilgan.


AQShda 2022-yilda sugʻurta andarrayterlari soni 122 018 kishini tashkil etgan (62,4 % ayollar va 37,6 % erkaklar). Bu koʻrsatkich 2014-yilda 104 942 tani va 2022-yilda 122 018 tani tshkil etib, 2014-2022 yillar oraligʻida oʻrtacha yillik 16,3 % oʻsishni nazarda tutadi.

Eng katta ishchi kuchini, jamlagan yosh diapazonlari 35 dan 39 yoshgacha (16 173 kishi), 30 dan 34 yoshgacha (15 906 kishi) va 25 dan 29 yoshgacha (14 707 kishi). Ular orasida jami ishchi kuchining 38,5 foizi jamlangan<sup>81</sup>.

Kris Kolmar tomonidan asos solingan AQShdagi mashhur Zippia kompaniyasi maʼlumotlari tahlili asosida AQSh sugʻurta sektorida xizmat qilayotgan sugʻurta andarrayterlari faoliyati oʻrganildi. AQShda sugʻurta andarrayteri sifatida ishlash uchun asosan bakalavr diplomi hamda ish joyida amaliyotchi sifatida 6 oydan 1 yilgacha malaka oshirish kerak boʻladi.

<sup>80</sup> <https://www.statista.com/statistics/194233/aggregate-number-of-insurance-employees-in-the-us/>

<sup>81</sup> <https://datausa.io/profile/soc/insurance-underwriters#>



### 3.28-rasm. AQShda Sug‘urta anderrayterlarining o‘rtacha yillik ish haqi fondi<sup>82</sup>

AQShdagi anderrayterlarning 65,39 foizi bakalavr darajasiga ega bo‘lib, ulardan 15,4 foizi o‘rta ta’lim darajasiga ega va ularning 7,4 foizi maktabni tamomlaganlar hisoblanadi.

AQShda anderrayterlarning o‘rtacha bir yillik ish haqi fondi 61 751 AQSh dollarini tashkil etib, soatiga o‘rtacha 30 AQSh dollari to‘lanadi. Anderrayterlar yangi ishga olingan va hali malaka tajribasi mavjud bo‘lmasa, yillik 39 000 AQSh dollari ish haqi fondiga ega bo‘lishi mumkin, agar anderrayterning malaka tajribasi ko‘p yillik bo‘lsa, yiliga o‘rtacha 96 000 AQSh dollari miqdoridagi ish haqi fondigi ega bo‘ladi.

Anderrayterlar ish haqiga joylashuv, diplom va amaliy tajriba singari omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, AQShning Nyu-York shtatida o‘rtacha yillik ish haqi fondi 81 909 AQSh dollari, shuningdek, Massachusets shtatida 82 615 AQSh dollarini tashkil etib, boshqa shtatlarda bu ko‘rsatkich ularga nisbatan past.

AQShda anderrayterlar, agar ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lsa, shunga mos tarzda yuqoriroq ish xaqi fondiga ega bo‘lishini kuzatishingiz mumkin.

Sohada xizmat sug‘urta texnologiyalarining amaliyotga joriy qilinishi singari omillar anderrayterlar bandligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

<sup>82</sup> <https://www.zippia.com/underwriter-jobs/>

**AQShda amaliy tajribasiga asosan Sug'urta anderrayterining ish haqi fondi<sup>83</sup>**

№	Tajriba darajasi	Bir yillik Ish Haqi	Bir soatga ish haqi
1.	Kirish darajasidagi anderrayter	35 600 dollar	17,12 dollar
2.	O'rta darajadagi anderrayter	60 200 dollar	28,95 dollar
3.	Yuqori darajadagi anderrayter	105 000 dollar	50,42 dollar

MDH davlatlari, jumladan, Rossiyada anderrayterlar yiliga o'rtacha 1 112 330 rubl (12 066,6 doll.) ish haqi oladi. Bir yillik ishi haqi miqdorini eng past ko'rsatkichi 524 400 rubl (5 688,86 doll.) bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichi 1 765 300 rublni (19 150,5 doll.) tashkil etadi. Sug'urta anderrayterlarining bir oylik o'rtacha ish haqi 92 691 rubl (1 005,54 doll.).

Sug'urta anderrayterlariga uy-joy va transport uchun imtiyozlar ham mavjud. Rossiyada sug'urta anderrayterlari ish haqi fondiga ularni amaliy ish staji va qaysi hududda faoliyat yuritishi singari omillar ta'sir ko'rsatadi.

Moskvada sug'urta anderrayteri uchun o'rtacha ish haqi 1 180 700 rublni tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, aholining taxminan 50 foizi 1 180 700 rubldan kam maosh oladi, 50 foizi esa 1 180 700 rubldan ortiq maosh oladi. Demak, sug'urta anderrayterining ish haqi mamlakat aholisining o'rtacha ish haqidan kam emas.

O'rtacha ish haqi – umumiy aholi soniga qarab adolatli ish haqi to'lanayotganligini bilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar. Agar maoshingiz o'rtacha maoshdan yuqori bo'lsa, siz boshqalarga nisbatan yaxshi ishlaysiz. Agar sizning o'rtacha maoshingiz jami aholi oladigan o'rtacha maoshdan past bo'lsa, bu sizga etarlicha yaxshi maosh to'lanmayotgani bildiradi.

Rossiyada sug'urta anderrayterining ish staji, amaliy tajribasiga ko'ra, ish haqi fondi oshib boradi. Sug'urta anderrayteri ikki yildan kam tajribaga ega bo'lsa, bir oyga o'rtacha 603 400 rubl miqdorida daromad olishini kutishi mumkin.


<sup>83</sup> <https://www.zippia.com/underwriter-jobs/>

Sugʻurta anderrayteri ikki yildan besh yilgacha boʻlgan tajriba bilan oʻrtacha bir oyga 832 000 rubl ish haqi olishi mumkin. Sugʻurta anderrayteri sifatida besh yildan oʻn yilgacha boʻlgan ish tajribasi ega sugʻurta anderrayterining oʻrtacha bir oylik ish haqi fondi 1 184 200 rublni tashkil qiladi.

Rossiyada agar siz oʻn yildan ortiq tajribaga ega sugʻurta anderrayteri boʻlsangiz, oʻrtacha bir oylik ish haqingiz 1 440 700 rublni tashkil qiladi. Sugʻurta anderrayteri 15 yildan 20 yilgacha ish tajribasiga ega boʻlsa, oʻrtacha bir oylik ish haqi 1 524 300 rubl olishi mumkin. Agar 20 yildan ortiq ishlagan sugʻurta anderrayteri boʻlsa, u uchun kutilayotgan oʻrtacha bir oylik ish haqi 1 655 500 rublgacha boʻladi.

Rossiyada sugʻurta anderrayteri sifatida faoliyat yuritish uchun bakalavr darajasidagi diplom egalari ijobiy qabul qilinadi.

Shuningdek, oʻrta maxsus texnikum va kollejlarni tamomlagan mutaxassislar ham sugʻurta anderrayteri sifatida faoliyat yuritmoqda.



### 3.29-rasm. Rossiyada sugʻurta anderrayterlarining ish stajiga bogʻliq oylik maosh koʻrsatkichlari<sup>84</sup>

Bakalavr darajali sugʻurta anderrayterining bir yillik oʻrtacha ish haqi miqdori 1 450 700 rublni (15 737,6 doll.) etib, oʻrta maʼlumotli sugʻurta anderrayterinig bir yillik oʻrtacha ish haqi fondi 756 700 rublni (8 208,91doll.) qariyib bakalavrdan bir barobarga kam ish haqi fondiga ega boʻlishi mumkin.

<sup>84</sup> <https://worldsalaries.com/average-insurance-underwriter-salary-in-moscow/russia/>

Rossiyada sug'urta anderrayteri sifatida faoliyat yuritayotgan ayol xodim bir yilga o'rtacha 904 700 rubl (9814.46 doll.) ish haqi oladi, anderrayter bo'lib ishlayotgan erkaklarning yillik o'rtacha ish haqi fondi 960 900 rublni (10421.1 doll.) tashkil etib, erkak xodim 6 foizga ko'proq maosh olishi kuzatiladi. Rossiyada sug'urta anderrayterining o'rtacha ish haqi fondi har 17 oyda 10 foizga oshib borishi kuzatiladi. Rossiyada barcha kasblar va sohalar bo'yicha o'rtacha ish haqi fondi har 17 oyda 8 foizga oshib boradi.

Qozog'iston Respublikasida 2024-yilda hayot sug'urtasi bo'yicha anderrayter bir yilga o'rtacha 7 338 037 tanga ( 16 237.2 doll) miqdorida ish haqi fondiga ega. Qozog'istonda faoliyat yuritayotgan hayot anderrayterlari soatiga 3528 tanga (7.8 doll) haq olmoqda. Shunindek umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta anderrayterining bir yillik ish haqi fondi 7 849 125 tangani, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha anderrayter 7 612 400 tangani tashkil etadi<sup>85</sup>.

Sug'urta anderrayterlari faoliyati bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasining tahlili asosida xulosa qilsak, sug'urta anderrayteri sug'urta sektoridagi asosiy lokomotiv faoliyatini yuritish bilan bir qatorda risklarni sug'urtaga qabul qilish, risklarni baholash, risklarni nazorat qilish bo'yicha kerakli qarorlarni chiqaruvchi professionallar hisoblanadi.

Ilmiy ishimiz tahlillarida biz rivojlangan davlatlarda sug'urta anderrayterlariga berilayotgan ish haqi va imtyozlar keng ekanligini ko'rdik. Chunki anderrayting tizimi sug'urta faoliyatining lokomotivi hisoblanishi va yuqorida ta'kidlangan tajribalarni O'zbekistondagi sug'urta tashkilotlarida qo'llanish bo'yicha tavsiyalar berdik.

Dunyo mamlakatlarida sug'urta anderrayterlariga berilayotgan yillik o'rtacha ish haqi miqdorining hajmi mazkur mamlakatlarda sug'urta faoliyatini tashkil etilishda sug'urta anderrayting tizimining o'rnini belgilab bermoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu jadvalga respublikamizda faoliyat yuritayotgan

---

<sup>85</sup><https://www.eri.com/salary/job/life-insurance-underwriter/kazakhstan>. ERI Iqtisodiy Tadqiqotlar Instituti

anderrayterlar ish haqi fondi bilan bog‘liq ma’lumotlar kiritilmasligiga sabab O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich ancha past ekanligi bilan bo‘g‘liq.

### 3.9-jadval

#### Dunyo mamlakatlarida 2024-yilda Sug‘urta anderrayterlariga berilayotgan ish haqi fondi (AQSh dollarida)<sup>86</sup>

№	Mamlakat nomi	Bir yillik o‘rtacha ish haqi, doll.
1.	AQSH	61 751,7
2.	Fransiya	50 625,1
3.	Germaniya	62 678,9
4.	Yaponiya	47 440,2
5.	Janubiy Korea	59 411,5
6.	Kanada	59 525,1
7.	Xitoy	32 319,1
8.	Rossiya	15 737,6
9.	Angliya	55 295,3
10.	Qozog‘iston	16 237,2

Ilmiy ishimizdagi taklif va tavsiyalar mamlakatimiz ko‘rsatkichlarining oshishi va kelajakda anderrayterlar faoliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi degan umiddamiz.

#### 3.3-§. Sug‘urta anderrayterlari xizmatining ARIMA modeli asosida prognozlash va rejalashtirish

Sug‘urta anderraytingini prognozlash sug‘urta industriyasining asosi hisoblanadi va kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun imkon yaratadi. Sug‘urta sohasida prognozlash uzoq muddatli strategik qarorlar uchun zarur bo‘lib, kompaniyalar kelajakdagi talab darajasini qondirish va xizmat ko‘rsatishni samarali boshqarishga tayyor bo‘lishini belgilaydi<sup>87</sup>.

Regressiyali algoritmlar sug‘urta xarajatlarini to‘g‘ri prognozlab, risklarni yaxshi baholash, narx strategiyasini belgilash va raqobatdoshlikni ta’minlashi

<sup>86</sup> <https://www.eri.com/salary/job/life-insurance-underwriter/> ERI Iqtisodiy Tadqiqotlar Instituti

<sup>87</sup> Steptoe, H., Souch, C., & Slingo, J. (2022). Advances in numerical weather prediction, data science, and open-source software herald a paradigm shift in catastrophe risk modeling and insurance underwriting. Risk Management and Insurance Review, 25(1), 69-81.



mumkin<sup>88</sup>.

Sug'urta anderrayingini prognozlashning ko'p qirrali iqtisodiy ahamiyati uning risklarni boshqarish, bozor barqarorligi va iqtisodiy o'sishdagi rolini ko'rsatadi. Anderrayingni prognozlash, risklarni boshqarish, potensial da'volar va yo'qotishlarni aniq prognozlash orqali kompaniyalar riskning haqiqiy darajasini belgilash mumkin.

Sug'urta anderrayerlari xizmatini prognozlash bo'yicha ko'plab xorijlik olimlar tomonidan *ilmiy nazariy* hamda *ekonometrik* tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, taniqli olimlar Angliya va Verral o'z tadqiqotlarida sug'urta faoliyati prognozida umumlashtirilgan chiziqli modellarni (GLM) qo'llaganlar. Olimlar Sug'urtada'volari va jiddiyligini prognozlashda anderrayerlarga riskni baholash uchun ishonchli vositani taqdim etganlar. Ularning tadqiqotlari ko'rsatdiki, GLM modellari har xil turdagi ma'lumotlarni tarqatish bilan shug'ullanishi mumkin, bu turli Sug'urtaliniyalari uchun keng ko'lamlı imkoniyatlarni oshiradi<sup>89</sup>.

Bohnert A. va boshqalar sug'urta to'lovlari xarajatlarini prognozlash uchun (ARIMA) modellaridan foydalanganlar. Tadqiqotchilar da'vo ma'lumotlaridagi vaqtinchalik bog'liqlikni qo'lga kiritishda ARIMA modellarining samaradorligini qayd etganlar. O'tgan da'volarni to'g'ri modellashtirish orqali anderrayerlarga kelajakdagi da'volarni yuqori aniqlik bilan prognozlash uchun asos yaratgan<sup>90</sup>.

Biyener va boshqalar o'z tadqiqotlarida anderraying xizmatlari rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish uchun panel ma'lumotlar ekonometrik modellarini qo'llaganlar. Olimlar tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalari o'rtasida kuzatilmagan heterojenlikni hisobga olish uchun qat'iy ta'sirlar va tasodifiy ta'sirlar modellaridan foydalanganlar<sup>91</sup>.

---

<sup>88</sup> Yao, L., Lin, Y., Mo, Y., & Wang, F. (2023). Performance Evaluation of Financial Industry Related Expense Forecasting Using Various Regression Algorithms for Machine Learning. *Highlights in Science, Engineering and Technology*, 57, 235-241.

<sup>89</sup> England, P. D., & Verrall, R. J. (2002). Stochastic claims reserving in general insurance. *British Actuarial Journal*, 8(3), 443-518.

<sup>90</sup> Bohnert, A., Gatzert, N., & Kolb, A. (2016). Assessing inflation risk in non-life insurance. *Insurance: Mathematics and Economics*, 66, 86-96.

<sup>91</sup> Biener, C., & Eling, M. (2011). The performance of microinsurance programs: A data envelopment analysis. *Journal of Risk and Insurance*, 78(1), 83-115.

Xorijiy o'rganishlar prognozlashda shartnomalar soni, da'volarni qaytarish koeffitsiyenti, kapital tuzilishi, andarrayting rentabelligi, risk, mahsulotni diversifikatsiya qilish, rentabellik, yo'qotishlarning o'zgaruvchanligi, qayta sug'urtalash narxi, qayta sug'urta industriyasining moliyaviy kuchi va makroiqtisodiy sharoitlar singari omillar sifatida qo'llab kelinmoqda<sup>92</sup>.

Biz kelgusi to'rt yil uchun "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi andarrayting xizmatini asosiy faoliyatining **ARIMA** modeli asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqdik.

Hozirgi kunda moliyaviy institutlar samaradorligi va aniqligi tufayli milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ARIMA modelidan foydalanilmoqda<sup>93</sup>.

ARIMA modeli yalpi ichki mahsulot (YaIM) va inflyatsiya darajasi singari ko'rsatkichlarni prognozlash uchun turli tadqiqotlarda muvaffaqiyatli qo'llanilib, qaror qabul qilish jarayonlari uchun asosiy tushunchalarni taqdim etadi<sup>94</sup>.

ARIMA modeli, moliya institutlari, investitsiyalar, jamg'armalar va makroiqtisodiy jarayonlar bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishi mumkin, natijada rejalashtirish, kuzatuv va monitoringni yaxshilashga olib keladi.

ARIMA modelining turli xil vaqt seriyalari ma'lumotlari bilan ishlash va aniq prognozlarni yaratish qobiliyati uni moliya va sug'urta bozorlarini tahlil qilish va prognozlash uchun kuchli vositaga aylantiradi, bu manfaatdor tomonlarga iqtisodiy tendentsiya va tebranishlarni yuqori darajadagi aniqlik va ishonch bilan oldindan bilish imkonini beradi<sup>95</sup>.

Ekonometrik tadqiqotlarda prognozlangan qiymatlar va haqiqiy natijalar o'rtasidagi moslik darajasi aniqlikni baholash uchun juda muhimdir. Aniqlikni

---

<sup>92</sup> Chernyakov, M., Chernyakova, M., Chernyakova, I., Gromov, S., & Mokhtarzada, S. S. (2021). Forecasting the Agricultural Risk Insurance System Parameters. In SHS Web of Conferences (Vol. 110, p. 04010). EDP Sciences.

<sup>93</sup> Shahjakhon, A. (2023). CONSTRUCTION AND FORECASTING ECONOMETRIC MODELS OF MACROECONOMIC INDICATORS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS OF THE NATIONAL ACCOUNTING SYSTEM. EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER), 11(6), 15-20.

<sup>94</sup> Liu, Y., Chen, X., Wang, Q., Zhu, L., & Zhou, Z. (2022). Forecast and Analysis of National GDP in China Based on ARIMA Model. Academic Journal of Science and Technology, 3(2), 78-83.

<sup>95</sup> Anzhela, Y., Petrova., Margarita, Deyneka. (2022). Arima-models: modeling and forecasting prices of stocks. Internauka, doi: 10.25313/2520-2294-2022-2-7921

baholash modelning iqtisodiy jarayonlarni prognozlashdagi iqtisodiy samaradorligikni baholash uchun prognozlangan natijalarni kuzatilgan hamda amalga oshirilgan qiymatlar bilan solishtirishni o‘z ichiga oladi.

Ekonometrik modellar iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish va prognozlashda qo‘llaniluvchi statistik usullardir<sup>96</sup>. Ekonometrik modellar prognoz natijalarini ishlab chiqaradi, ular tarixiy ma’lumotlar va model spetsifikatsiyalaridan olingan kelajakdagi qiymatlarning prognozlari hisoblanadi<sup>97</sup>. Bu natijalar turli iqtisodiy sharoitlarda qaror chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Ko‘plab xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda ARIMA modelini qo‘llamoqdalar.

Jorj Box va Gwilim Jenkinsning “Vaqtli qatorlar tahlili: prognozlash va nazorat qilish” nomli tadqiqotlarida iqtisodiy prognozlashda ARIMA modellaridan foydalanishga asos solganlar<sup>98</sup>. Olimlar ARIMA metodologiyasini ishlab chiqib, bu vaqtli qatorlar ma’lumotlari uchun modellarni aniqlash, baholash va tekshirish uchun tizimli yondashuvni ta’minlaganlar. Bu tadqiqot natijalari iqtisodiy prognozlashga katta ta’sir ko‘rsagan.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Nelson va Plosserlar “Makroiqtisodiy vaqtli qatordagi tendensiyalar va tasodifiy yurishlar: ba’zi dalillar va oqibatlar” nomli ilmiy ishlanmasida AQShda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning vaqt seriyalari ma’lumotlarini tahlil qilishda ARIMA modellaridan foydalanganlar va ko‘plab iqtisodiy omillarning iqtisodiy tebranishlarini tushunish va uzoq muddatli prognozlash uchun ta’sir ko‘rsatadigan stoxastik tendentsiyaga amal qilganlar<sup>99</sup>.

Xususan, S.H. Shih Xitoyning ishlab chiqarish PMI indeksini prognozlash uchun bir nechta ARIMA modellarini qo‘llagan, bu modelning iqtisodiy tendentsiyalarni aniqlashda samaradorligini ko‘rsatgan<sup>100</sup>.

---

<sup>96</sup> Ghysels, E., & Marcellino, M. (2018). Applied economic forecasting using time series methods. Oxford University Press.

<sup>97</sup> Elliott, G., & Timmermann, A. (2008). Economic forecasting. *Journal of Economic Literature*, 46(1), 3-56.

<sup>98</sup> Box, G. E., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C., & Ljung, G. M. (2015). *Time series analysis: forecasting and control*. John Wiley & Sons.

<sup>99</sup> Nelson, C. R., & Plosser, C. R. (1982). Trends and random walks in macroeconomic time series: some evidence and implications. *Journal of monetary economics*, 10(2), 139-162.

<sup>100</sup> Shih, S. H. (2008). *Forecasting models for economic and environmental applications*. University of South Florida.

Taniqli iqtisodchi olim Yang Du ARIMA modelining prognozlash aniqligini Shanxay fond birjasi fondi indeksidagi boshqa modellar bilan taqqoslab, ARIMA modelining fond bozorlari uchun qisqa muddatli prognozlashda foydali ekanligini ta'kidlagan<sup>101</sup>.

Xitoylik olimlar Lu, Vang va Vang tomonidan olib borilgan tadqiqot ARIMA modelini AQSh chakana savdo kompaniyalari aksiyalari narxlarini tendentsiyalarini prognoz qilish uchun qo'llashga qaratilgan bo'lib, bu modelning COVID-19 pandemiyasi davrida sanoat barqarorligini tahlil qilishda amaliyligi va samaradorligini namoyish etadi<sup>102</sup>.

Yevropalik iqtisodchilar Jeyms Stok va Mark Uotson Jeyms Stok va Mark Uotson iqtisodiy faollikni kuzatuvchi indeksni ishlab chiqish uchun ARIMA modelidan qo'llaganlar<sup>103</sup>. Olimlar ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy sharoitlar uchun yetakchi va tasodifiy ko'rsatkichlarni yaratishda modelning foydaliligini ko'rsatganlar.

Xorijlik iqtisodchi olim Endryu Xarvining tadqiqotida ("Prognozlash, tizimli vaqt seriyasi modellari va Kalman filtri") ARIMA modellarining prognoz qilishda qulay moslashuvchanligi ta'kidlagan<sup>104</sup>.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy ishlanmalar ARIMA modelining ekonometrik tadqiqotlardagi muhim rolini ko'rsatadi. Ular makroiqtisodiy tendentsiyalar va moliya bozorining o'zgaruvchanligidan tortib iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan turli ijtimoy-iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda modelning ko'p qirraliligini namoyon etadi.

Ekonometrik tadqiqotlarda ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeli, turli ilmiy maqolalarda muhokama qilinganidek, vaqt seriyalarini

---

<sup>101</sup> Du, Y. (2022, December). A time series forecasting system based on ARIMA for industrial big data. In International Conference on Computer, Artificial Intelligence, and Control Engineering (CAICE 2022) (Vol. 12288, pp. 17-21). SPIE.

<sup>102</sup> G., Kleiner. (2023). Evidence-based modeling as a perspective tool for scientific research of socio-economic processes. *Ekonomika i upravlenie: problemy, reseniâ*, 6/2(138):5-16. doi: 10.36871/ek.up.p.r.2023.06.02.001

<sup>103</sup> Stock, J. H., & Watson, M. W. (1989). New indexes of coincident and leading economic indicators. *NBER macroeconomics annual*, 4, 351-394.

<sup>104</sup> Harvey, A. C. (1990). *The econometric analysis of time series*. Mit Press.

tahlil qilish va prognoz qilish uchun ekonometrik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan kuchli statistik usuldir<sup>105</sup>.

Bu model avtoregressiv (AR)<sup>106</sup>, farqlash (I Integrated) <sup>107</sup>va harakatlanuvchi o'rtacha (MA)<sup>108</sup> komponentlarini vaqtga bog'liq ma'lumotlarda namunalarni olish va prognozlash uchun birlashtiradi va bu uni tarixiy kuzatishlar asosida kelajakdagi qiymatlarni tushunish va prognozlash uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

Tadqiqotchilar ARIMA modellarini YaIM, foiz stavkalari va kriptovalyuta qiymatlari singari turli iqtisodiy ko'rsatkichlarga tatbiq etib, uning ko'p qirraliligi va turli iqtisodiy kontekstlarda tendentsiyalarni aniqlash va prognoz qilish samaradorligini namoyish etdi. Shuningdek, tadqiqotlar aniq prognozlarni ta'minlash uchun tegishli ARIMA parametrlarini tanlash muhimligini ta'kidlab, model tanlash va baholashda AIC, BIC va birlik ildiz<sup>109</sup> testlari singari diagnostik testlarning ahamiyatini qayd etadi.

ARIMA modelidagi avtoregressiv (AR) komponenti vaqt seriyasining kelgusi qiymati uning oldingi qiymatlarining chiziqli birikmasi ekanligini, ARIMA(p, d, q) modelidagi "p" parametri kechikishlar sonini ifodalaydi<sup>110</sup>.

AR modellari uchun mos kechikish tartibini tanlash juda muhim, buning uchun taklif qilingan AIC, BIC va APCV kabi usullari qo'llaniladi<sup>111</sup>.

Shu bilan birga, vaqtga bog'liq avtoregressiv modellar statsionar ARMA modellariga alternativa taklif etadi, bu yondashuv bo'yicha parametrik baholash uchun turli nazariyalar ishlab chiqilgan<sup>112</sup>.

---

<sup>105</sup> Upadhyay, H. P., & Pradhan, B. L. (2023). Forecasting GDP of Nepal using Autoregressive Integrated Moving Average (ARIMA) Model. *International Journal of Silkroad Institute of Research and Training*, 1(1), 2-7.

<sup>106</sup> Shumway, R. H., Stoffer, D. S., Shumway, R. H., & Stoffer, D. S. (2017). ARIMA models. *Time series analysis and its applications: with R examples*, 75-163.

<sup>107</sup> Lai, Y., & Dzombak, D. A. (2020). Use of the autoregressive integrated moving average (ARIMA) model to forecast near-term regional temperature and precipitation. *Weather and Forecasting*, 35(3), 959-976.

<sup>108</sup> Shumway, R. H., Stoffer, D. S., Shumway, R. H., & Stoffer, D. S. (2017). ARIMA models. *Time series analysis and its applications: with R examples*, 75-163.

<sup>109</sup> Zhang, Y., & Meng, G. (2023, March). Simulation of an adaptive model based on AIC and BIC ARIMA predictions. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2449, No. 1, p. 012027). IOP Publishing.

<sup>110</sup> Han, C. (2022). Cross-validation for autoregressive models.

<sup>111</sup> Azrak, R., & Mélard, G. (2022). Autoregressive Models with Time-Dependent Coefficients—A Comparison between Several Approaches. *Stats*, 5(3), 784-804.

<sup>112</sup> Yunyi, Zhang., Dimitris, N., Politis. (2021). Statistical inference on \$AR(p)\$ models with non-i.i.d. innovations. *arXiv: Statistics Theory*,

ARIMA modelida Integrated (I) komponenti statsionarlikka erishish uchun vaqt seriyalari ma'lumotlarini farqlashni o'z ichiga oladi. Statsionarlik vaqtli ketma-ketliklarni tahlil qilishda hal qiluvchi xususiyat, chunki u seriyalarning o'rtacha va dispersiya singari statistik xususiyatlari vaqt o'tishi bilan doimiy modellashtirish jarayonini soddalashtiradi. ARIMA modelidagi farqlovchi parametr "d" statsionarlikka erishish uchun qatorlarni necha marta farqlash kerakligini ko'rsatadi<sup>113</sup>.

ARIMA modelida harakatlanuvchi o'rtacha (MA) komponenti o'tmishdagi prognoz xatolarini kelajakdagi prognozlarga kiritish orqali vaqtli qatorlardagi ma'lumotlarning qisqa muddatli tebranishlarini yumshatadi. Shu bilan birga, "q" parametri model o'z ichiga olgan kechikkan prognoz xatolar sonini belgilaydi.

ARIMA modelining umumiy shakli ARIMA (p, d, q) sifatida belgilanadi, bunda "p" avtoregressiv komponentni, "d" farqlovchi komponentni, "q" esa harakatlanuvchi o'rtacha komponentni bildiradi<sup>114</sup>.

Bu model prognozlash va ma'lumotlarning asosiy naqshlarini tushunish uchun vaqt seriyasini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. U barcha stoxastik jarayonlarni avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha jarayonlar bilan tasvirlash mumkin degan taxminga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'tgan davrlarni tushunishda keyingi davrlar haqida qimmatli tushunchalar beradi. ARIMA modelining ekonometrik tenglamasi, xususan:

ARIMA modelining formulasi uchta komponentni o'z ichiga oladi: AutoRegressive (AR)<sup>115</sup>, Integrated (I)<sup>116</sup> va Moving Average (MA)<sup>117</sup>.

---

<sup>113</sup> Beran, J. (1995). Maximum likelihood estimation of the differencing parameter for invertible short and long memory autoregressive integrated moving average models. *Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Methodological)*, 57(4), 659-672.

<sup>114</sup> (2023). ARIMA(p, d, q)(P, D, Q)F Modeling and Forecasting. 245-312. doi: 10.1017/9781108942812.007

<sup>115</sup> Priyadarshini, E. (2015). A comparative analysis of prediction using Artificial Neural network and auto regressive integrated moving average. *ARN Journal of Engineering and Applied Sciences*, 10(7), 3078-3081.

<sup>116</sup> Nalawade, N. S., & Pawar, M. M. (2015, December). Forecasting telecommunications data with autoregressive integrated moving average models. In *2015 2nd International Conference on Recent Advances in Engineering & Computational Sciences (RAECS)* (pp. 1-6). IEEE.

<sup>117</sup> van Rossum, H. H. (2019). Moving average quality control: principles, practical application and future perspectives. *Clinical Chemistry and Laboratory Medicine (CCLM)*, 57(6), 773-782.

**AvtoRegressiv (AR) qismi** hamda modelning AR qismi o'zgaruvchining kechikkan (o'tmish) qiymatlari bo'yicha regressiya qilishni o'z ichiga oladi.

Bu yerda  $p$  kiritilgan laglangan qiymatlar sonini ifodalaydi.

$$AR(p): Y_t = \phi_1 Y_{t-1} + \phi_2 Y_{t-2} + \dots + \phi_p Y_{t-p} + \epsilon_t, \quad (1)$$

bu yerda:  $Y_t$  – vaqtli qatorining  $t$  vaqtidagi qiymati;  $\Phi_i$  – AR qismining parametrlari;  $\epsilon_t$  –  $t$  vaqtdagi hatolik atamasi

**Integratsiyalashgan (I) qism:**

Modelning I qismi ma'lumotlarni statsionar qilish uchun farqlashni o'z ichiga oladi. Bu erda  $d$  statsionarlikka erishish uchun qatorga qo'llaniladigan farqlash operatsiyalari sonini ifodalaydi.

$$I(d): Y_t' = \Delta^d Y_t = (1-B)^d Y_t, \quad (2)$$

bu yerda:  $\Delta$  – farqlovchi operator;  $B$  –  $BY_t = Y_{t-1}$  ning orqaga siljish operatori.

**Harakatlanuvchi o'rtacha (MA) qismi:** MA qismi xato atamasini o'tgan xato atamalarining chiziqli birikmasi sifatida modellashtirishni o'z ichiga oladi<sup>119</sup>.

$q$ - tartibi kechikkan xato atamalari sonini bildiradi.

$$MA(q): Y_t = \epsilon_t + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \theta_2 \epsilon_{t-2} + \dots + \theta_q \epsilon_{t-q} \quad (3)$$

$\epsilon_t$  –  $t$  vaqtdagi hatolik atamasi

$\theta_i$  – MA qismining parametrlarini anglatadi.

**Birlashtirilgan ARIMA modeli**

Uch komponentni birlashtirgan holda ARIMA(p,d,q) modeli quyidagicha ifodalanadi.

$$(1 - \phi_1 B - \phi_2 B^2 - \dots - \phi_p B^p)(1 - B)^d Y_t = (1 + \theta_1 B + \theta_2 B^2 + \dots + \theta_q B^q) \epsilon_t \quad (4)$$

Buni soddalashtirib, biz quyidagil ko'rinishga keltiramiz:

$$Y_t' = \alpha + \phi_1 Y_{t-1}' + \phi_2 Y_{t-2}' + \dots + \phi_p Y_{t-p}' + \epsilon_t + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \theta_2 \epsilon_{t-2} + \dots + \theta_q \epsilon_{t-q} \quad (5)$$

<sup>118</sup> Hamilton, J. D. (2018). Why you should never use the Hodrick-Prescott filter. Review of Economics and Statistics, 100(5), 831-843.

<sup>119</sup> Aradhya, G., Rao, A. C. S., & Mastan Mohammed, M. D. (2019). A novel hybrid approach for time series data forecasting using moving average filter and ARIMA-SVM. In Emerging Technologies in Data Mining and Information Security: Proceedings of IEMIS 2018, Volume 2 (pp. 369-381). Springer Singapore.

<sup>120</sup> Коршунов, М. К. (2015). Применение информационных технологий: учебное пособие.


<sup>121</sup> Mukherjee, B. (2023). Prediction of influent composition in wastewater and sludge based on Statistical and Machine Learning models (Master's thesis, Oslomet-storbyuniversitet).

bu yerda:  $Y_t - d$  farqlash amallarini qo‘llagandan keyin farqlangan qator;  $p$  – modeldagi kechikish kuzatuvlari soni (AR komponenti);  $d$  – kuzatuvlar necha marta farqlanishini anglatadi (I komponent);  $q$  – harakatlanuvchi o‘rtacha aylananing o‘lchami (MA komponenti).

Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasining 2017-2023-yillar davomidagi choraklik ma’lumotlari asosida jami kuzatuvlar soni 27 tadan iborat **Sug‘urta anderrayting xizmati faoliyatining** kelgusi 4 yillik prognozi ishlab chiqilgan.

**Sug‘urta anderrayterlari soni** – (Bog‘liq o‘zgaruvchi)

Ekonometrik prognozning dastlabki bosqichida bog‘liq o‘zgaruvchining vaqt bo‘yicha tahliliy grafik chizmasi quyida keltirilgan (1-rasm).



**3.30-rasm. Sug‘urta anderrayting xizmati faoliyatining vaqt bo‘yicha tahliliy grafik chizmasi<sup>122</sup>**

3.30-rasm tahlili ko‘rsatadiki, “O‘zbekinvest” EISK AJning anderrayterlari soni 2017-2023-yillar davomida o‘shish tendentsiyasini ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, “O‘zbekinvest” kompaniyasida 2017-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda ko‘proq sug‘urta anderrayterlari jalb etilgan.

<sup>122</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.



Shuningdek, 2019-yildan boshlab sugʻurta anderrayterlari soni muttasil ortib borgan, bu esa ushbu tashkilotda sugʻurta xizmatlariga talab ortganidan dalolat beradi. Shuningdek, 2019-yildan boshlab anderrayterlar sonining oʻsishi izchil va uzluksiz boʻlganligi aniqlangan.

Bunday barqaror oʻsish “Oʻzbekinvest” tomonidan taqdim etilayotgan sugʻurta xizmatlariga talab ortib borayotganidan dalolat beradi. Asosan, koʻproq anderrayterlar ishlayotganligi sababli, bu koʻproq sugʻurta polisleri chiqarilishini anglatadi va kompaniya ushbu yuqori hajmdagi ishlarni boshqarish uchun koʻproq xodimlarga muhtoj, bu ularning xizmatlariga talabning yuqoriligini aks ettiradi.

Tadqiqot boʻyicha navbatdagi bosqichda sugʻurta anderrayting xizmati faoliyatida sugʻurta anderrayterlarning statsionarlik holati tekshirildi hamda uni aniqlashda Unit-Root testidan foydalanildi (3.9-jadval).

**3.10-jadval**  
**Sugʻurta anderrayting xizmati faoliyatining Unit-Root testi<sup>123</sup>**

Sugʻurta anderrayterlari soni	<i>Test Statistic</i>	<i>1 % Critical Value</i>	<i>5 % Critical Value</i>	<i>10 % Critical Value</i>	<i>p-value for Z(t)</i>
	-6.221	-3.743	-2.997	-2.629	0.0000

1-jadvalga koʻra, Sugʻurta anderrayterlari sugʻurta anderrayting xizmati faoliyatida hal qiluvchi vazifani bajaradi, bu **-6,221** qiymatining muhimligidan dalolat beradi. Bu natija koʻrsatadiki, bu qiymat statistik ahamiyatga ega **1 %**, **5 %** va **10 %** chegaralaridan past. Bundan tashqari, MakKinnon qiymati  $Z(t)=0,0000$  bilan minimal boʻlib, bu testdan sugʻurta anderrayterlari soni statsionar ekanligini koʻrsatadi.

Vaqt qatorlarni tahlil qilishda statsionar ketma-ketlik vaqt oʻtishi bilan izchil statistik xususiyatlarni saqlab qoladi, bu esa ishonchli prognozlar va xulosalar chiqarish imkonini beradi.


<sup>123</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Unit-Root test natijalari va MacKinnon qiymati jami daromadning o'sish sur'ati statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib, ma'lumotlarning statsionarligini tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichda ARIMA (p,d,q) parametrlari shakllantirildi va ARIMA tizimi yordamida ekonometrik modelni prognozlash uchun baholandi.

ARIMA ko'rsatkichlari ARIMA (p,d,q) parametrlari yordamida ishlab chiqilgan. Vaqt seriyalari ma'lumotlarining xarakteristikalarini asosida p,d,q uchun o'ziga xos qiymatlar aniqlangan. 1-jadvalga ko'ra, d=0 qiymati tanlangan, chunki vaqt seriyasi dastlabki differentsiatsiyadan keyin statsionar bo'lib, ARIMA modelining d parametri mos ekanligini ko'rsatadi.

Navbatdagi bosqichda modelning vaqtli qatorlar laglari orasidagi bilvosita korrelyatsiyani aniqlovchi p ning qiymati aniqlandi (2-rasm).



### 3.31-rasm. Modelning laglari orasidagi bilvosita korrelyatsiya grafi<sup>124</sup>


3.31-rasmga ko'ra, ikkita lagdan tashqari, boshqa barcha kechikishlar bilvosita korrelyatsiya tahlili kontekstida ishonch oraliqlarini ifodalagan. Unga

<sup>124</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

ko'ra, aksariyat kechikishlar statistik ahamiyatga ega, chunki ular ishonch oralig'ida.

Ishonch oraliqlari bilan kechikishlarni moslashtirishning ahamiyatini tushunish ARIMA modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday holda, 1 yoki 2 p-qiyamatini qo'llash maqsadga muvofiq. Aksariyat kechikishlar mos keladi, chunki ular ishonch oralig'iga to'g'ri keladi va korrelyatsiya tahlili 1 yoki 2 da muhim p-qiyamatini ko'rsatadi. Shuningdek, yakuniy qaror ma'lumotlarni, model diagnostikasi va boshqa tegishli mezonlarni to'liq tushunishni hisobga olishi kerak.

ARIMA modelining navbatdagi bosqichida modelning laglari orasidagi bevosita korrelyatsiyani tasvirlovchi q ning qiymati aniqlangan (3.30-rasm).



**3.32-rasm. Modelning laglari orasidagi bevosita korrelyatsiya grafigi<sup>125</sup>**

3.32-rasm modeldagi kechikishlar orasidagi aniq bog'lanishni ko'rsatadi, ular ishonch oralig'iga to'g'ri keladi. Bu qiymatlardan birini tanlashni afzal ko'radi.

<sup>125</sup>Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Mazkur kuzatishga asoslanib, 0 dan 2 gacha bo‘lgan q qiymatini tanlash afzalroqdir. Modelni prognoz qilishda ARIMA invariant optimal modellarini tanlashda ARIMA(0,1,2), ARIMA(1,1,1), ARIMA(2,1,1), ARIMA(0,1,1) va ARIMA(1,1,2) ko‘rinishidagi modellardan foydalanildi. Bular orasidan eng yaxshi natijaga ega ARIMA(1,1,1) modeli tanlab olindi (3.10-jadval).

**3.11-jadval**

**ARIMA (1,1,1) modeli ekonometrik tenglama ko‘rsatkichlari<sup>126</sup>**


D.undwr_serv	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95%Conf	Interval]	Sig
Constant	4.529	4.255	1.06	.287	-3.812	12.869	
ar	.906	.155	5.84	0	.601	1.21	***
L1.							
ma							
L1.	-.595	.277	-2.15	.032	-1.138	-.053	**
Constant	4.496	.513	8.77	0	3.491	5.501	***
Mean dependent var							
		3.231	SD dependent var		5.264		
Number of obs		26	Chi-square		86.082		
Prob > chi2			Akaike crit. (AIC)		160.560		
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

3.10-jadvalga ko‘ra ARIMA(1,1,1) modeli quyidagilardan iborat.

$$\Delta Y = 4.49 + 0.90y_{t-1} - 0.59e_{t-1} \quad (2)$$

Keyingi bosqichda ARIMA (1,1,1) modeli quyidagi shartlarda sinovdan o‘tkazildi: qoldiqlar statsionar va ARIMA modelining avtoregressiv (AR) va harakatlanuvchi o‘rtacha (MA) qoldiqlari birlik doirasiga to‘g‘ri keladi. Bu holatda, qiymatlari 1 dan past ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, ko‘p o‘zgaruvchan (multivariate portmanteau white noise tests) testi o‘tkazildi, bu p-qiymatini 0,67 va  $Q = 8,39$  test statistik qiymatini berdi. Shu nuqtai nazardan, birlamchi gipoteza  $H_0: y=0$ ,  $H_1: y \neq 0$ , test natijalari asosida  $r > 0,05$  da belgilangan chegara bilan ahamiyatli bo‘ldi. Bu tahlil modelning ushbu mezonga qoniqarli javob berishini tasdiqlaydi.

<sup>126</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



**3.33-rasm. ARI (1,1,1) modeli bo'yicha MA qiymatlari sohasi<sup>127</sup>**

Tadqiqot bo'yicha Stata dasturidan foydalangan holda ARIMA(1,1,1) modeli bo'yicha "O'zbekinvest" tomonidan taqdim etilayotgan sug'urta xizmatlari faoliyatidagi sug'urta anderrayterlari sonining 2024-yildan 2027-yilga tasodifiy omillarni hisobga olmagan holda prognozi ishlab chiqilgan (3.12-jadval).

**3.12-jadval**


**2024-2027 yillar sug'urta anderrayting xizmati faoliyatida sug'urta anderrayterlari sonining prognoz ko'rsatkichlari<sup>128</sup>**

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistic prognoz	Prognoz
2024	258	270	264
2025	278	289	283
2026	293	304	298
2027	305	316	310

Tadqiqot bo'yicha "O'zbekinvest" tomonidan taqdim etilayotgan sug'urta xizmatlari faoliyatidagi sug'urta anderrayterlari soni 2017-2023-yillar hamda 2024-2027-yillarda ushbu tashkilotninig sug'urta xizmatlari faoliyatidagi sug'urta anderrayterlar soni prognoz grafiklar tasviri keltirilgan.

<sup>127</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>128</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.



**3.34-rasm. 2017-2023-yillar davomida bog‘liq o‘zgaruvchi hamda 2024-2027-yillar uchun prognoz grafigi<sup>129</sup>**

3.34-rasmga ko‘ra “O‘zbekinvest” tomonidan taqdim etilayotgan sug‘urta xizmatlari faoliyatidagi sug‘urta anderrayterlari soni va model prognozi grafigi tasvirlangan. Unga ko‘ra yo‘nalish grafigi ikki chiziq deyarli yonma-yon joylashganligi sababli tasodifiy omillarni hisobga olmagan holda kelgusi to‘rt yil uchun amalga oshirilgan prognoz ko‘rsatkichlari ishonchliligidan dalolat beradi.

O‘zbekinvest” sug‘urta xizmatlari faoliyatidagi sug‘urta anderrayterlari soni ARIMA (1,1,1) modeliga asoslangan ekonometrik prognoz 2024-2027-yillar uchun foiz prognozlari quyidagicha izohlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ARIMA (1,1,1) modeli asosida O‘zbekinvest” sug‘urta xizmatlari faoliyatidagi sug‘urta anderrayterlar xizmatining 2024-2027-yillardagi anderrayterlar soni tasodifiy omillarini hisobga olmagan holda 2024-yilda 264 ta, 2025-yilda 283 ta, 2026-yilda mos ravishda 298 ta hamda 2027-yilda 310 taga etishi prognoz qilingan.

1. Ekonometrik natijalarga ko‘ra, “O‘zbekinvest” sug‘urta xizmatidagi anderrayterlar soni ARIMA (1,1,1) modeliga asoslangan holda ma’lum bir

<sup>129</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

tendensiya bo'yicha prognoz qilingan. ARIMA (1,1,1) modeliga asoslanib, 2024-yilda 264 ta anderrayter bo'lishi prognoz qilingan va bu raqam 2025-yilda 283 taga ko'payishi kutilmoqda. Prognoz ko'rsatkichlar o'sishda davom etib, 2026-yilda 298 va 2027-yilda 310 tani tashkil etadi.

2. Bu prognoz ko'rsatkichlari anderrayterlar soni haqidagi tarixiy ma'lumotlardan foydalanuvchi va prognozlarni yaratish uchun avtoregressiv, farqlovchi va harakatlanuvchi o'rtacha komponentlarni qo'llovchi ARIMA (1,1,1) modelidan olingan. Model kelajak uchun prognoz qilishda o'tmishda kuzatilgan tendensiyalar va tebranishlarni hisobga oladi.

3. Prognozlar anderrayterlarning haqiqiy soniga ta'sir qilib, tasodifiy omillarni hisobga olish mushkul. Shuning uchun model kutilayotgan tendensiya haqida qimmatli tushunchani taqdim etsa-da, haqiqiy raqamlar sug'urta industriyasininig o'ziga ta'sir qiladigan kutilmagan holat va hodisalar tufayli farq qilishi mumkin.

### **3.4-§. Anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali Sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish**

Dunyoda yagona rivojlanish vositasi bu raqamlashtirish hisoblanadi. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'yekti hisoblanuvchi sug'urta anderrayterlari ish faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali takomillashtirish bugungi zamon talabi bo'lmoqda.

Sug'urta anderrayterlari faoliyatini raqamlashtirish orqali sug'urta xavf-xatarlarini aniqlash imkoniyatlari kengayadi. Sug'urta bozorida moliyaviy barqaror Sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi sof raqobat ta'sirida sug'urta tarif stavkalari pasayish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatdagi ichki investitsiya oqimlari hajmi oshishi va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahondagi globallashtirish jarayonlari natijasida o'sib borayotgan iqtisodiyotlar uchun sug'urta xizmatlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Inson o'z umrining

uzayishi va keksayganda kafolatlangan moddiy ta'minotga ega bo'lishida hayot sug'urtasi xizmatining o'rni muhim.

Sug'urta sohasidagi barcha xizmatlarni raqamli transformatsiya orqali takomillashtirish bugungi davr talabi bo'lib qolmoqda. Sug'urta sohasining yuragi hisoblanuvchi anderryayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. So'nggi o'n yillikda an'anaviy tijorat sug'urtasida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Sug'urtada anderryayting xizmatini raqamlashtirish orqali modernizatsiyalash natijasida sug'urta tashkilotlarini investitsiya daromadlarining turg'unligi va rentabelligini oshirish mumkin. Sug'urtaga nisbatan xavf-xatarlar raqamli texnologiyalar orqali tahlil qilinishi natijasida sug'urta anderryayterlari yanada aniqroq xulosaga ega bo'ladi.

Sug'urtada anderryayting xizmatini raqamlashtirish orqali uchta asosiy maqsadga erishiladi. Birinchidan, sug'urtalovchilarning operasion harajatlari raqamli texnologiyalar qo'llanilishi natijasida kamayadi.

AQSh, Xitoy, Kanada, Angliya, Yaponiya va boshqa bir qancha rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sohasida anderryayting xizmati keng miqyosda raqamlashtirilmoqda. Sug'urta anderryayting xizmatini raqamli transformatsiyalash orqali sug'urtalanuvchilarga operasion xizmatlarni ko'rsatish tezlashadi. Sug'urtalanuvchilar haqidagi keng ma'lumotlar to'plamlarini qayta ishlash yanada faollashadi.

Dunyo iqtisodiyoti raqamlashtirish orqali modernizatsiya qilinmoqda. Sug'urta sohasi jumladan sug'urtada anderryayting xizmati ham raqamlashtirish orqali takomillashmoqda. Har bir holatning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud bo'lib sug'urtada anderryayting tizimini raqamlashtirish sug'urta tashkilotlariga birmuncha yengilliklar va moliyaviy imkoniyatlar olib keladi, lekin ortidan kichikkina bo'lsa-da, salbiy ta'sir ham mavjud bo'ladi. Bugungi kunda sug'urta sohasida ham, boshqa sohalarda ham raqamlashtirish ortidan kiberxavflar ortib bormoqda. Shu o'rinda kiberxavfsizlikka quyidagicha fikr bildirishimiz



mumkin, “Kiberxavfsizlik kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati”<sup>130</sup>.

Dunyo iqtisodiyotini larzaga solgan pandemiya davridagi muammolar Sug‘urta anderrayterlari faoliyatini raqamlashtirish orqali uzoq vaqt davom ettirish mumkinligini ko‘rsatdi. Pandemiyadan so‘ng sug‘urta sohasi sug‘urtalanuvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va operatsion samaradorlikni qondirish uchun raqamlashtirishni tezlik bilan qabul qildi. Sug‘urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish tendentsiyasining ijobiy ta‘sirini statistik jihatdan ko‘rib chiqamiz:

- Pandemiya tufayli sug‘urta sohasini raqamlashtirish sezilarli darajada tezlashdi, sug‘urta kompaniyalari direktorlarining 96 % bu tendensiyani tasdiqladi.
- Yevropa sug‘urta kompaniyalarining 59 % allaqachon raqamli transformatsiya rejalarini amalga oshirishgan
- 2024 yilga kelib, InsurTech bozori 10,14 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda.
- Sug‘urtalovchilarning qariyb 83 % texnologiya sug‘urta sohasini va mijozlarning umidlarini qayta belgilab berayotganiga rozi bo‘lishdi.
- Sug‘urta tashkilotlarining taxminan 55 % da‘volarni yaxshiroq hal qilish uchun yagshi texnologiyalarga sarmoya kiritmoqda.


Sug‘urta foliyatini tashkil etishda zamonaviy sug‘urta texnologiyalaridan biri bu maxsus dasturiy ta‘minotlar hisoblanadi.

Butun dunyodagi global muammo sifatida ko‘rilayotgan xavf-xatarlar orasida kiberxavflar soni ortib borayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Sug‘urta anderrayting tizimini raqamlashtirish ko‘rsatkichlari o‘sishi bilan bir qatorda kiberxavflarning ta‘siri ham kengayib bormoqda.

Sug‘urta sohasida amaliyot va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan olim F.Xasanovning “Sug‘urta kiberriskdan himoyalaniish mexanizmi sifatida” deb nomlangan maqolasida quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

---

<sup>130</sup> <https://lex.uz/docs/5960604>



### 3.35-rasm. Xalqaro miqyosda kiberjinoyatdan ko‘rilgan zararlar miqdori yillar kesimida<sup>131</sup>

So‘nggi yillarda kiberjinoyatlar ortidan dunyo iqtisodiyotiga kelayotgan zararlar miqdori oshmoqda. 2023-yil oxirida risklarni boshqarish bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra, kiber hodisalar 2024-yilda biznes uchun asosiy xavf bo‘ladi.

Bu kiber hodisalar kiberjinoyat, IT-nosozlik yoki uzilishlar, ma’lumotlar buzilishi, jarimalarni nazarda tutadi. Kelgusi yillarda global kiber Sug‘urta bozori izchil o‘sishi prognoz qilingan<sup>132</sup>.

Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash iste’molchilar talabiga moslashishida asosiy omil hisoblanadi. Sug‘urta sohasiga blokcheyn texnologiyalarini qo‘llash orqali sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligi yanada ortmoqda. 2013-yildagi Accenture Consumer-Driven Innovation tadqiqotlariga ko‘ra, sug‘urtalanuvchilar arzonroq narxlardagi hamda qulay sug‘urta mahsulotlarini talab qilmoqdalar.

Sug‘urta sohasidagi texnologik yangiliklar sug‘urta kompaniyalari tomonidan foydalaniluvchi sug‘urta mahsulotlarini sotish kanallari o‘zgarishiga olib

<sup>131</sup> <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj> II son 2019 йил “Суғурта кибер рискдан ҳимояланиш механизми сифатида” Хасанов Ф

<sup>132</sup> <https://www.statista.com/statistics/422171/leading-business-risks-globally/>

kelmoqda<sup>133</sup>. Shu o‘rinda blokcheyn texnologiyasi o‘zi nimaligi haqida fikr yuritish lozim, ma’lumotlarga ko‘ra “Blockchain” – tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya. Masalan, blockchanda pul ko‘chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Kriptoalyutalarda aynan blokcheyndan kim, kimga va qancha virtual pul o‘tkazganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd qilish uchun foydalaniladi.

Biroq blokcheynda boshqa aktivlarni ham saqlash mumkin. Umuman, nimani qog‘ozda yozishning imkoni bo‘lsa, o‘sha narsalarning barchasini blockchanda ham yozish mumkin, faqat birgina farq bilan – blockchanda yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirishning imkoni yo‘q<sup>134</sup>.

**Blockchain** – fayl yoki ob‘yekt bilan bajariladigan harakatlarni faylga xos kodga shifrlashga yordam beruvchi texnologiya. Bunday nomarkazlashtirilgan axborot xavfsizligini ta‘minlashga avtonom yondashuv, ko‘p sohalar, biznesdan boshlab to ijtimoiy tarmoqlargacha allaqachondan beri kutilyotgan Internet xavfsizligi sohasidagi yangi imkoniyatlarni ochib beradi<sup>135</sup>.

Stev O‘Hearn (2019) tadqiqotlaridan ayon bo‘ladiki, blokcheyn texnologiyasi keng ko‘lamli ilovalarga ega innovastion dastur bo‘lib, u turli moliyaviy sohalarda keng qo‘llanilib kelmoqda, bunda asosiy e‘tibor moliyaviy xizmatlarni soddalashtirish – 40 foizga va xarajatlarni 70 foizga kamaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi<sup>136</sup>.

Sharafetdinov va Terexovanning fikrlariga ko‘ra, bugungi kunda ko‘plab tahlilchilar fikriga tayangan holda blokcheyn Sug‘urta sohasida odatiy holga aylanadi.

Dunyodagi ba‘zi mamlakatlar kompaniyalarida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilayotgani ta‘kidlanmoqda, ularning ko‘chiligida allaqachon blokcheyn texnologiyasi asosida Sug‘urta mahsulotlari yaratilgan. Masalan, Yevropa sug‘urta

---

<sup>133</sup> The Accenture 2013 Consumer-Driven Innovation Survey: Explore the <http://www.accenture.com/data/microsites/URL:/consumerdriveninnovation/Pages/index.aspx>.

<sup>134</sup> <https://ictnews.uz/uz/09/08/2018/blockchain-2/>

<sup>135</sup> <https://ictnews.uz/uz/09/08/2018/blockchain-2/>

<sup>136</sup> Abduraxmonov I. Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash istiqbolari. //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – T. 8. – №. 1. – C. 95-99.

sohasidagi gigantlari – Allianz, Aegon, Munich Re va Zurichda birgalikda sug‘urta mahsulotini yaratish uchun Blockchain Insurance Industry Initiative alyansini yaratilgandir<sup>137</sup>.

Sug‘urta sohasida mavjud blokcheyn afzalliklari bilan bir qatorda muammo va xavflar ham mavjud. Bular quyidagilar bo‘lishi mumkin, energiya iste‘moli, keng ko‘lamlilik, bunda integratsiya jarayonlarining harajatlari aniq asoslangan bo‘lishi kerak, shuningdek, kiberfiribgarlik va huquqiy tartibga solish masalalari bo‘yicha standartlar mavjud emasligi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, sohada blokcheyn texnologiyasi yuqori istiqbolli rivojlanish salohiyatiga ega. Sug‘urtada ushbu texnologiyalarni qo‘llash natijasida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarishdagi harajatlar minimallasadi<sup>138</sup>.

Sug‘urta sohasida XX-XXI asrlar davomida bir qancha fundamental texnologik o‘zgarishlar yuz berdi. Sug‘urta bozorida aktuariylar instituti faoliyat yuritishi natijasida risklarni boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratildi. Sug‘urta sohasida axborot texnologiyalari keng qo‘llana boshlanishi natijasida Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikka ega bo‘lmoqda.

Rossiyalik olimlar A.A. Siganov va D.V. Brizgalovning fikrlaricha sug‘urta sohasini raqamlashishi oqibatida Rossiya sug‘urta bozorida ko‘pgina ijobiy iqtisodiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Jumladan, sug‘urta sohasida samaradorlik va rentabellik oshib, o‘zaro va tijorat sug‘urtasi o‘rtasida P2P sug‘urta platformasi shakllanmoqda va yangi mahsulot va xizmatlar yaratilmoqda, natijada sohada mehnat resurslariga talab o‘zgarmoqda<sup>139</sup>.

Anderrayting xizmatini raqamlashtirish natijasida risklarni boshqarishda yangi metodlar hosil bo‘lishi oqibatida sug‘urtalovchilarning harajatlarini kamayishi

---

<sup>137</sup> Абдурахмонов И. Суғурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболари. //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – Т. 8. – №. 1. – С. 95-99.

<sup>138</sup> Абдурахмонов И. Суғурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболари. //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – Т. 8. – №. 1. – С. 95-99.

<sup>139</sup> Цыганов А. А., Брызгалов Д. В. Цифровизация страхового рынка: задачи, проблемы и перспективы //Экономика. Налоги. Право. – 2018. – Т. 11. – №. 2. – С. 111-120.


hamda risklarni sugʻurtaga qabul qilish boʻyicha xulosani yaratishga sarflanuvchi vaqt tejalishiga olib kelmoqda.

Sugʻurta xizmatini raqamlashtirish boʻyicha Swiss Re tadqiqotiga koʻra, sugʻurtalanuvchilarga oid maʼlumotlar yigʻish va xavf-xatarlarni boshqarish uchun standartlashtirilgan vazifalar avtomatlashtirilmoqda.

Anderrayingda yangi maʼlumotlar manbalarini qoʻshish ortib borayotganligi sababli, sugʻurtachilar ham oʻz qiymat zanjirlari boʻylab, daʼvolar va marketingdan tortib tarqatish va boshqarishgacha boʻlgan barcha jarayonlarni tejash uchun raqamli vositalardan foydalanmoqdalar.

Sugʻurta anderraying xizmatlarini raqamlashtirish sugʻurtalanuvchilarga koʻproq sugʻurtadan foydalanish imkoniyatini beruvchi, shu bilan himoyadagi boʻshliqlarni yopuvchi kuchdir.

Sugʻurta xizmatlarini raqamlashtirish sifatli anderraying, riskni kamaytirish va riskni baholashdan olinadigan daromadni oshiradi<sup>140</sup>.



**3.36-rasm. Sugʻurtani raqamlashtirish indeksi - mamlakatlar reytingi<sup>141</sup>**

<sup>140</sup> <https://beinsure.com/digitalisation-insurance-risks/>

<sup>141</sup> <https://beinsure.com/digitalisation-insurance-risks/>

Dunyo davlatlarida sugʻurta sohasini raqamlashtirish indeksi boʻyicha tahlil qilsak AQSh sugʻurta bozori yuqori darajada rivojlanganligiga qaramay ushbu indeksda 4-oʻrinni egallagan. AQShning umumiy reytingi innovasiyalar boʻyicha boʻshliqni yopmaganligi uchun past oʻrin egallagan. Yana bir eʼtiborga molik tendensiya Janubiy Koreyada sugʻurtani raqamlashtirish indeksini boshqa mamlakatlar indeksiga nisbatan pastligidir.

Sugʻurta sohasini raqamlashtirish sugʻurtachilarga risklarni yanada samarali nazorat qilish, kamaytirish va narxlarni kamaytirish imkonini berdi, bu esa himoya boʻshliqlarini bartaraf etuvchi moslashtirilgan sugʻurta yechimlariga olib keldi. Sugʻurtalovchilar raqamli transformatsiya orqali yoʻqotishlar koyeffisientini 3-8 foizga yaxshilashga va qiymat zanjiri boʻylab harajatlarni 10-20 foizga tejashga erishmoqda. Korxonalar raqamli infratuzilmaga tobora koʻproq tayanar ekan, ikkinchi tomondan oshib borayotgan xavflarga, jumladan biznesning uzilishi va kibertahdidlarga duch kelmoqda.

Sugʻurta xizmatlarini raqamlashtirish boʻyicha Yevropa, Amerika va Xitoy Sugʻurta bozorlari ilgʻor tajribaga ega. Hayot sugʻurtasi tarmogʻidagi tibbiy sugʻurta xizmatlarini teletibbiyot xizmatlari bilan uygʻunlashtirish boʻyicha yaxshigina tajriba takomillashmoqda. Teletibbiyot xizmatlari sugʻurta andarrayterlari xizmati harajatlarini kamayishiga olib keladi.

Signa kompaniyasi tomonidan 2017-yil martidan 2019-yil martigacha oʻtkazilgan tadqiqotlarga koʻra, 132 ishtirokchi davlat orasida 32 ta tibbiyot mutaxassisligi jalb qilinib oʻtkazilgan teletibbiyot xizmatlaridan soʻng bemorlarning 31 foizi uyda qolib, koʻrsatilayotgan xizmatlardan foydalanishni afzal koʻrgan.

Oʻzbekistonlik olimi L.Toshnazarovanning ilmiy xulosalariga koʻra: “Teletibbiyot xizmatlarini sugʻurta mahsulotlari bilan uygʻunlashtirishda inson bilan bogʻliq baʼzi bir maʼlumotlarni toʻliq masofadan turib aniqlashning iloji yoʻqligini qisman tibbiy xizmat samaradoligi sifatiga salbiy taʼsir etadi”.

**Dunyoda ko'rsatilayotgan teletibbiyot xizmatlari (mlrd.AQSh dollarida)**

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Teletibbiyot xizmatlari hajmi	12,8	18,1	23,4	29,1	48,3	56,2	58,4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra dunyoda teletibbiyot xizmati o'sib bormoqda, ayniqsa pandemiyadan so'ng bu ko'rsatkich yanada oshgan.

Anderraying xizmatlarini raqamlashtirish orqali soha takomillashtiriladi. Ushbu raqamlashtirish orqali Sug'urta tashkilotlarini moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlaydi va sog'lom muhitni vujudga kelishini ta'minlaydi.

**Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Mamlakatimiz sug'urta kompaniyalarida anderrayingni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari ishda ko'rsatib berilganligi bilan xarakterlanadi.

Anderraying sug'urta kompaniyasini butun munosabatlarini o'rganib, foyda keltirish yo'llarini izlaydi, har bir sug'urtalanuvchidan iqtisodiy manfaat ko'rish va shu hisobida sug'urta kompaniyasining moliyaviy quvvatini o'ylaydigan xodim hisoblanadi.

Anderrayerlar hozirgi ish jarayonida tuzilgan shartnomalarni sug'urta kompaniyasi manfaatidan kelib chiqib, korrektirovka qilishi lozim.

III bobda kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayingni tashkil etish, anderraying xizmatini yanada rivojlantirish va zamonaviy shaklga keltirish, ularga talabni oshirish va sug'urta obyektlari qaltisliklarini to'g'ri baholashni yo'lga qo'yish orqali ishlarni takomillashtirish hamda maqsadli takliflar ilgari surilmoqda. Jumladan anderrayerlar funksiyasini nazorat qilish va bugungi kun talabidan kelib chiqib anderraying tizimini kuchaytirish taklif qilinmoqda.

Hozirgi kunda anderraying nazorat funksiyasini kuchaytirish davr talabi bo'lib, bu borada quyidagilarni olib borish maqsadga muvofiqligi ko'rsatilmoqda. Jumladan, sug'urtada monitoring olib borish, standartlar asosida sifatli sotuvni

yo'lga qo'yish, axborotlar yig'ish, portfel va tarif siyosati monitoring parametrlarini belgilash o'rinli bo'ladi.

Izlanishda yangi yondashuv, andarrayting turlarini tasniflash, sug'urta mukofoti qiymatini hisoblash yuzasidan takliflar berilmoqda.

Mustaqil izlanishda andarrayting samaradorligini moliyaviy natijalar bilan bevosita bog'lash taklif etilgan. Jahondagi globallashuv va savdoni baynalminallashuvi, investitsion jarayonlarni dunyo miqyosida rivojlanishi Sug'urta sohasini butun imkoniyatlari bilan rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Dunyodagi eng yirik sug'urtachi AQSh hisoblanadi. Internetdagi xabarlarda AQSh yalpi ichki mahsuloti harajatlarining 31 foizini sug'urta mablag'lari tashkil etmoqda. Yaponiyada hozirgi kunda uy xo'jaligi a'zolarining 90 foizi hech bo'lmaganda 1 tadan sug'urta polisiga ega ekanligi ko'rsatilmoqda.

O'zbekistonda 20 mln. aholi ishga layoqatli hisoblanib, biroq ularning 11 mln.i sug'urtaga tortilmagan, ya'ni bu raqam 50 % ortig'iga to'g'ri kelmoqda. Bu bilan bizda shunday katta imkoniyatlardan foydalanilmayapti, natijada ayrim aholi ijtimoiy himoyasi uchun mablag' yetarli bo'lmayapti.

Andarraytingni xulosalari bo'yicha eng xavfli risk bu suv toshqini, qattiq shamol va bo'ron, sel va yog'ingarchilik, yong'in, qurg'oqchilik bunday risklarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni ko'rsatib berish lozim.

Mazkur bobda sug'urta ob'yektlarini o'rganish, andarrayting siyosatining o'rni va faoliyatini tizimli yuritish va muammolardan himoyalanihga asoslangan holda ko'rsatilgan.



## TAKLIF VA XULOSA

Mazkur tadqiqot O'zbekiston sug'urta bozorida anderraying siyosatini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ko'tarilgan mavzu bugungi sug'urta bozori uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy izlanishda sohani isloh qilish va jadal rivojlanish yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2-avgustdagi 4412-sonli qarori asosida amalga oshiriladigan tadbirlar ko'zda tutilgan. Bu qarorda sug'urtaning mohiyati va afzalliklarini keng jamoatchilik o'rtasida tashviqot qilish, sohaga zamonaviy va ilg'or xorij tajribalarini amaliyotda qo'llash yuzasidagi masalalar ustuvor vazifalar qilib ko'rsatilgan.

Ilmiy ish xulosalari mantiqiy va izchillik bilan isbotlangan, unda O'zbekistonda sug'urta bozorida zamonaviy anderraying istiqbollarini tizimlashtirish va umumlashtirishni nazarda tutilgan, unda ilgari surilgan masalalar yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari aniq ko'rsatilgan.

Dissertasiyada bildirilgan taklif va xulosalar asoslangan ma'lumotlar bo'yicha tavsiya qilinmoqda, undagi terminlar aniq va tushunarli tilda yozildi hamda respublika kompaniyalari rivoji uchun sug'urtada anderraying siyosatini rivojlantirish maqsadida quyidagi g'oyalar va takliflar ilgari surilgan hamda bu takliflarni bevosita amaliyotda tatbiq etish orqali tegishli ijobiy natijalarga erishilishi ko'rsatilgan.

Misol keltirsak, amaliyotga qo'llash uchun quyidagilar taklif qilinmoqda:

- qonun hujjatlariga o'zgartirishlarni kiritish, xususan, anderraying, anderrayerlar to'g'risida tushunchalarni, ularning funktsiya va vazifalarini belgilash;
- ilg'or xorij davlatlar anderraying tizimi amaliyotini qabul qilish, jumladan sug'urta mutaxassislarini tayyorlovchi muassasa, o'quv yurtini tashkil etish;
- anderrayerlarni savodxonligini va malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv markazlarini tashkil etish, ular uchun maxsus o'quv kurslarini yaratish. (Masalan, "O'zbekinvest" EISK AJda tashkil etilgan sug'urta maktabi tajribasidan foydalanish. Jumladan, 2019-yildan boshlab, Bosh kompaniya va uning quyi

tuzilmalari xodimlari xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtlariga malaka oshirish va o'quv kurslariga yuborilmoqda. Bu tajribani respublika bo'yicha qo'llash);

- sug'urta kompaniyalari amaliyotida anderrayting siyosati va anderrayterlar faoliyatini tizimli tashkil etish;

- anderrayting faoliyatni raqamlashtirish va bu jarayonni qonunchilik bilan asoslash. Bu tizim sug'urtaning shaffofligini ta'minlaydi va mijozlarning ishonchi oshadi hamda xizmatlar hajmi oshishiga olib keladi.

Anderraytingni raqamlashtirish amaliyoti "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasida qabul qilingan, buning uchun elektron dasturlar ishlab chiqilmagan va ular 2024-yilda test rejimida ishlamoqda;

Ilmiy ish ma'lumotlari asosida sug'urta yo'nalishida o'qiyotgan talabalar va mutahassislar uchun darslik tayyorlanishi rejalashtirilmoqda.

Tadqiqotdagi tavsiya qilinayotgan yo'nalishlar kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va yetarli zaxiralarini shakllantiradi hamda bugungi kunda kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari ushbu jarayon respublika iqtisodiyotiga etadigan zararlarni oldini olish va ortiqcha byudjet harajatlarini yukini kamaytiradi.

Shuningdek, dissertatsiya ishi sug'urtada anderrayting ishini tizimli yuritish uchun qonun bilan asoslash hamda soha amaliyotida xalqaro ilg'or tajribalarini tatbiq etishni va dunyodagi zamonaviy xizmat turlarini joriy etish ko'rsatilmoqda, hamda kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayting xizmatining o'rni o'ta muhimligi va ushbu xizmatlar tizimli tashkil etilishi belgilanmoqda.

Ilg'or xorij kompaniyalari tajribasi asosida respublikamiz sug'urta kompaniyalarida anderrayting tizimini joriy etish ilmiy ishda chuqur va uzoq davrdan buyon o'rganganligi ko'rsatib o'tildi. Bugun izlanishlarni tugatgan holda quyidagi xulosalar berilmoqda:

1. Rivojlangan xorij davlatlari sug'urtasining huquqiy va me'yoriy hujjatlari bo'yicha respublikamiz qonunchiligida anderrayting asoslarini belgilash.

2. Mamlakatimizdagi sug'urta kompaniyalarida anderryayting boshqaruv tuzilmasini (bo'limini) ochish.

3. Xorijiy mamlakatlarda anderryayting mutaxassislariga e'tibor bilan qaraladi, shuni hisobga olib respublika miqyosida tanlov e'lon qilib, professional, etarli katta ish stajiga ega, xorij tilini biladigan, chuqur fanlarni biladigan hamda analitik tahlilchilikdan bilimi mavjudlarni tanlash va ularga differensiyalashtirish maosh berilishi asosida tashkil etish.

4. Anderryayter kompaniyaning vakolatliga ega bo'lishi va uning foydasini ko'zlab sug'urta obyektini chuqur monitoring qilib, risklarni zarar yoki foyda keltirishini tahlil qilib borishi lozim.

5. Anderryaytingning eng katta vazifasi bu risklarini baholash bo'lib, Sug'urta hodisalari yuzasidan tahlil o'tkazish va chiqarilgan natija hisobiga olish, agar xulosa qoniqtirmasa anderryayter qaytadan ekspertiza belgilash huquqini berish katta foyda keltiradi deb hisoblash lozim.

6. Anderryayting sistemasini sug'urta kompaniyasida joriy etish natijasida sug'urtalanuvchilarni arizasi va anketa ma'lumotlari anderryayterlar tomonidan o'rganilib, sug'urta badallari o'z vaqtida to'lanishini amalga oshirish kerak va turli shubhali mijozlar shartnomasini mufassal tekshirishni yo'lga qo'yish kelajakda sug'urta kompaniyasini kasoddan saqlaydi.

7. Anderryayting tizimining sug'urta kompaniyasida joriy etilishi, anderryayterlarning muntazam malakasini oshirish, o'zining professional ilmiy salohiyatini oshirishini ta'minlaydi. Anderryayting tizimi ko'rilgan zarar va sug'urta kompaniyasiga keltirgan foydasini aniqlab, xatolarni tuzatishi va malaka darajasini yuksaltirishni asosiy vazifa qilib qo'yish zaruratdir.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Shveytsariya, Yaponiya, Italiya, Kanada va boshqa mamlakatlardagi anderryayting faoliyati o'rganilib, ularning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan tavsiyalar berildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412- sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
2. “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi 2002-yil 5-aprel, 358-II-son qonun va uning yangi loyihasi.
3. Internet-izdaniye “Gazeta.uz” - “Statya Perejivut li straxoviye kompanii krizis?” / [<https://www.gazeta.uz/ru/2020/06/19/insurance/>].
4. Statista [statista.com] – “Value of newly contracted annualized insurance premiums at insurance shops in Japan from fiscal year 2011 to 2018 with a forecast until 2020” / [<https://www.statista.com/statistics/707052/japan-insurance-premiums-value/>]
5. Insurance outlook – 2020/ [<https://www2.deloitte.com/us/en/insights/industry/financial-services/financial-services-industry-outlooks/insurance-industry-outlook.html>]
6. Global Economic And Insurance Market Outlook 2020/2021 [<https://www.swissre.com/dam/jcr:60421a3b-f246-4718-8374-f4170d52b492/global-economic-and-insurance-outlook-2021.pdf>]
7. G‘ulomov S.S., Mirzoyev S.F., Boyev O.X. Xorijiy mamlakatlar sug‘urtasi tajribasidan O‘zbekistonda foydalanish. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2005.
8. G‘ulomov S.S., Mirzoyev S.F., Boyev O.X. Aholini ijtimoiy sug‘urtalashda ijtimoiy sug‘urta. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2004.
9. Азимов Р.С. Страхование в Узбекистане: история, современное состояние, вызовы в процессе развития, страхование внешнеэкономической деятельности. – Т:“TURON-IQBOL”, 2021, 168с.
10. Азимов Р.С. Страховые механизмы поддержки внешнеэкономической деятельности. Коллективная монография. Москва, Изд. «Прометей», 2022 г. – С 465.
11. Азимов Р.С. Эффективность обязательного страхования. Коллективная монография. Москва, Изд. «Прометей», 2022 г. – С. 451.

1 2. Азимов Р.С. Теория и практика цифровизации страхового рынка в РФ», Коллективная монография. Москва, Изд. «Прометей», 2021 г. – С. 376.

13. Азимов Р.С. Страхование в условиях цифровой экономики: наука, практика, образование. Коллективная монография. Москва, Изд. «Инфра-М», 2022 г. – С. 257.

14. Архипов А.П. “Основы страховой деятельности” учебник. Москва Издательство БЕК, 2002.

15. Куликов С.В. Методология страховой науки //Вестник НГУЭУ. – 2008. - №1

16. Болшинан.Б. Права социальной защиты: учеб. Пособие знати 2003 405. Москва; Воблый К.Г. Основы экономики страхования, Москва, 1993 С 104, Осенко С.А. Административная ответственность в сфере страхования, 2016. Москва; Козлов О.Н. Актуальные проблемы страхования жизни их решение с использованием маркетингового подхода, 2017, Москва.

17. G‘ulomov S.S., Boyev X.I., Sug‘urtaishi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2000. – 91 b.

18. G‘ulomov S.S., Boyev X.I. Valyuta, moliya, kredit, bank va Sug‘urta muammosi. – Toshkent, 1997. – 130 b.

19. Maxmudov N.M., Boyev X.I. Tashqi iqtisodiy faoliyat sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. – 178 b.

20. Никитин А.В. Государственная поддержка страхования сельскохозяйственных рисков: теория, методология и практика. 08.00.05. – Экономика и управление предприятиями, отраслями, комплексами АПК и сельское хозяйство); 08.00.10. – Финансы, денежное обращение и кредит (страхование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва. 2008. – 47с.;

21. Парахин Ю.Н. Страхование в аграрной сфере: теория, методология, практика. 08.00.05. – Экономика и управление народным хозяйством: (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами – АПК и сельское хозяйство); 08.00.10 – Финансы, денежное

обращение, кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Воронеж-2011. – 52с.;

22. Яшина Н.М. Обеспечение финансовой устойчивости страховой организации: теория, методология и практика. 08.00.10. – Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва-2008. – 41с.;

23. Кириллова Н.В. Страхование промышленных предприятий теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. – М.: - 2007. – с.41.;

24. Насырова Г.А. Институтное обеспечение системы регулирования страховой деятельности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. – СПб.: - 2017. – с.38.;

25. Аршба М.В. Страховое обеспечение устойчивости воспроизводственного режима функционирования сельскохозяйственных товаропроизводителей. 08.00.10 – финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ростов-на-Дону-2014.- 25с.;

26. Егоров Д.И. Страхование сельскохозяйственных рисков. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва – 2010. – 22стр.;

27. Назарова А.А. Совершенствование сельскохозяйственного страхования с государственной поддержкой в России. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами: АПК и сельское хозяйство); 08.00.10 - финансы, денежное обращение и кредит (рынок страховых услуг). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2015.;

28. Покидова В.В. Развитие страхования урожая, осуществляемого с государственной поддержкой. 08.00.10 – финансы, денежное обращение и

кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Волгоград – 2011.;

29. Хоминич И.П., Дик Е.В. Мировой страховой рынок. //Учебник.- Москва.: КНОРУС, 2020.-400стр.;

30. Гомелля В.Б. Очерки экономической теории страхования/ под ред.Е.В. Коломина – М.: Финансы и статистика, 2010. – 352 с.;

31. Ахвледиани Ю.Т. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография/. – Москва: РУСАЙНС, 2017. – 236 с.;

32. Просандеева Т.И. Особенности формирования спроса и стимулирования предложения на рынке агрострахования// Специальность: 08.00.05 – Экономика и управления народным хозяйством: маркетинг. Ростов-на-Дону – 2018. 26 стр.:

33. Сплетугов Ю.А. Сельскохозяйственное страхование в России и за рубежом: сравнительная характеристика. Финансовый журнал / Financial Journal №1 2018.

34. Shennayev X.M. O‘zbekiston Respublikasida Sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kedit” ixtisosligi bo‘yicha i.f.d. darajasini olish uchun dissertatsiya Avtoreferat. – T.: TMI, 2021. - 84 b.

35. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekistonda Sug‘urta faoliyatini rivojlanishini boshqarish, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2012. – 49 b.

36. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro Sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 75 b.

37. Burxanov A.U. Moliyaviy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2019. – 220 b.

38. Baymuratov T.M. O‘zbekistonda Sug‘urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – T., 2004. – 22 b.

39. Nurullayev A.S. O‘zbekistonda fermer va dehqon ho‘jaliklarini Sug‘urtalash masalalari – T., 2007. – 24 b.
40. Abduraxmonov I.X. O‘zbekiston Respublikasida javobgarlikni Sug‘urtalashning amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2010. – 20 b.;
41. Boyev X.I. Sug‘urtalash. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. – 120 b.
42. Mavrulova N.A. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qayta Sug‘urtaning rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T., 2019. – 62b.;
43. Kenjayev I.G‘. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 59 b.
44. Xalikulova G.T. Sug‘urta tizimi va uning amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 62 b.
45. Haqberdiyev B.U. O‘zbekistonda Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – 63 b.
46. Baymirzayev D.N. Qishloq ho‘jaligida xatarlarni Sug‘urtalashning xorijiy mamlakatlar tajribasi. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, 2019-yil; Nosirov J.T. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T., 2021. – 53 b.
47. Baratova D.A. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan hayot Sug‘urtasini rivojlantirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – 54 b.
48. Vaxobov A.R. Kreditlarni sug‘urtalash tizimi o‘zini oqlayaptimi? // Bank axborotnomasi, 2019-yil 16-may. 20-son.



49. Архипов, А. П. Социальное страхование: учебник и практикум для академического бакалавриата / А. П. Архипов. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 301 с.
50. Бабурина, Н. А. Страхование. Страховой рынок России: учеб. пособие для вузов / Н. А. Бабурина, М. В. Мазаева. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 127 с.
51. Баранова, А. Д. Актуарные расчеты в страховании жизни: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / А. Д. Баранова. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 194 с.
52. Ермасов, С. В. Страхование в 2 ч. Часть 1. : учебник для академического бакалавриата / С. В. Ермасов, Н. Б. Ермасова. — 6-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 475 с.
53. Мазаева, М. В. Страхование: учеб. пособие для вузов / М. В. Мазаева. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 136 с.
54. Миропольская, Н. В. Основы социального страхования: учеб. пособие для СПО / Н. В. Миропольская, Л. М. Сафина. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 149 с.
55. Миропольская, Н. В. Социальное страхование: учеб. пособие для академического бакалавриата / Н. В. Миропольская, Л. М. Сафина. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 149 с.
56. Организация страхового дела: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / И. П. Хоминич [и др.]; под ред. И. П. Хоминич, Е. В. Дик. — М.: Издательство Юрайт, 2020. — 231 с.
57. Роик, В. Д. Медицинское страхование. Страхование от несчастных случаев на производстве и временной утраты трудоспособности: учебник для бакалавриата и магистратуры / В. Д. Роик. — 3-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 317 с.

58. Скамай, Л. Г. Страхование: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Л. Г. Скамай. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 322 с.

59. Социальное страхование: учебник для академического бакалавриата / Ю. П. Орловский [и др.]; под общ. ред. Ю. П. Орловского. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 127 с.

60. Страхование: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / отв. ред. А. Ю. Анисимов. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 218 с.

61. Страхование в 2 ч. Часть 1: учебник и практикум для академического бакалавриата / Е. В. Дик [и др.]; под ред. Е. В. Дик., И. П. Хоминич. - 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. - 311 с.

62. Страхование в 2 ч. Часть 2: учебник и практикум для академического бакалавриата / Е. В. Дик [и др.]; под ред. Е. В. Дик., И. П. Хоминич. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. — 318 с.

63. Страхование и управление рисками: учебник для бакалавров / Г. В. Чернова [и др.]; под ред. Г. В. Черновой. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2017. - 767 с.

64. Страхование. Практикум: учеб. пособие для академического бакалавриата / Л. А. Орланюк-Малицкая [и др.]; отв. ред. Л. А. Орланюк-Малицкая, С. Ю. Янова. — М.: Издательство Юрайт, 2019. - 575 с.

65. Страхование: учебник и практикум для СПО / отв. ред. А. Ю. Анисимов. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. - 218 с.

66. Суринов, А. Е. Экономическая статистика в страховании: учебник для академического бакалавриата / А. Е. Суринов. - 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 276 с.

67. Тарасова, Ю. А. Страхование: учебник и практикум для СПО / Ю. А. Тарасова. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 235 с.